ISSN 2181-4589

NAMANGAN
MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT

ILMIY JURNALI

2025 №2

- Avtomobil yo'llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar
- Transport muhandisligi
- Texnika va texnologiya
- Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt
- Energetika va muqobil energiya manbaalari
- Ta'limda zamonaviy texnologiyalar

nammqi_info@edu.uz

Namangan shahar, Islom Karimov ko`chasi 27-uy

ISSN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT

ILMIY JURNALI

2025 №2

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ НАУКИ, ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT

NAMANGAN-2025

2024 yildan nashr etiladi.
Yiliga 6 marta chop qilinadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024 yil 17-dekabrdagi № 522134 raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan

ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT ILMIY JURNALI TAHRIR HAY’ATI

Bosh muharrir: **SH.SH.JO‘RAYEV**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **D.I.MAXKAMOV**
Mas’ul kotib: **M.A.TUXTABAYEV**

Avtomobil yo‘llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar:

Akademik S.S.Negmatov (TDTU “Fan va taraqqiyot” DUK), q.s.f.d. dots. B.K.Duysenbekov (M.Auezov nomidagi JQDU), t.f.d., prof. R.X.Soliyev (NamMQI), t.f.n.,dots. Q.M.Inoyatov (NamMQI), t.f.n.,dots. Sh.A.Xalimov (NamMQI), t.f.f.d. M.B.Boytemirov (NamMQI).

Transport muhandisligi:

t.f.d.,prof. D.V.Kapskiy (BMTU), I.f.d., prof. R.B.Ivut (BMTU), t.f.n.,dots. J.Xolmirzayev (NamMQI), t.f.f.d.,dots. M.B.Boydadayev (NamMQI), t.f.f.d.,dots. Z.T.Munavvarxonov (NamMQI), t.f.n.,dots.A.R.Normirzayev (NamMQI).

Texnika va texnologiya:

t.f.n., k.i.x. A.L.Zhaludkevich (NAS of Belarus), t.f.n., k.i.x. O.F.Demidenko (NAS of Belarus), t.f.d., prof. V.M.Turdaliev (NamMQI), t.f.d.,dots. X.G.Abdulxayev (NamMQI), t.f.n.,dots. A.D.Nuriddinov (NamMQI), t.f.f.d.,dots. B.A.Xatamov (NamMQI), t.f.n.,dots. S.T.Qodirov (NamMQI), t.f.f.d, dots. R.X.Murodov (NamMQI).

Taraqqiyot strategiyasi: aqlli shahar, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt:

Q.s.f.d., dots. K.S. Dosaliyev (M.Auezov nomidagi JQDU), t.f.n.,dots.T.M.Jo‘rayev (NamMQI), t.f.n.,dots.A.A.To‘xtabayev (NamMQI), t.f.f.d., dots.S.R.Komilov (NamMQI), t.f.f.d.,dots. Z.N.Mamadjanov (NamMQI).

Energetika va muqobil energiya manbalari:

T.f.d., prof. G.A.Govor (NAS of Belarus), f.m.f.d., prof.M.G‘.Dadamirzayev (NamMQI), t.f.f.d.,dots.F.F.Sharipov (NamMQI), t.f.n.,dots. M.X.Murodov (NamMQI), t.f.f.d.,dots. E.X.Berkinov (NamMQI).

Ta’limda zamonaviy texnologiyalar:

Dr. Ahmed Akhlahan (Jawaharlal Nehru Universiteti), t.f.d., prof. B.E.Sultonov (NamDU), p.f.d., prof. O.S.Abdullayeva (NamMQI), p.f.d., prof. T.I.Ismoilov (NamDPI), , t.f.f.d., dots. G‘.N.Sharifov (JizDPU), p.f.f.d.dots. P.Botirova (NamMQI), t.f.f.d.,dots. M.X.Dadamirzayev (NamMQI).

Muharrirlar: X.M.Soliyev, Z.X.Isoqova, G.F.Valiyeva
Texnik muharrirlar: A.Xamzayev, M.M.Ergashev, M.Z.Muxtarov

MUNDARIJA

AVTOMOBIL YO‘LLARIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA TADQIQOTLAR

1 Хамидов А.И., Умаров И., Нуритдинов Ж. Автомобиль йўллар цементобетон қопламалари хусусиятлари 6
2 Ikramova F.X., Sulaymonov M.F. Avtomobil yo‘llaridan yer osti suvlarini chetlatish usullari 10
3 Xayitov X.X., Xudaykulov R.M. Avtomobil yo‘llarining yon bag‘ridagi ko‘chkilarni baholash 14
4 Namozov A.A., Salimova B.D. Namangan viloyatida sel oqimlarini statistik tahlil qilish, hamda avtomobil yo‘llariga va sun’iy inshootlarga ta’siri bo‘yicha kartografik tumanlashtirish 17
5 Эшанбабаев А.А., Сапаев Б.Б. Методы определения геометрических параметров дороги 20

TRANSPORT MUHANDISLIGI

6 Ивуть Р.Б., Лапковская П.И., Нормирзаев А.Р. Развития транспортно-логистических систем в условиях рынка транспортных услуг 23
7 Tuxtabayev M.A., Tuxliev G.A. Shahar ichi yo‘lovchi tashishni tashkil etish 26

TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA

8 Рўзметов Р.И., Туйчиев Т.О., Пахтани қуритиш давомийлигини тола сифатига таъсири 29
9 Ходжибаев В.Р., Пулатова Х.Х. О вероятности разорения для обобщённого пуассоновского процесса 32
10 Ризаев Б.Ш. Влияние температурно-влажностьных условий на усадочные деформации легкого бетона 36
11 Parpiyev A.P., Kuziyev B.N., Turdiniyozova H.G‘. Paxtadan ajralgan iflosliklarni aspirasiya tizimini nazariy tadqiqoti 40
12 Гаппарова М.А., Кузиев Б.Н., Турдиниёзова Ҳ.Ғ. Тозалаш агрегатининг аррачали бўлимини такомиллаштириш натижалари 45
13 Парпиев А.П., Кузиев Б.Н., Турдиниёзова Ҳ.Ғ. Тозалаш жараёнида аррали бўлимлардан ажралган чиқинди улушларини аниқлаш натижаларининг тахлили 49
14 Эрдонов А.М., Росулов Р.Х. Пахтани майда ифлосликлардан тозалагич 58
15 Maxmudov Z.S., A’zamov Q. S. Nazariy mexanika fanidan ko‘p variantli masala va topshiriqlar tuzish tajribasidan 61
16 Салохиддинов Н.С., Норбаева Д., Хамиджонов М. М., Хамиджонова Д.З. Пахтани ишлаб чиқаришда майда ва йирик ифлослик технологиясини аниқлаш 66
17 Juraev Sh. Sh., Qosimov T.O., Habibullayev M.J. Qoplamasiz kanal gidravlik parametrlarini “River surveyor S5 system manual” tizimli o‘lchov jihozi asosida tahlil qilish 70
18 Ленский А.В., Абдулхаев Х.Г. Конструктивные особенности агродронов 75
19 Ленский А.В. Классификация беспилотных летательных аппаратов для сельского хозяйства 80
20 Янгибоев И., Давлатов П., Берданов Э.Х. Майда ифлосликлардан тозалашда колосникларнинг техник кўрсаткичларини 86
21 Komilov S.R., G‘ofurjonov M.A. Issiqxona muhitini iot (internet of things) ga asoslangan masofaviy monitoringi. 90
22 Razzaqov S.J., Xolboev Z., B.Maqsud o‘g‘li Fibrotemirbeton to‘sinlarni ansys dasturi yordamida kuchlanganlik- deformatsiyalanuvchanlik holatini modellashtirish 100
23 Abdulxayev X.G‘., Otaxanov B.S., Sodiqov M.A., Abdumannopov N.A., To‘lqinov I.

Sochiluvchan mahsulotlarni quritishda qo‘llaniladigan saralash qurilmalari tahlili 105
24 Бабаханова Х.А., Абдухалилова М.Г. Анализ методов выбора компонентов системы печати, влияющих на баланс «вода-краска» 109
25 Ergashev Sh., Otaxanov B., Qidirov A., Abdumannopov N., Sodiqov M., Rasulova G. Mikroto‘lqinli muhitida quritish qurilmalari bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili..... 113
26 Нуриев К.К., Элибоев А.А. Разработка клиновидных соединительных элементов для рабочих органов почвообрабатывающих машин..... 119
27 Шамсиева Н.Ш., Абдуллаев У.Т., Эргашов М., Мухторов Э.М. Сочиқбоп тўқималарни олиш технологияси ва усуллари 124

TARAQQIYOT STRATEGIYASI: AQLLI SHAHAR, RAQAMLI IQTISODIYOT, SUN’IY INTELLEKT

28 Богданович С.В. Бурова М.Г. Анализ и моделирование рисков в интеллектуальных системах управления дорожной безопасностью..... 129
29 Tuxtabayev M.A., Tuxliev G.A. Shahar yo‘lovchi tashish tizimida geoinformatsion texnologiyalar qo‘llash 131

ENERGETIKA VA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI

30 Акматова Р.Э., Рыскулова Д.З. Экологические аспекты использования биогазовых установок на территории кр..... 134
31 Минчукова О.Ф., Желудкевич А.Л., Лежнёва Я.В., Павлович К.А., Абдулхаев Х.Г., Мансуров М.Т., Косимов К.З., Юлдашев Ш.Х. Влияние различных режимов термобработки на микроструктуру стали марки 45г 137
32 Зулунов З.Т., Мирзаев И.Ғ., Яшаров М.И. Қишлоқ хўжалик корхоналарида сақланаётган тиниқ нефт махсулотлари буғларини ушлаб қолувчи мослама..... 141
33 Мирзаев И.Ғ., Зулунов З.Т., Халилов М.М., Яшаров М.И. Қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришида дизель ёнилғиларини ифлосланиш сабаблари..... 145

TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

34 Kodirov I. N. Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlashda ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’milashga dual ta’limning o‘rni 149
35 Egamberdiyev A.O. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar, talabalarning maxsus kompetensiyalarini shaklantirishning pedagogik asosi 153
36 Buzrukov Z.S., Abduraxmanov A., Turg‘unov M. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida muhandislik ta'limining innovatsion tuzilishi..... 156
37 Jakbarov O.O. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy ta’limning qiyosiy tahlili: yaponiya va o‘zbekiston misolida 159
38 Isaboyev Sh., A`zamov Q.S., Musomiddinov A.M. Oliy ta`lim muassasalari faoliyatiga xususiy sektorni jalb etish: horijiy tajriba va milliy yondoshuv 163
39 Isaboyev Sh., Najmiddinov I.B., Eshmahmatov O., Musomiddinov M.A. Mexanika (nazariy mexanika va nateriallar qarshiligi) fanlarini o'qitishning o`ziga xos tamoyillari hususida..... 167

АВТОМОБИЛЬ ЙЎЛЛАР ЦЕМЕНТОБЕТОН ҚОПЛАМАЛАРИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Хамидов А.И., Умаров И., Нуритдинов Ж. (НамМҚИ)

Аннотация. *Мақолада автомобил йўллар цементобетон қопламаларининг хусусиятлари, улар сифатига таъсир этувчи омиллар ҳамда сифатини таъминловчи тадбирлар каби масалалар ёритилган.*

Калит сўзлар*. Қурилиш, йўл, автомобиль, цементобетон, асфальтобетон, қоплама, ёриқлар, сифат, муаммоллар, қуруқ-иссиқ иқлим, ҳавотортувчи қўшимчалар, пластикловчи қўшимчалар.*

Аннотация. *В статье освещены вопросы особенности цементобетонных покрытий автомобильных дорог, факторы влияющие на их качество, а также мероприятия обеспечивающие качество дорог.*

Ключевые слова*. Строительство, дороги, автомобиль, цементобетон, асфальтобетон, покрытие, качество, проблемы, сухой жаркий климат, воздухововлекающие добавки, пластифицирующие добавки.*

Abstract. *The article highlights the issues of the features of cement concrete road surfaces, factors affecting their quality, as well as measures to ensure the quality of roads.*

Key words. *Construction, roads, automobile, cement concrete, asphalt concrete, surface, quality, problems, dry hot climate, air-entraining additives, plasticizing additives.*

Йўл қопламалар ишончлилиги, ишлаш қобилияти ва мустаҳкамлигига қуйиладиган талабларни ошиши транспорт воситалар юк кўтариш миқдорини ошиши ва йўллардаги ҳаракатлар интенсивлигига боғлиқ.

Ўзбекистонда автомобил йўлллар қопламалари кўп холатларда асфальтобетондан тайёрланади. Бизнинг кузатишларимизга кўра, асфальтобетон қопламали йўллар эксплуатацияга қабул қилингандан сўнг, 2-3 йил ўтганда, таъмир талаб қилади (ёриқлар, чуқурчалар ва уйилган жойларни тўлдириш, текислаш ва б.).

Цементобетонли қопламалар эса, сифатли, технология талабларига риоя қилган ҳолда ётқизилган бўлса ва тўғри эксплуатация қилинса (чокларни вақти-вақти билан тиклаш, ёриқларни майда таъмирлаш ва ш.к.), биринчи 10-12 йил эксплуатациясида таъмир ишларини талаб қилмайди ва 50 йил ва ундан кўп вақт хизмат қилиши мумкин [1].

Эътиборлиси, Ўзбекистон ва дунё тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, йўлларга қуйиладиган талабларга кўп жиҳатда цементобетон қопламали автомобиль йўллари жавоб беради.

Шунинг учун, бугунги кунда йўл қопламаларида цементобетондан фойдаланиш энг самарали усулдир.

Шуни таъкидлаш лозимки, цементобетон қопламалар қурилиши алоҳида ёндашиш ва эътиборни, тўла техник таъминотни, ижрочилар юқори малакасини, қурилишни оптимал ташкил этишни талаб қилади.

Охирги йилларда лойиҳалаш жараёни такомиллашиб бормоқда. Янги методикалар юкламалар турлари, қурилиш объектлари, материаллар ва иқлим шароитларини ҳисобга олади.

Лойиҳалашнинг асосий параметрлари қуйидаги омилларга боғлиқ:

- ✓ мавжуд грунтлар тури;
- ✓ иқлимий шароитлар;

- ✓ ҳаракат инстенсивлиги;
- ✓ дренаж ва б.

Цементобетон қопламалар сифат, мустаҳкамлиги, чидамлилиги ва кўрсаткичлари бўйича асфальтобетонга нисбатан юқори. Эксплуатациясида, таъмир ишларини талаб қилмайди ва узоқ вақт хизмат қилиши мумкин. Шунинг учун, йўллар қурилишида, самарали цементобетон қопламалар қуриш ҳажмини ошириш зарур.



1-расм. Цементобетон қопламани ётқизиш технологияси

Цементобетон қопламаларнинг қурилиш амалиёти шуни кўрсатадики, у ёки бу дефектларнинг ҳосил бўлишини олдини олиш жуда мураккаб ва улардан тўла қочиб бўлмайди [2]. Ёриқлар ҳосил бўлишига, тоб ва пўст ташлашига таъсир этадиган кўплаб омиллар мавжуд. Таъкидлаш лозимки, у ёки бу дефектлар ва бузилишлар ҳосил бўлиши сабаблари, кўп холларда бир неча омилларни биргаликда бир вақтда таъсир этишидир. Ёриқлар ва бошқа дефектлар ҳосил бўлишига асосий сабаблар қуйидагилар бўлиши мумкин:

- ✓ Бетон қоришмаси таркибини нотўғри танлаш:
- ✓ Бетон қоришма тайёрлашдаги бузилишлар:
- ✓ Қурилиш шароитлари яхши эмаслиги, бетон қоришмасини ётқизиш технологясини бузилиши ва эксплуатация шароитлари ноқулайлиги.

Бизнинг фикримизча, цементобетон қопламали плиталарнинг юқори қисмининг мустаҳкамлиги пасайишини асосий сабаблари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

- ✓ бетоннинг зарравий таркиби оптимал эмаслиги;
- ✓ пластификация қўшимчаларнинг ортиқча қўшилганлиги;
- ✓ бетон қоришмаси бир жинслик эмаслиги ва нисбатан юқори ёйилувчанлиги;
- ✓ ортиқча зичлаш (вибрация) натижасида, янги ётқизилган бетон қоришмасини сегрегацияси;
- ✓ бетон парвариши етарли эмаслиги.

Автомобиль йўллар сифатига таъсир этувчи омиллар ва уларни бартараф этишш тадбирларини кўриб чиқамиз.



2- расм. Цементобетон қопламаларидаги ёриқлар

1.Қуруқ иссиқ иқлим шароитида автомобиль йўлларига янги ётқизилган бетон парваришига оид кўплаб маълумотлар ва тавсиялар мавжуд. Цементли бетон яхши қотиши учун нам шароит талаб этилади. Қуруқ-иссиқ иқлим бетон тайёрлаш, ташиш, ётқизиш ва парвариш қилишда қийинчиликлар туғдириши ва бетон физик-механик хоссаларига ва чидамлилига салбий таьсир кўрсатиши аниқланган. Янги ётқизилган бетондан қориштирилган сувнинг жадал суръатларда буғланиши бетоннинг физик-механик ва деформатив хоссаларининг ёмонлашуви асосий сабабларидан биридир. Янги ётқизилган бетонни, сувсизланишини олдини олиш учун парвариш қилиш - мураккаб ва нисбатан қиммат технологик операциядир. Янги ётқизилган цементобетон қопламалар юзасини сувсизланишдан ҳимоялаш учун қўлланилаётган усулларни таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, энг самарали усуллардан бири бу плёнка ҳосил қилувчи материалларни қўллашдир. Улар бетонни нам юзасига сепилганидан сўнг, тезда полимеризацияланиб яхлит, бетон юзаси билан яхши адгезияга эга плёнка ҳосил қилади ва бетон қотиши учун қулай шароит яратилади [3].

2.Бетон сифатини яхшилаш учун ҳавотортувчи қўшимчалар киритиш талаб этилади. Бетонга ҳавони киритишнинг асосий мақсади – навбатма-навбат музлаш ва эриш шароитида, унинг совуққа чидамлилигини ошириш, шунингдек, қопламанинг юза қисмини тузга чидамлилигини ва турғунлигини таъминлашдир. Қўшимчаларни қўллаш, бетонни юзасини бузилишга қаршилик кўрсатиш қобилиятини яхшилайди. Лекин, бетон қоришмасида ҳавотортувчи қўшимчаларни қўллаш, бетонга киритилган ҳаво ҳажмига пропрорционал равишда бетон мустаҳкамлиги камаяди [4].

Тадқиқотлар натижаларига кўра, ҳар бир киритилган ҳаво фоизига мос равишда, умумий йўқотилиши: сиқилишга бўлган мустаҳкамлик 3-5.5%, эгилишдаги чўзилишга бўлган мустаҳкамлик 2-3% тенг бўлиши мумкин.

Маълумки, ҳаво киритилиши механизми – бетон қоришмасини аралаштириш босқичида ҳаво киради, қўшимчалар эса қоришмани аралаштиришда ҳосил бўлган ҳаво пуфакчаларини турғунлигини оширади. Бунда, қоришмадаги ҳаво тортилади ва кичик ўлчамдаги пуфакчаларни диспергация қилади. Тўлдирувчи фазовий тўсиқни таъминлайди ва аралаштириш жараёнидаги ҳаво пуфакчаларини фиксация қилади (муайян ҳолатга маҳкамлаб қўяди).

Бетон қоришмасига киритилган ҳаво, ташишда ва зичлашда сеграция (йирик зарраларни бўлиниши) хавфини камайтиради, лекин бу усулни қоришмани қатламланишини тўла олдини оладиган асосий усул деб бўлмайди.

Қўшимчалар киритилиши натижасида таркибида ҳаво бўлган бетон қоришмаси қийин пардозланади, чунки у қуюқлашади (боғланиш яхши бўлади) ва кам сув ажратади. Лекин, бундай қоришмалар ишлатилганда, махсус мосламалар ёрдамида пардозлаш операцияларини осонлаштириш мумкин. Шунингдек, сув ажраб чиқиш хавфи камайиши сабабли, бундай оперциялар соддалашади, бетон юзаси эса чидамлироқ бўлади.

Демак, талаб этилган ҳаво миқдорини таъминлаш учун ҳавотортувчи қўшимчалар сарфи, сув-цемент нисбати, қоришмадаги қум ва унинг зарравий таркиби ва бошқа омилларга мос равишда ўзгартирилиб туришлиши керак.

3.Охирги йилларда бетон қоришмаси ҳаракатчанлигини ошириш учун кенг қўлламда пластикловчи қўшимчалар - суперпластификаторлар ишлатилмоқда [5]. Суперпластификаторлар – кўп компонентли универсал қўшимчалар, улар бетон қоришмаси ҳаракатчанлиги (ёйилувчанлиги) ни кескин оширади ва интенсив қотиш суръатини ошириб, бетонни талабда (лойиҳада) ги мустаҳкамлигини олишини таъминлайди. Оддий пластификаторларга нисбатан суперпластификаторлар қўлланилганда, бетон қоришмаси оқувчанлик кўрсаткичи анча юқори.

С-3 суперпластификаторини қўллаш, бетон қоришмаси сув талабчанлигини 10-20% га камайтиради (сув-цемент нисбати const. бўлиши сабабли цемент сарфи ҳам камаяди) ва бетон қопламани ишлаш даврини икки-уч маротаба оширади.

Хулоса. Автомобиль йўллари цементобетон қопламалари сифатига бир қатор омиллар таъсир этади, уларни сифатини таъминлаш учун махсус тадбирлар қўллаш тавсия этилади – янги ётқизилган бетон сувсизланишини олдини олиш учун парвариш этиш, бетон таркибига ҳавотортувчи қўшимчалар киритиш, қориштирилган сув сарфини камайтириш ва бетон ётқизишни осонлаштириш учун пластикловчи қўшичалар қўллаш ва б.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Хамидов, Р.Х.Сулайманов. Цементбетон қопламали автомобиль йўлларни сифатини таъминлаш долзарб масалалари. Монография – Тошкент. Lesson press нашриёти, 2020, - 202 бет.

2. А.Хамидов, Р.Х.Сулайманов. Цементбетон қопламали автомобиль йўлларни сифатини таъминлаш долзарб масалалари. Монография – Тошкент. Lesson press нашриёти, 2020, - 202 бет.

3. А.Хамидов, М.Мухитдинов, Д.Хамидов. Особенности технологии бетонных работ в условиях сухого и жаркого климата при использовании плёнко-образующих покрытий. Монография - Ташкент Издательство Lesson press, 2019, - 128 стр.

4. А.И.Хамидов, И.Г.Ахмедов, Р.Х.Сулайманов, Н.Э.Шарибаев. Зарубежный опыт технологии и организации строительства автомобильных дорог. Монография - Ташкент Издательства Lesson press, 2021, - 164 стр.

A.Xamidov, Технология и организация строительства автомобильных дорог. Монография / А.И.Хамидов. — Москва: Наш мир, 2023. – 160 с.

AVTOMOBIL YO‘LLARIDAN YER OSTI SUVLARINI CHETLATISH USULLARI

Ikramova F.X., Sulaymonov M.F. – talaba (TDTU)

Annotatsiya: Yer osti suvlarining hosil bo‘lishi, ularning avtomobil yo‘llariga ta’siri va ularga qarshi drenajlar yordamida chetlatish chora-tadbirlari qisqacha yoritilgan.

Kalit so`zlar: Infiltratsiya, kondensatsiya, yuvilish, tuproq suvlari, grunt suvlari, yuzaki suvlar drenajlar, yo‘l to‘shamasi, grunt.

Аннотация: Кратко освещено образование подземных вод и их влияние на автомобильные дороги, меры по предотвращению с помощью дренажа.

Ключевые слова: Инфильтрация, конденсация, размыв, почвенные воды, грунтовые воды, поверхностные воды, дренаж, дорожное покрытие, грунт.

Abstract: The formation of groundwater and its impact on highways, prevention measures through drainage are briefly highlighted.

Keywords: Infiltration, condensation, erosion, soil water, groundwater, surface water, drainage, road surface, soil.

Yer osti suvlari juda ko‘p muhandislik inshootlariga salbiy ta’sir etadi, buning natijasida avtomobil yo‘llarida baland–pastliklar, yoriqlar, cho‘kishlar, bino va inshootlarda esa gruntlarning sizib chiqish holatlarini kuzatish mumkin. Har qanday muhandislik inshootlarini loyiha qilishdan avval yer osti suvlarining joylashuv chuqurligini, ularning kimyoviy tarkibini, harakatini va tezligini albatta o‘rganish kerak. Kelib chiqishiga ko‘ra yer osti suvlari:

- atmosfera yog‘inlari,
- daryo va sug‘orish suvlarining shimilishi natijasida hosil bo‘luvchi infiltratsion suvlar,
- tog‘ jinslari qatlamlarida suv bug‘larining to‘planishidan hosil bo‘luvchi kondensatsion suvlar,
- cho‘kindi tog‘ jinslari paydo bo‘lishi jarayonida dengiz suvlarining ko‘milib qolishi natijasida hosil bo‘ladigan suvlarga bo‘linadi.

Yer osti suvlari bu - yer yuzasidan pastda joylashgan tog‘ jinslarining g‘ovaklarida, bo‘shliqlarida hosil bo‘ladigan har qanday suvga aytiladi (1-rasm).

Bu suvlar qatlamlarning yer yuzasiga chiqqan joylarida buloq shaklida ko‘rinadi. Agar suv o‘tkazmaydigan qatlam yer yuzasiga chiqmasa, u holda yer ostida harakatlanadi. Quyosh energiyasi tufayli yer yuzasidagi suv bug‘lanib atmosferaga ko‘tariladi va shamolning yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanib, ma‘lum bir sharoitda zichlalashib, suyuq tomchi holiga o‘tib qaytadan yer kurrasiga tushadi. Shundan so‘ng yer ustida va yer ostida suv oqimlari hosil bo‘ladi va qaytadan bug‘lanadi. Bu jarayon qayta-qayta takrorlanadi va tabiatda suv doimiy aylanib turadi.

Yer osti suvlarining avtomobil yo‘llariga tasirini kamaytrish uchun yer osti suvlarini drenajlar loyihalash orqali chetlatish lozim. Drenaj qurilmalari yo‘l poyini grunt suvlari harakatidan va yuzaki suvlardan himoyalash uchun loyihalanadi. Drenaj qurilmalari yo‘l poyini quyi qismiga suv kirishini to‘xtaish va to‘sish, o‘yma qirg‘og‘idan yer osti suvlarini yig‘ish va chetlatlatish, yo‘l poyi asosida grunt suvlari sathini pasaytirish, shuningdek, suv chetlatish ta’minlanmagan joylarda yuzaki suvlarni oqizib yuborish uchun xizmat qiladi.

Sizot suvlari yuqori joylashgan bo‘lib, yo‘l to‘shamasining tubini kapillyar namlanishdan saqlash uchun yo‘l poyini baland qurishning iloji bo‘lmagan hollarda zovurlar qazib, sizot suvlarini pasaytiriladi.



1-rasm. Yer osti suvlarining joylashuvi

Drenajlar gruntga yotqizilgan quvurlar yoki yirik suv chetlatish materiallari bilan to‘ldirilgan chuqur ariqlardan iborat bo‘ladi (2-rasm). Yopiq zovur gruntga yotqizilgan asbo-sement, sopol yoki betondan tayyorlangan quvurdan tuzilgan bo‘lib, suv bu quvurga bo‘g‘inlarining ochiq tirqishlari orqali kiradi. Quvur grunt bilan ifloslanmasligi uchun bo‘g‘inlardagi tirqish g‘ovakli to‘kma-filtr bilan aylantirib o‘raladi, uning yirikligi transheyaning devorlariga yaqinlashgan sari kamayib boradi.



2- rasm. Yopiq drenajlarning sxemasi. a - tosh to‘ldirilgan; b - suv sizadigan zovur uvurlari; 1 - shibbalangan tuproq;2 - ildizlari tepaga qaratib yotqizilgan ikki qatlamli chim yoki 3 sm qalinlikda bitum bilan ishlov berilgan grunt; 3 -qum; 4 - depressiya egri chizig‘i; 5 - yirik shag‘al yoki chaqiq tosh; 6-mayda shag‘al yoki chaqiq tosh; 7 - yirik shag‘al yoki chaqiq tosh; 8 -gruntga shibbalangan chaqiq tosh; 9 - sopol yoki asbotsement quvur suv o‘tkazmaydigan qatlam.

Drenaj qurilmalarini grunt suvlari yo‘l poyini mustahkamligini buzadigan joylarda tuproq suvlarining hisoblangan sathidan yoki yer yuzasi ustida yo‘l to‘shamasining tagi yetarli darajada

ko‘tarilmagan hollarda qo‘llaniladi. Suv sathini pasaytiruvchi qurilmaning kamchiligi gidrogeologik sharoitlarga, joyning relyefiga, ularning yo‘l poyi turg‘unligini ta’siriga bog‘liq.

Drenaj qurilmalarni kapillyar qatlamlar, qiya ko‘tarmalar va o‘yma drenajlar ko‘rinishida loyihalanadi. Kapillyar qatlamlarni ko‘tarma asosidagi qatlamga singdirish, suv chetlatish va izolyatsiya qilish qatlam turi bo‘yicha loyihalanadi. Suv chetlatish inshootlari yo‘l poyini loyihalash jarayonida amalga oshiriladi [2].

Drenajlarning zax chetlatish jarayoni shundan iboratki, quvur gruntga sizot suvlari sathidan past qilib ko‘milganida quvur gruntning yondosh qismlaridan sizib oqib keladigan suvni tez chetlatadi, natijada yerning zaxi qochadi. Yo‘ldan suvni chetlatish tizimiga yo‘l qoplamasining tagiga yotqizilgan qatlamini ham kiritish mumkin, bu qatlam qum, shag‘al va boshqa yirik donali materiallardan iborat bo‘ladi, Ular yo‘l to‘shamasi asosiga, yo‘l qirg‘og‘i, shuningdek, qoplamalardagi yoriqlar va choklar orqali sizib kiruvchi suvni yig‘adi. Suv qumli qatlamdan rezervga yoki yon tomon ariqlariga tashlanadi, buning uchun bu qumli qatlam butun yo‘l uzunligi bo‘ylab ko‘tarmaning yon bag‘irlariga chiqariladi. Bahorda zax qochiruvchi qatlamga ishki nam to‘planish jarayonida do‘ppaygan joylarda hosil bo‘lgan muz qatlamchalarini erishidan yo‘l poyining qatlamlaridan ajralib chiqadigan suv ham tushadi (3 - rasm).



3 - rasm. Zovur voronkalari. a - yo‘l poyi bo‘yicha qirqim; b, v - kichik va katta qiyaliklarda voronkaning qum qatlamiga qo‘shiluvi;
1 - chim yoki mox qatlamchasi; 2 - chaqiq tosh yoki shag‘al;3 - yo‘l to‘shamasi.



4-rasm. Yopiq zovurlar. 1-grunt; 2-geotekistillar; 3-chaqiqtosh 10 sm; 4-drenaj; 5-chaqiqtosh 30 sm; 6-suv o‘tkazuvchan grunt, qum.

Zovurlar gruntga yotqizilgan quvurlar yoki yirik suv qochirish materiallari bilan to‘ldirilgan chuqur ariqlardan iborat bo‘ladi. Yopiq zovurlar gruntga yotqizilgan asbosement, sopol yoki betondan tayyorlangan quvurlardan tuzilgan bo‘lib, suv bu quvurga bo‘g‘inlarning ochiq tirqishlari orqali kiradi (4 – rasm).

Xulosa

Qurilish joyining tabiiy sharoitlari O‘zbekiston Respublikasi hududini yo‘l-iqlim mintaqasiga bo‘linishini hisobga olgan holda ob-havo-iqlim omillari majmui bilan birga yer osti suvlarinining sathi va tarkibini tekshirish va avtomobil yo‘llarini loyihalashdan avval geologik va gidrogeologik kuzatuvlarni amalda to‘g‘ri bajarilishi avtomobil yo‘llarining mustahkamligini va hizmat muddatini oshishida yordam beradi. Yer osti suvlarini avtomobil yo‘lining poyiga salbiy tasirini ko‘rib chiqdik, shulardan kelib chiqib yer osti suvlarini chetlatish tizimi yani drenajlardan foydalanish, avtomobil yo‘li poyining gruntini namligini oshib ketmasligiga va natijada qurilgan avtomobil yo‘lining xalqimizga uzoq muddat hizmat qilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Babkov V.F.,.Andreyev O.V “Avtomobil yo‘llarini qidiruv va loyihalash” I- qism. Toshkent – 2014 yil. 525 b.

2. Икрамова Ф.Х. Место геоинформационных систем в проектировании автомобильных дорог// Проблемы науки № 6 (40), 2019 URL:https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-geoinformatsionnyh-sistem-v proektirovanii-avtomobilnyh-dorog

3. Ikramova F.X. Requirements for ctepeni densification of loess soils during the construction of the roadbed // Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 4, 895-897 pp., 2022/4/25 URL: https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1334

4. Ikramova Feruza Xayrullayevna, Assessment of traffic noise level// Academicia Globe: Inderscience Research, 2022-01-31 36–38. URL: https://doi.org/10.17605/OSF.IO/E649T

5. Махмудова Д.А., Икрамова Ф.Х., Укрепление земляного полотна с помощью инновационных материалов на основе базальта // Universum: технические науки. 2020. №12-2 (81). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ukreplenie-zemlyanogo-polotna-s-pomoschyu-innovatsionnyh-materialov-na-osnove-bazalta(дата обращения: 15.04.2022).

6. Икрамова Феруза Хайруллаевна, & Одилова Ёркиной Дониёр қизи. (2023). ТРЕБОВАНИЯ К УСТОЙЧИВОСТИ ЗЕМЛЯНОГО ПОЛОТНА АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9),1219-1222.извлеч от http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/7440

7. Икрамова Ф.Х. Web of Scientist: International Scientific Research Journalhttps://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=YOnn9VsAAAAJ&citation_for_view=YOnn9VsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC(дата обращения: 19.12.2022).

AVTOMOBIL YO‘LLARINING YON BAG‘RIDAGI KO‘CHKILARNI BAHOLASH

Xayitov X.X., Xudaykulov R.M. (TDTrU)

Annotatsiya: Tabiiy hamda texnogen hodisalar avtomobil yo‘llari sohasida ko‘plab muammolar keltirib chiqarmoqda. Xususa, tog‘li hududlardan o‘tuvchi avtomobil yo‘llari o‘ziga xos rel’efi va muhandislik yechimlari bilan ajralin turadi. Bunda tog‘ ko‘chkilari avtomobil yo‘llaridagi xavfsizlikni ta’minlashda biroz muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Ko‘chkilarni oldindan baholay olishlik orqali avtomobil yo‘liga keladigan iqtisodiy yo‘qotishlarni bir muncha kamaytirishga erishgan bo‘lamiz. Ushbu maqolada tog‘ ko‘chkilari borasida qisqacha tavsib berilib, ko‘chkilarni prognozlashda matematik modellardan foydalanib oldindan baholash imkoni beruvchi izlanishlar natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Avtomobil yo‘li, qiyalik, ko‘chki, rel’ef, tog‘li hudud, matematk model, barqarorlik va h.k.

Abstract: Natural and man-made phenomena cause many problems in the field of highways. In particular, highways passing through mountainous regions are distinguished by their unique terrain and engineering solutions. At the same time, landslides create some problematic situations in ensuring safety on highways. By being able to predict landslides in advance, we will be able to reduce some of the economic losses to the highway. This article provides a brief overview of landslides and the results of research that allows for preliminary assessment using mathematical models in landslide forecasting.

Keywords: Highway, slope, landslide, terrain, mountainous area, mathematical model, stability, etc.

Bugungi kunda O‘zbekiston respublikasining avtomobil yo‘llari tarmog‘i borgan sari kengayib, avtomobil yo‘llarining xavfsizligi, tezkorligi va qulayligini oshirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning avtomobil yo‘li tarmog‘i turli xil rel’eflardan o‘tgan bo‘lib, har bir rel’efning o‘ziga xos xususiyati, avtomobil yo‘llarini loyihalash qurish va yo‘llardan foydalanishda turli xildagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi (1-rasm) [1-3].



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududini avtomobillar harakat sharoiti bo‘yicha tumanlashtirish xaritasi

Xuddi shunday murakkabli rel’eflardan biri – bu tog‘li hududlar hisoblanadi. Tog‘li hududlardan o‘tgan avtomobil yo‘llarini loyihalash va qurishda o‘ziga xos yechim va dasturlarni talab qiladi. Bunda avtomobil yo‘llarini ko‘chki hodisalari ta’siridan saqlash va ko‘chkilarni

keltirib chiqaruvchi omillarni hisobga olgan holda yo‘llardan foydalanish dolzarb masalaligicha qolmoqda [4,5].

Tog‘ ko‘chkilari – hosil bo‘lish sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi asosiy omillarini bilib olmas ekanmiz avtomobil yo‘llarini tog‘ ko‘chkisi hodisasidan himoyalash murakkabligicha qoladi. Xalqaro ahamiyatdagi A373 “Toshkent–O‘sh” avtomobil yo‘lining “Qamchiq” dovoni qismi ham xuddi shunday tog‘ ko‘chkilari ko‘p kuzatiladigan hududdan o‘tgan hisoblanadi.

Tog‘ ko‘chkilari, odatda ko‘chki harakatining yuzaga kelish sharoitlari va material turlariga bog‘liq holda guruhlarga ajratiladi (2-rasm). Kelib chiqish chuqurligiga ko‘ra guruhlarga bo‘linganda esa chuqur kelib chiquvchi siljishlar va sayoz siljishlar guruhiga ajratishimiz mumkin bo‘ladi [6].



2-rasm. Tog‘ ko‘chkilari sabablarining guruhlarga ajratish sxemasi

Avtomobil yo‘llari yonbag‘irlaridagi tog‘ ko‘chkilarining ro‘y berishi qiyaliklarning mustahkamlik chegaralari, qiyalik burchaklari va gruntining xossalari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Tog‘ ko‘chkilarini mustahkamlik chegaralarini aniqlashda va ko‘chkiga moil bo‘lgan nuqtalarni baholashda matematik ifodalar yordamida modellashtirish yuqori samara beradi [7].

Tog‘ ko‘chkilarini modellashtirishda foydalanish uchun kerakli dastlabki ma’lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Geologik ma’lumotlar:
   - Gruntlarning turi va xususiyatlari: har xil turdagi gruntlarningturli xildagi barqarorlikka ega bo‘lib, ularning mustahkamligi, o‘tkazuvchanligi va deformatlsiya xususiyatlari ko‘chkining hosil bo‘lish jarayonlariga ta’sir qiladi.
   - Geologik tuzilish: Qatlamlarning joylashuvi, yoriqlar va tog‘ jinslarining mosfologiyasi.
2. Geometrik ma’lumotlar:
   - Qiyalikning balandligi;
   - Qiyalikning joylashuv burchagi.
3. Meteorologik ma’lumotlar:
   - Yomg‘ir va qor miqdori: yog‘ingarchilikning miqdori va davomiyligi, avniqsa kuchli yog‘gan yomg‘ir va qorning tez erishi;
   - Harorat o‘zgarishlari: kunlik va mavsumiy harorat farqlari, ayniqsa, muzlash va erish jarayonlari.

Yuqorida sanab o‘tilgan ma’lumotlar asosida tog‘ ko‘chkisi modelini ifoda qilish uchun bir qancha yondashuvlar mavjud. Eng soda modellardan biri ko‘chkilarni xarakterlovchi inertsiya-yuklama balansi formulasi hisoblanadi. Bunda ko‘chkilarning tog‘ yonbag‘irlarining barqarorligi masalasiga bog‘liq bo‘lib, ko‘chkini keltirib chiqaruvchi kuchlar balansini hisoblash orqali tahlil qilinadi.

Tog‘ yonbag‘riining barqarorligini baholash uchun asosiy matematik model quyidagicha:

$$FS=\frac{C+(\tan(\phi)*\cos(\alpha)*\gamma*H)}{\gamma*H*\sin(\alpha)}$$

bu yerda: FS – qiyalikning ko‘chkiga mustahkamligi (agar FS>1 bo‘lsa, tog‘ yonbag‘ri barqaror; FS<1 bo‘lsa ushbu yonbag‘irda tog‘ kochkisi ehtimoli havjud hisoblanadi); γ – gruntning zichligi, kN/m^3; C - tuproqning ichki o‘zaro bog‘lanishini ifodalaydigan fizik parametr, kPa; H – qiyaliknng balandligi, m; α – qiyalikning joylashuv burchagi; Φ – gruntning ichki ishqalanish burchagi.

Ushbu formulani tadqiqot ob’ekti hisoblangan A373 “Toshkent-O‘sh” avtomobil yo‘lining “Qamchiq” dovonidan o‘tuvchi qismida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlarga asoslaninib, ba’zi nuqtalarning ko‘chkiga mustahkamligini baholaymiz.

1-jadval

№	Avtomobil yo‘lidagi joylashuv	H-qiyalik balandligi	α-qiyalikning joylashuv burchagi	γ-grunt zichlighi	Φ – gruntning ichki ishqalanish burchagi	C - tuproqning ichki o‘ zaro bog‘ lanishini ifodalaydigan fizik parameter	FS- qiyalikning ko‘chkiga mustahkamligi
1	222-km	120	50°	20 kN/m^3	25°	15 kPa	0.81
2	258-km	50	60°	20 kN/m^3	25°	10 kPa	0.15

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Qamchiq” dovononing 222 va 258-kilometrlarida joylashgan qiyaliklarida matematik modelda keltirilganidek har ikki nuqtada qiyalikning ko‘chkiga mustahkamligi FS<1 ni ko‘rsatmoqda. Ya’ni, tog‘ ko‘chkisining hosol bo‘lish ehtimoli ushbu nuqtada mavjud deya baholashimiz mumkin. Yuqori yog‘ingarchilik oqibatida bu yonbag‘irdagi gruntlar o‘z turg‘unligini yo‘qotib avtomobil yo‘liga ko‘chib tushish ehtimoli bor.

Xulosa qilb aytganda matematik model yordamida ko‘chki ehtimolligini baholash ko‘chki xavfini kamaytirish va oldini olish chora tadbirlarini ko‘rish imkonini yaratib beradi va ko‘chkilar oqibatida keluvchi talofatlarni kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni ta’mminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khudaykulov R.M., Xayitov X.X. Analysis of occurrence, causes and solutions of landslides on highways. scientific article. Architecture, construction and design. 2023; 18:297-300.

2. Khudaykulov R.M., Xayitov X.X. Occurrence of landslides on highways passing through mountainous regions. “FAZILAT ORGTEX SERVICE”. Prospects of technology and technology development: problems and solutions; 2023 October 18. Namangan 2023. p. 289-292.

3. A.X.O‘roqov. “O‘zbekiston Respublikasi hududini yo‘lga oid tumanlashtirishning metodologik asoslari” doktorlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2020, 225 bet.

4. В.И. Жуков, Т.В. Гавриленко “Изыскания и проектирование автомобильных дорог в сложных условиях”. Красноярск 2019-г.
5. İbrahim ANAÇALİ, Ahmet ŞİRİN – “Heyelan tanimlama ve veri oluşturma kılavuzu” ANKARA. 2015. Yıl.
6. X. Z. Chen and Y. F. Cui, “The formation of the Wulipo land slide and the resulting debris flow in Dujiangyan city, China,” Journal of Mountain Science, vol. 14, no. 6, pp. 1100–1112, 2017.
7. Ешанбабаев А.А. “Обеспечение безопасности движения автомобильного поезда на горных дорогах”. Научно-технический журнал ФарПИ. 2018-г.

NAMANGAN VILOYATIDA SEL OQIMLARINI STATISTIK TAHLIL QILISH, HAMDA AVTOMOBIL YO‘LLARIGA VA SUN’IY INSHOOTLARGA TA’SIRI BO‘YICHA KARTOGRAFIK TUMANLASHTIRISH

Namozov A.A., Salimova B.D. (TDTrU)

Annotatsiya: Ushbu maqlolada Uzgidromet arxiv ma’lumotlari asosida Namangan viloyatida 2014-2023 – yillarda kuzatilgan sel toshqinlarining fuqarolik ob’ektlariga, avtomobil yo‘llariga va sun’iy inshootlariga yetkazilgan talofatlari hududlar bo‘yicha statistik tahlil qilindi va sel toshqinlarining xavfi bo‘yicha viloyat hududini tumanlashtirish natijasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tog‘li hudud, sel, sel toshqini, sel xavfi, statistik tahlil, avtomobil yo‘llari, hududiy tumanlashtirish.

Аннотация: В данной статье на основе архивных данных Узгидромета статистически проанализирован ущерб, нанесенный наводнениями гражданским объектам, автомобильным дорогам и искусственным сооружениям в Наманганской области в 2014-2023 годах, по регионам и по риску наводнений в результате районирования. территории региона**.**

Ключевые слова: Горная местность, наводнение, паводок, риск наводнений, статистический анализ, автомобильные дороги, запотевание территории.

Abstract: In this article, on the basis of Uzgidromet archival data, the damage caused by floods to civilian objects, highways and artificial structures observed in Namangan region in 2014-2023 was statistically analyzed by regions and by the risk of floods the result of districting of the regional territory is presented.

Key words: Mountain area, flood, flash flood, flood risk, statistical analysis, highways, territorial fogging.

Kirish. Sel toshqinlari - Yer sharining barcha tog‘ va tog‘oldi hududlarda kuzatilishi mumkin bo‘lgan murakkab gidrologik jarayon hisoblanadi. Bunday turdagi toshqinlar ko‘p omilli tabiiy va antropogen ya’ni iqlimi, lanshafti, geologik va geomorfologok omillar, shu bilan birga kamdan-kam hollarda insoniyatning aralashuvi natijasida vujudga keladi va oqibatda ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlarga va xattoki, inson hayotiga ham xavf solmoqda [2,4]. Bu kabi tabiiy ofatlarga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21- noyabrdagi PQ-585-sonli ,,Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko‘chish va yer ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulotda vaziyatlarni oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorda toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash, qor ko‘chishi va

ko‘chki hodisalarini xavfini kamaytirish bo‘yicha maqsadli va tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda [1,3].

Namangan viloyatining shimol va shimoliy-g‘arbiy hududlari Chotqol va Qurama tog‘ tizmalarining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan. Viloyatning tabiiy iqlimi, geologik va gemorfologik omillari hosil bo‘ladigan sel toshqinlarining xavflilik darajasini oshiradi. Shuningdek, hududda yog‘ingarchilikning eng ko‘p qismi bahor va kuz fasllarida kuzatiladi. Daryolari asosan, atmosfera yog‘inlari, tog‘lardagi qor va muzliklarni erishidan to‘yinadi. Namanganda Norin va Qoradaryoning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan viloyatdagi eng sersuv daryo - Sirdayo, shuningdek, Pochchaotasoy, Chortoqsoy, Olmossoy, Chodaksoy, G‘ovasoy, Kosonsoy, Namangansoy kabi doimiy daryo va soylari, hamda bir qancha mavsumiy soylari mavjud [3;6].

1-jadval

2014-2023 yillar mobaynida Namangan viloyatida qayd etilgan sel toshqinlarining tumanlar kesimida berilishi

No	Tuman	Sel toshqini soni, ta	Talofatli sel toshqini soni, ta	Avtomobil yo‘llari va sun'iy inshootlarga keltirilgan talofatlar soni, ta
1	Pop	40	25	17
2	Chust	12	8	5
3	Yangiqo‘rg‘on	14	8	2
4	Namangan sh	4	4	2
5	Uchqo‘rg‘on	2	1	0
6	Kosonsoy	29	14	0
7	Chortoq	4	2	0
8	To‘raqo‘rg‘on	16	11	2
9	Uychi	3	3	0
Jami		124	76	28

So‘nggi yillarda dunyo miqiyosida iqlim o‘zgarishi tufayli nisbatan davriy takarorlanib turuvchi sel toshqinlari kabi tabiiy gidrologik ofatlarning kutilmaganda kata hajmdagi yo‘qotishlarga sabab bo‘lib kelayotganligi, avtomobil yo‘llariga va suv o‘tkazuvchi inshootlarga turli darajada shikast yetkazayotganligi yoki butunlay foydalanish uchun yaroqsiz holatga keltirayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Namangan viloyati respublikamizdagi eng ko‘p sel toshqinlari kuzatiladigan hudud bo‘lib, viloyatni statistik ma’lumotlar asosida sel toshqinlarining xavfi va takrorlanish darajasi bo‘yicha hududiy tumanlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi [3;5].

Uzgidromet arxiv ma’lumotlari asosida 2014-2023 yillar oralig‘ida viloyat hududida jami 124 marotaba sel toshqini hodisasi qayd etilgan bo‘lib, shudan 76 tasi, ya’ni qayd etiligan sel toshqinlarining 61.3 % i aholi yashash xonadonlariga, qishloq xo‘jaligi maydonlari va ekinlariga, gidrologik inshootlarga, avtomobil yo‘llari, kichik ko‘prik va quvurlariga turli darajadagi talofatlarga sababchi bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lib, qolgan 38.7 % sel toshqini qayd etilgan holatlarda hech qanday talofatlar qayd etilmagan [6].

Yuqoridagi 1- jadvalda Namangan viloyatida 2014-2023 yillar davomida Pop va Kosonsoy tumanlarida eng ko‘p sel toshqini qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin va shunga mos ravishda ushbu ikki tumanda talofatli hodisalar soni bo‘yicha ham yuqori ko‘rsatgichga ega. Avtomobil yo‘llari va suv o‘tkazuvchi inshootlarga ta’siri bo‘yicha Pop tumani yaqqol yetakchilik qilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, avtomobil yo‘llariga va sun’iy inshootlarga ta’siri bo‘yicha Pop tumani o‘ta xavfli; Chust, Yangiqo‘rg‘on, Namangan shahri va To‘raqo‘rg‘on tumani yuqori xavfli; qolgan barcha tumanlar xavfli hududlar deb belgilaymiz.



1-rasm. 2014-2023 yillarda viloyatda kuzatilgan sel toshqinlarining joylashuv xaritasi

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi natijasida respublikamizning tog‘li va tog‘oldi hududlarida ro‘y berayotgan sel toshqinlarini o‘rganish va tahlil qilish natijasida iqlim va meteorologik tavsiflarni doimiy monitoring qilish hamda yetkazilgan zararlarni baholashda yuqori samaradorlikka erishish uchun sel hosil bo‘lishining davriyligini aniqlash kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-585-son 19.02.2007. Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko‘chish va yer ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida (lex.uz)

2. АХ Туляганов, БД Салимова, НС Сарвироваб “К вопросу расчета максимального расхода селового паводка (на примере малых водосборов рек предгорья Узбекистана)” Экономика и социум. 2016

3. Дергачёва Ирина Викторовна, Салимова Барно Джамаловна Исследование селевой активности в горных и предгорных районах республики Узбекистан // Проблемы Науки. 2022. №9 (178). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-selevoy-aktivnosti-v-gornyh-i-predgornyh-rayonah-respubliki-uzbekistan (дата обращения: 09.12.2023).

4. Салимова Б.Д. Селевые процессы в горных районах республики Узбекистан // Экономика и социум. 2022. №12-1 (103). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/selevye-protsessy-v-gornyh-rayonah-respubliki-uzbekistan (дата обращения: 09.12.2023).

5. БД Салимова, РМ Худайкулов “Теоретических аспекты применения ГИС в прогнозировании и мониторинге чрезвычайных ситуаций” Univtrsum. 19-21, 2020/Uzgidromet arxiv ma’lumotlari.

УДК 625.711.512

МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ДОРОГИ

Эшанбабаев А.А., Сапаев Б.Б.-Талаба (НамМҚИ)

Аннотация: *Статья в себя включает определения основные результаты полученных при проведенных исследований на различных уклонах и кривых участках горных дорог. Геометрические элементы плана и профиля дороги измерены в упрощенными методами. Для определения радиуса закругления использиванно метод хорды.*

Ключевые слова: *горные дороги, транспортного потока, продольного или поперечного уклона дороги, радиуса кривой, кривые в плане, элементи дороги, скорость, интервал, автомобильные дороги.*

Annotation:*The article includes a definition of the main results obtained in the studies on different inclines and curved sections of mountain roads. Geometric elements of the plan and profile of the road measured in simplified methods. To determine the radius of curvature chord method has been used.*

Key words: *mountain road traffic, the longitudinal or transverse slope of the road, radius of curvature, the curves in the plane, the elements of the road, velocity, range, highways.*

Экспериментальное изучение движения транспортных потоков в реальных горно-дорожных условиях весьма сложно и требует значительных затрат средств и времени, так как связано с необходимостью изменения большого количества постоянно меняющихся (N, q, V и т.д) характеристик движения транспортного потока зависимо от изменяющих параметрам горным автомобильных дорог (уклон-i, радиус кривой-R). Результативность экспериментальных исследований в значительной степени зависит от правильности планирования экспериментов, суть которых заключается в выборе эффективной методики наблюдений и установлении оптимального числа замеров.

Исследования транспортного потока проводили в реальных горных дорожных условиях. В процессе экспериментальных исследований изучались основные характеристики транспортного потока – интенсивность, состав, скорость, интервал во времени между автомобилями, количество обгонов, плотность потока и другие.

Эксперименты проводились в течение пяти лет в летние и зимние периоды года, на горных участках автомобильных дорог. Ровность покрытия, план дороги не отражались на изменении режима движения, т.е. происходившие изменение режима движения были вызваны изменениями интенсивности и процентного соотношения автопоездов в общем потоке.

На подготовительном этапе было принято решение использовать для приборами и использованием ручного труда, причем некоторые из них уже применялись в СНГ и за рубежом.

Геометрические элементы плана и профиля дороги измеряют геодезическими инструментами (нивелиром, теодолитом, гониометром) или с помощью аэрофотосъемки, фотограмметрии и ходовых автомобильных лабораторий. Однако в первом приближении некоторые параметры, как уклон дороги, радиус закругления измерены упрощенным методам.

Уклон характеризует крутизну склона. Это высота подъема или спуска h, на котором образовался этот подъем (рис 1)

Уклон в дорожном строительство определяет числом миллиметров подъема на каждый метр пройденного пути по горизонтали и выражают в промилях (‰).



Рис.1. Натурные измерения для определения угла продольного или поперечного уклона дороги

Обычно уклоны проезжей части указывают в паспорте дороги, находящемся у дорожников. На их можно проверить с помощью рейки, линейки и уровня. (см.рис.2). Для этого рейку 1 с уровнем 2 кладут на дорогу вдоль направления линии измерения уклона. Поднимают нижний конец рейки до горизонтального показания уровня. Измеряют расстояние h между приподнятым концом рейки и дорогой. Делят это расстояние на длину рейки. Чем длиннее рейка, тем точнее результат[1].

Пример. Длина рейки l=5 м. Нижний ее конец приподнят над поверхностью дороги до горизонтального положения по показанию уровня на 300 мм (h).

$$\alpha = 300/5 = 60\ ‰ \quad (1)$$

т.е. подъем 60 мм на 1 м дороги.



Рис. 2. Схема определения угла продольного или поперечного. l -длина линейка; h – высота; 1 – рейка; 2 – уровень; 3 – линейка; 4 – дорожное покрытие

Уклона дороги:

Для определения радиуса закругления обычно используют метод хорды[1].

Для упрощения расчетов рейку обычно берут длиной 1 м, а еще лучше изготовить уровень такой длины. В этом случае показания линейки в миллиметрах будет соответствовать уклону дороги в промилях.

Измеряют расстояние АС (рис. 3). Находят срединную точку Д и определяют длину а (расстояние АД). Затем измеряют высоту b – расстояние ВД от этой точки до кромки проезжей части.

Радиус закругления подсчитывают по формуле

$$R = (a2 + b2)/2b \quad (2)$$

Мерный отрезок АС обычно берут 10…25…50 м в зависимости от величины радиуса закругления. Используют для этих целей обычную веревку, завязав на ее середине узел и измерив предварительно ее длину.



Рис. 3. Схема определения радиуса кривой дороги: АС – хорда; ВД – расстояние от середины хорды до края дороги; 1 – проезжая часть дороги; 2 – линия, разделяющая потоки (осевая)

Основные параметры автомобильных дорог А-373 «Ташкент-Андижан-Ош» 164-184 километрах полученных при исследовательских работ на горных участках

Период измерения	Километр, км	Длина протяженности уклона, м	Уклон ‰	Радиус кривой R, м
Зимой Летом	164 – 166	2200	86 – 90 ‰	-
Зимой Летом	166 – 168	1800	70%	200
Зимой Летом	168 – 170	1600	40%	-
Зимой Летом	170 – 171	800	60%	-
Зимой Летом	172 – 173	1000	50%	500
Зимой Летом	182 – 184	1800	20%	-

Использованной литературы:

1. Бочаров Е.В., Заметта М.Ю., Волошинов В.С. Безопасность дорожного движения – М.: Росагропромиздат ,1998.-284с.

2. Азизов К.Х. Основы организации безопасности движения-Ташкент: «Наука и технолигия» 2012.-272с.

УДК 33.338

РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ РЫНКА ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ

Ивуть Р.Б., Лапковская П.И. (БНТУ), Нормирзаев А.Р. (НамИСИ)

Аннотация. *В статье расматрывается вопрос транспорно-логистической системе и его развития, мери применяемые правительства РУз. Дан анализ экономического и транспортно-логистического развития страны за 2000 года до 2023 год. Развитию всесторонсые развития международные коридори для получения доступа к мировим рынкам. Расширение «зеленых коридоров» и транзитных возможностей в транспортной системе для осуществления внешней торговли, а также увеличение объема транзитного грузооборота.*

Ключивые слова*. логистика, коридоры, инфраструктура, развития, транспорт, система, интегрирования, дороги, регионы, транзить.*

Введение. Переход Республики Узбекистан к рыночным отношениям и интеграция экономики в мировое рынок привели качественным изменениям всех параметров социально-экономического развития страны. После резкого сокращении объемов производства, падения жизненного уровня населения, снижения эффективности национальной экономики в ее развитии наметились начиная с конца 1990-х годов, а затем в течение ряда лет сохранялись позитивные тенденции. По данным Давстатистики [1], Узбекистан вступает в новое тысячелетие с успешно реализуемой программой перехода народного хозяйства республики к рыночной экономике, высоким уровнем развития базовых отраслей и стабильным ростом макроэкономических показателей.

Экономика Узбекистана в 2023 году продемонстрировала опережающую динамику. По данным Агентства по статистике валовый внутренний продукт по итогам прошлого года вырос на 6% (в 2022 г. - 5,7%) [2].

Цель исследований. Эти обстоятельства диктуют необходимость поиска путей комплексного решения экономических, социальных и экологических проблем в условиях глобализации и ставят проблему перехода страны на модель устойчивого социально-экономического развития в разряд наиболее актуальных.

Chegaraviy shart $(\dot{\mathrm{x}})_{t=\tau} = \vartheta_c$, $(x)_{t=\tau} = L$

$$l = \left(g\cdot\sin\alpha - f\cdot g\cdot\cos\alpha\right)\cdot\frac{t^2}{2} + \vartheta_B\cdot t + \frac{g\cdot t^2}{2} \tag{8}$$

$$\vartheta_c = \left(g\cdot\sin\alpha - f\cdot g\cdot\cos\alpha\right)\cdot t + \vartheta_B \tag{9}$$

Ifloslik tarnovining qiyalik burchagi α =30-45-60^0 bo‘lganda ifloslikni unda bo‘lish vaqti tenglamadan foydalanib aniqlandi va 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qiyalik burchagi α^0	Tarnov uzunligi l, m	Ifloslikni tarnovda bo‘lish vaqti, sek	Ifloslikni tezligi ϑ_c, m/sek
30	1,04	0,59	1,59
45	1,1	0,44	2,65
60	1,3	0,39	3,4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki ifloslik boshlang‘ich ϑ_B tezlikga ega bo‘lgan holda C nuqtadagi tezligi 1,59 dan 3,4 m/sek gacha oshib borar ekan. Shuni ta’kidlash kerakki tarnovda ifloslik tezligi B $\vartheta_b = 0$ m/sek bo‘lishi ham mumkin. Unda ishqalanish koeffitsiyenti harakatsiz holatda $f =$ 0,54 bo‘lib, ifloslik harakati to‘xtab qolishi ham mumkin.

Iflosliklarni C nuqtadan tezligini aniqlash uchun quyidagi tartibda hisoblarni amalga oshiramiz.

Tarnovni qiyalik burchagi α bilan balandligi H o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaymiz (3.2.4-rasmdan).

$$tg\alpha = \frac{\mathrm{H}}{0{,}5L - 0{,}5d_T} = \frac{\mathrm{H}}{0{,}5 \cdot 1{,}54 - 0{,}5 \cdot 0{,}15} = \frac{\mathrm{H}}{0{,}695}$$

bundan $\mathrm{H} = 0{,}695 \cdot tg\alpha$ (d_t-ifloslikni so‘ruvchi quvur diametri)

Burchak α =30-45-60^0 qiymatlarida mos ravishda H=0,4-0,695-1,2m bo‘ladi.

Qiya tarnov uzunligi $l = \sqrt{0{,}483H^2 + 0{,}483} = \sqrt{0{,}483H^2 + 1}$

Burchak α =30-45-60^0 bo‘lganda mos ravishda $l = 1{,}04 - 1{,}11 - 1{,}3$ m bo‘ladi.

(3.2.8) tenlamaga l qiymatlarini qo‘yib vaqt t ni aniqlaymiz.

$$t^2 + \frac{\vartheta_b}{g\sin\alpha - f \cdot g\cos\alpha + \frac{g}{2}} \cdot t - \frac{l}{g\sin\alpha - f \cdot g\cos\alpha + \frac{g}{2}} = 0 \quad ;$$

$$t_{1,2} = \frac{\vartheta_b}{2\left(g\sin\alpha - f \cdot g\cos\alpha + \frac{g}{2}\right)} \pm \sqrt{\frac{\vartheta^2}{4\left(g\sin\alpha - f \cdot g\cos\alpha + \frac{g}{2}\right)^2} + \frac{l}{g\sin\alpha - f \cdot g\cos\alpha + \frac{g}{2}}}$$

5-rasmda qiya tarnovni BC oralig‘ida ifloslik tezligini vaqt bo‘yicha o‘zgarishi keltirilgan bo‘lib, unda α =30^0 da ifloslik tezligi past ekanligi, agar ϑ_b =0 bo‘lgan holatda ifloslik xarakati to‘xtab qolishi mumkinligi, α =45 va 60^0 bo‘lganda esa ifloslik tezliklari BC oraliqda qoniqarli holatda o‘sib borishi kuzatildi.



1- $\alpha_1 = 30^0$; 2- $\alpha_2 = 45^0$; 3- $\alpha_3 = 60^0$

5-rasm. BC oraliqda iflosliklar tezligini vaqtga bog‘liqlik grafigi

Mexanikadan ma’lumki qiya tekislikda jismni harakatlanishi qiyalik burchagi jismning tabiiy og‘ish burchagidan katta bo‘lgan holatdagina mumkin bo‘ladi.

Shu sababli ushbu muloxazalardan kelib chiqqan holda tajriba sinovlari o‘tkazildi. Ifloslikni tabiiy og‘ish burchagi β ni aniqlash uchun ifloslikni titilgan holda tepadan tashlab uyum hosil qilindi va uni og‘ish burchagi β aniqlandi (6-rasm).

Ifloslikni tabiiy og‘ish burchagi $\beta = 42^0$ ni tashkil etdi.



6-rasm. Mayda ifloslikni tabiiy og‘ish burchagi

Nazariy taxlil va amaliy tajriba natijasidan kelib chiqqan holda tarnovni qiyalik burchagini $\alpha = 50^0$ deb qabul qilindi. Bunda ifloslik tarnovi bilan arrachali baraban bo‘limi qobig‘i bilan 70 sm oraliq masofa bo‘lib, joriy ta’mirlash ishlarini amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi [4-5].

Qoziqchali barabandan ajralayotgan ifloslikni qiya yuzada to‘xtab qolmay harakatlanishi shartlarini aniqlash maqsadida havo yordamida aspirasiya tizimini aerodinamik hisoblari o‘tkazildi. Natijada ifloslik tarnovini qiyalik burchagi, ifloslik uzatish tizimini trubalari diametrlari, havo sarfi aniqlandi, ventilyator tanlandi.

Xulosalar

1. Arrachali baraban bo‘limidan ajralgan mayda iflosliklarni ifloslik bunkerida barqaror harakatlanib pnevmatik uzatishni ta’minlash shartlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotda ifloslikni tarnovda to‘xtab qolmasdan harakatini ta’minlovchi tarnovni qiyalik burchagi va havo sarflari aniqlandi.

2. Turli xil muloxazalardan kelib chiqqan holda tajriba sinovlari o‘tkazildi. Ifloslikni tabiiy og‘ish burchagi β ni aniqlash uchun ifloslikni titilgan holda tepadan tashlab uyum hosil qilindi va mayda iflosliklarni tabiiy og‘ish burchagi β aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxta xomashyosini qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi, PDI-30-2012, Toshkent, “Mexnat”, 2012 y. 44 b.

2. Якубов Б.Н. Совершенствование процесса очистки хлопка-сырца от сорных примесей в пильчатых очистителях с целью уменьшения потери волокнистой массы хлопка: Дисс. канд. тех. наук.Ташкент:ТИТЛП,1985.156 с

3. B.N.Kuziyev., A.P Parpiyev., B.E.Qarshiyev., H.G‘.Turdiniyozova., Tozalash uskunasining yirik iflosliklardan ajratish bo‘limini takomillashtirish // Agro ilm Agrar-iqtisodiy ilmiy-amaliy jurnal. ISSN 2091-5616. 2 (86)-son, 2022, 92-93 b. (05.00.00; №3).-

4. A.P.Parpiyev., B.N.Kuziyev., K.E.Shernazarov., Tozalash seksiyalaridan ajralib chiqayotgan ifloslik miqdorini tahlili // “Fan, ta’lim, ishlab chiqarish integrasiyalashuvi sharoitida paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish innovasion texnologiyalari dolzarb muammolari va ularning yechimi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 1-qism, Toshkent 2022 yil,18-19 may,9-11 b.

УЎК: 677.021.152.08/.051.163

ТОЗАЛАШ АГРЕГАТИНИНГ АРРАЧАЛИ БЎЛИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ НАТИЖАЛАРИ

Гаппарова М.А., Кузиев Б.Н., Турдиниёзова Ҳ.Ғ.
(Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти)

Аннотация. Мақолада ишлаб чиқарилган толалар синфини паст бўлишига асосий сабаблар-толадаги қолдиқ ифлослик миқдори юқорилиги ва нуқсонли аралашмалар пайдо бўлиши аниқланган. Тозалаш жараёнларида уларнинг миқдорига тозалаш жараёнини уларни қайталигини чуқурроқ ўрганиб чиқишни талаб этилиши ўрганилган. Регенерация қилинган пахталарда тола билан мураккаб боғланишда калта қирқим толали ифлосликлар миқдори юқори эканлиги кўрсатилган.

Калит сўзлар: пахта, тозалаш жараёни,қозиқчали барабан,аррачали барабан, нуқсонли аралашмалар, лентали транспартёр, майда ифлослик, йирик ифлослик,тола.

Аннотация. В статье определены причины низкого качества выпускаемого волокна которыми являются повышенное количество остаточной грязи в волокне и появление дефектных соединений и их процентного содержания, в процессе многократной очистки, Требуется более глубокое изучение процессов многократной очистки. Определена, что регенерированные волокна имеют высокое содержание сорных примесей и пороков а также коротких волокон.

Ключевые слова: хлопок, процесс очистки, колковый барабан, пильный барабан, дефектные соединения, ленточный транспортер, мелкие примеси, крупные примеси, волокно.

Annotation. The article identifies the reasons for the low quality of the produced fiber, which are an increased amount of residual dirt in the fiber and the appearance of defective compounds and their percentage in the process of multiple cleaning. A deeper study of the

processes of multiple cleaning is required. It was determined that the regenerated fibers have a high content of weed impurities and defects, as well as short fibers.

Keywords: cotton, cleaning process, peg drum, saw drum, defective connections, conveyor belt, fine impurities, coarse impurities, fiber.

Пахта тозалаш корхоналарида пахтани йирик ифлосликлардан тозалаш учун 4та аррачали секциялар ўрнатилган бўлиб уларнинг ораларида 4тадан қозиқчали барабанлар олди ва охирги қисмига эса 1ХК тозалагични ½ қисми (4 тадан қозиқчали барабан) ёки тўлиқ 8 тадан қозиқчали барабан ўрнатилган. Ҳар бир аррачали секция битта аррачали барабан ва 4 та қозиқчали барабандан иборат алохида ажратилган бўлиб уларда пахтадан ажратилган ифлослик битта бункер орқали ифлослик шнегига тушиб сўнгра йиғувчи лентали транспортёр ёрдамида РХ-1 регенераторига узатилади[1,2]. Регенератор РХ-1 да чиқиндидан пахта қисман тозаланиб конденсор ёрдамида пахта тўплаш майдонига узатилади. Регенерация қилинган пахта тўпланиб смена охирида алохида қайта ишланади. Яъни тозаланиб, жинланади ва пресланади ёки асосий пахта оқимига қўшиб қайта ишланади. Тажрибалар регенерацияланган пахтани асосий пахта оқимига қўшилиб қайта ишланганда ишлаб чиқарилган тола ифлослиги ошиб кетишини кўрсатди. Шу сабабли аксарият холатларда юқори синф тола олиш учун регенерация пахтани алохида қайта ишлаш мақсадга мувофиқ деб топилмоқда. Лекин ушбу вариантда ишлаб чиқилган тола ифлослиги юқори бўлганлиги сабабли ностандарт деб топилмоқда ва улюк сифатида сотилмоқда. Ушбу муаммони хал этиш учун бир қатор тадқиқотлар ўтказилган бўлиб тегишли тавсиялар берилган [3].

Улардан ахамиятлиси А.С.Тошпулатов тадқиқоти бўлиб, аррачали секциянинг аррачали барабанлар ва қозиқчали барабанлардан ажралаётган ифлосликларни алохида транспортировка қилиш тавсияси берилган. Мазкур тадқиқотда берилган тавсия тшлиқ назарий ва амалий асосланмаган, ифлосликларни узатиш масаласи хал этилмаган. Мазкур холатни инобатга оллган холда биз томонимиздан УХК тозалагични аррачали секцияси такомиллаштирилди ва ажралган ифлосликни транспортировка тизими ишлаб чиқилди.

Пахтани йирик ифлосликлардан тозалаш жараёнида чиқиндига тушишига оид тадқиқотлар бир қатор олимлар томонидан амалга оширилган бўлиб жумладан, Р.З.Бурнашев ва А.Е.Лугачев томонидан пахта тузилма таркибини тозалаш жараёнларида ўзгариши ўрганиган,[5-6] пахтани тузилма таркибини характерловчи коэффициент m киритилган ва уни пахтани чиқиндига тушиш миқдорига таъсири аниқланган.

С.А.Самандаров, Е.Ф.Будин ва бошқалар томонидан аррачали тозалагичларда колосникларни геометрик шакллари ва ўлчамларини пахтани чиқиндига тушишига таъсири ўрганилган бўлиб унда пахта бўлакчасини таркибидаги толали якка чигит пахтани колосникка урилиш жараёнида узилиши сабабли чиқиндига тушиши таҳлил қилинган [6].

Пахта тозалаш корхоналарини иқтисодий самарадорлигини ошириш, пахтадан тола ишлаб чиқариш кўрсаткичини юқори бўлишини таъминлаш долзарб муаммо ҳисобланади.

Ишлаб чиқарилган толалар синфини паст бўлишига асосий сабаблар-толадаги қолдиқ ифлослик миқдори юқорилги ва нуқсонли аралашмалар пайдо бўлиши ва уларни улуши юқорилиги бўлиб, тозалаш жараёнлари, уларни қайталигини чуқурроқ ўрганиб чиқишни талаб этади.

Тадқиқотларда тозалаш жараёнида пахтани ифлосликлар билан тушиб кетишини ҳарактерловчи катталиклар келтирилган бўлсада, масала ўз ечимини топмаган.

Такомиллаштирилган УХК тозалаш оқими икки хил вариантга эга бўлиб улар 2 ва 3-расмларда келтирилган.



1-расм. Пахтани тозалашни мажуд технологияси. 1-қозиқчали барабан 2-аррали секция 3-қозиқчали барабан секцияси 4-ифлослик тарнови 5-ифлослик шнеги 6-лентали транспортёр

Пахтани тозалаш оқими УХК да аррачали секциялар (2) дан ажралиб чиққан пахтали чиқиндиларга қозиқчали барабанлар (1,2) дан тушган майда ифлосликлар аралашиб ифлослик шнеги (5) орқали лентали транспортёрга тушади ва унда йиғилиб регенераторга пневматик узатилади. Бунда қозиқчали барабандан тушган майда ифлосликлар пахтани қўшимча ифлослантиради.

Тавсия этилаётган 1-вариантда аррали секциялар орасидаги тўрт қозиқчали барабанда ажралиб чиқаётган ифлосликлар алохида пневмотрубалар ёрдамида вентилятор орқали циклонга узатилади Ушбу схема пахта тозалаш корхоналаридаги мавжуд УХК тозалаш оқимига тадбиқ этилади. Бунинг учун қозиқчали барабанлардан ажралаётган ифлосликни алохида бункер ёрдамида мавжуд чанг сўрғич пневматик системаси трубага узатилади ва ҳаво ёрдамида циклонга юборилади.

1-жадвал

Тавсия этилган вариантда чиқинди таркибидаги ифлосликларни пахта массасига нисбатан ўзгариши

т/р	Кўрсаткичлар	Иш унумдорлиги t/s	Чиқинди массасини пахта массасига нисбати, $M_{иф}/M_{п}$			
			Тозалаш қайталиги			
			1	2	3	4
Қўл терими	Мавжуд вариантда	4,5	59,0	25,4	18,5	7,4
		6	57,9	26,5	17,2	8,3
	Тавсия вариантида	4,5	35,0	13,7	9,8	3,7
		6	36,8	13,9	8,7	4,2
Машина терими	Мавжуд вариантда	4,5	102,1	81,6	27,5	20,3
		6	67,7	38,0	29,0	14,2
	Тавсия вариантида	4,5	61,4	43,4	13,9	10,7
		6	41,4	19,9	15,2	7,3

Олинган натижаларни тахлили қуйидагиларни кўрсатди:



2-расм. Ифлосликни узатиш схемаси. 1-1ХК тозалаш секцияси; 2-аррали секцияни қозиқчали барабани; 3-аррали секция; 4-ифлослик шнеги; 5-қозиқчали барабан секцияси; 6,7-ифлослик лентали транспортёри.

- барча вариантларда тозалаш қайталиги ошган сари аррачали барабанларда чиқиндига тушаётган пахта миқдори ажралган ифлосликга нисбатан олганда ошиб бориши кузатилди;
- қозиқчали ва аррали барабанларда ажралиб чиқаётган ифлослик миқдори тозалаш қайталиги ошган сайин кескин камайиши хамда ифлослик миқдорини пасайиш характери қозиқчали ва аррали барабанларда бир хил эканлиги аниқланди;
- тозалагичларни иш унумдорлиги ошган сайин ифлослик ажралиши сезиларли пасайиши кузатилди;
- Кўриниб турибдики чиқиндидаги пахта ифлослигини қозиқчали барабанлар секциясидан ажралаётган майда ифлосликларни қўшмаслик деярли икки баробаргача камайтирар экан. Ушбу холат регенерация қилинган пахта ифлослигини камайтириб, ундан стандарт талабидаги тола олиш имкониятини яратади.



3-расм. Майда ифлосликни узатишни пневматик схемаси. 1-ифлослик трубаси; 2-ифлосликни узутувчи магистрал труба; 3-вентилятор; 4-циклонга ифлосликни узуувчи труба; 5-циклон.

Лентали транспортёр ни ишлаш режимини аниқлаш учун қозиқчали барабанлар тагидан ажралаётган ифлослик миқдорини аниқлаш талаб этилади.

Пахта тозалаш корхоналарида пахтани дастлабки ишлаш натижаларини таҳлили, пахтани йирик ифлосликлардан тозалаш етарли даражада бўлиб, майда ифлосликлардан тозалаш самарадорлиги паст бўлганлиги туфайли ишлаб чиқилаётган толада асосан майда ифлосликлар қолаётганлигини кўрсатди.

Хулосалар.

1. Ишлаб чиқарилган толалар синфини паст бўлишига асосий сабаблар-толадаги қолдиқ ифлослик миқдори юқорилги ва нуқсонли аралашмалар пайдо бўлиши ва уларни улуши юқорилиги бўлиб, тозалаш жараёнлари, уларни қайталигини чуқурроқ ўрганиб чиқишни талаб этади.

2. Пахтани аррали секцияларда тозалашда ажралган чиқиндиларни фракция таркиби ўрганиб чиқилди ва регенерация қилинган пахталарда тола билан мураккаб боғланишда бўган майда ифлосликлар миқдори юқори эканлиги аниқланди.

3. УХК тозалаш ускунасини такомиллаштирилган варианти тавсия этилди. Унда чиқиндига тушган пахтани майда аралашмалар билан ифлосланишини кескин камайтириш имконияти яратилди.

4. Тавсия этилган такомиллаштирилган УХК ускунасини тажриба синови натижасида регенерацияга тушган пахта ифлослигини 2 баробаргача камайтириш мумкинлиги асосланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Пахтани дастлабки ишлашни мувофиқлаштирилган технологияси (ПДИ 30-2017). Ўзпахтасаноат. Тошкент 2017.

2. Пахта толаси. Техникавий шартлар. Ўзбекистон давлат стандарти O‘z Dst 604-2001.Стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш Ўзбекистон давлат маркази, Тошкент 2001.

3. Пахтани дастлабки қайта ишлаш (ўқув қўлланма) Э. Зикирёевнинг умумий тахрири остида. Тошкент, Мехнат 20024.

4. Jingshan Tian, Xuyi Zhang, Zhan Zhao. How to reduce cotton fiber damage in the Xinjiang China. Industrial Crops and Products, Volume 109, 15 december 2017. P.p 803-811. China.

5. Mangialardi, G. J. and J. V. Shepherd. 1968. Seed coat fragment and funiculus distribution in ginned lint as affected by lint cleaning. ARS Report 42-145, June 1968. United States Department of Agriculture, Agricultural Research Service, Beltsville, MD

6. Armijo, C. B., S. E. Hughs, M. N. Gillum, and E. M. Barnes. 2006a. Ginning a cotton with a fragile seed coat. Journal of Cotton Science 10:46-52.

УЎК 677.021.152.08/.051.163

ТОЗАЛАШ ЖАРАЁНИДА АРРАЛИ БЎЛИМЛАРДАН АЖРАЛГАН ЧИҚИНДИ УЛУШЛАРИНИ АНИҚЛАШ НАТИЖАЛАРИНИНГ ТАХЛИЛИ

Парпиев А.П., Кузиев Б.Н., Турдиниёзова Ҳ.Ғ.
(Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти)

Аннотация. Мақолада пахтани йирик ва майда ифлосликлардан тозалаш агрегатидан чиққан чиқиндилар таркибини тахлил қилиш, пахтани бир чигитли бўлакларга ажралиши ҳамда чиқиндилар билан биргаликда чиқиб кетаётган эркин толалар миқдорини баҳолашга қаратилган тажриба тадқиқотлари натижалари келтирилган. Чиқинди таркибидаги бўлаклар миқдорига уруғнинг нави, пахтанинг сифати, ифлосланганлиги ва бошланғич намлиги ҳамда тозалаш агрегати аррали барабанларининг сони ва қозиқли барабанлар остидаги химоя қоқоғининг очиқ ёки ёпиқ ҳолатларда бўлишининг таъсирлари ўрганилди.

Калит сўзлар: пахта, тозалагич агрегати, чиқинди, майда ифлослик, йирик ифлослик, летучка, эркин тола.

Аннотация. В статье приведены результаты экспериментальных исследований состава отхода, выходящего из агрегата очистителя от мелкого и крупного сора, а также оценке количестве летучек и свободных волокон, содержащихся в составе отхода. Изучены влияния на количество различных составляющих отходов разновидности семян, качества хлопка, степени засоренности и исходной влажности, а также количества пильных барабанов и открытое или закрытое положения защитой крышки колковых барабанов.

Ключевые слова: хлопок, очистительный агрегат, отход, мелкий сор, крупный сор, летучка, свободная волокна.

Abstract. The article presents the results of experimental studies of the composition of the waste leaving the unit of the cleaner from small and large litter, as well as an assessment of the amount of volatiles and free fibers contained in the waste. The effects on the amount of various waste constituents of seed variety, cotton quality, degree of weediness and initial moisture, as well as the number of saw drums and the open or closed position of the protection of the peg drum cover, were studied.

Keywords: cotton, cleaning unit, waste, small litter, large litter, fly, loose fibers.

Маълумки, пахтани қайта ишлаш жараёнининг деярли барча босқичларида тола ва чигитнинг механик шикастланиши, тозалаш ва жинлаш жараёларида эса тола ва пахта бўлакларини чиқиндиларга қўшилиб кетиши кузатилади. Тола ва чигитнинг механик шикастланиши, тозалаш ва жинлаш жараёларида тола ва пахта бўлакларини чиқиндиларга қўшилиб кетиши қайта ишлаш жараёнинг умумий сифати ва самарадорлигини янада оширишга имкон бермаётган асосий кўрсаткичлардан ҳисобланади ва бу нуқсонлар натижасида соҳада иқтисодий йўқотишларга йўл қўйилади.

Юқорида таъкидланган нуқсонларни келиб чиқиши сабабларини аниқлаш, уларга барҳам бериш чораларини белгилаш ва олинган натижаларни амалиётга тадбиқ этиш муаммоларини ечиш масаласи, биринчи навбатда, соҳа олимлари ва мутахассислари олдида турган долзарб масала бўлиб қолмоқда. Ушбу муаммоларни ечишга қаратилган ва натижалари сўнги йилларда чоп этилган илмий ва амалий тадқиқот ишлари жумласига, масалан, [1-23] ишларни киритиш мумкин.

Ҳавола этилаётган иш тозалаш корхоналарида пахтани йирик ва майда ифлосликлардан тозалаш УХК агрегатидан чиққан чиқиндилар таркибини тахлил қилиш, пахтани бир чигитли бўлакларга ажралиши ҳамда чиқиндилар билан биргаликда чиқиб кетаётган толалар пахтадан ажралиб кетиши сабабларини аниқлашга бағишланган. Асосий эътибор УХК агрегати тўртта аррали барабан (АБ) ларининг ҳар биридан чиқаётган чиқиндилар таркибини алоҳида баҳолашга қаратилган. Бундай қилиш тозалаш сифати ва чиқиндиларнинг таркибини аррали секциялар сонига боғлиқлик даражасини аниқлаш имкониятини беради.

1. ***Чиқинди таркибини баҳолаш бўйича олиб борилган тажриба тадқиқотларининг мазмуни.*** Маълумки [1-23] қайта ишлаш босқичларида тола ва чигитнинг механик шикастланиш кўрсаткичлари уруғлик чигитнинг селекцион нави, пахтанинг сифат кўрсаткичи, бошланғич техник баҳолаш кўрсатикичлари, намлиги, ифлосланганлиги, ифлосликнинг таркиби, машиналарни иш сифати, қайта ишлаш босқичларининг сони ва бошқа ҳолатларга боғлиқ. Чиқиндиларни ва уларни таркибий қисмларининг умумий миқдорлари ҳам юқорида келтирилган нуқсон ва ҳолатларга боғлиқ равишда турли қийматларга эга бўлади.

Масалан, тола ва чигитни шикастланиш ҳамда чиқиндилар билан ташқарига чиқиб кетиши даражалари пахтанинг нави, сифати, қуртиш даражаси, ифлосликларни массаси, таркиби, геометрик шакли ва ўлчамлари ҳамда тегишли машиналарни иш сифати ҳам боғлиқ. Намлиги пахтанинг умумий намлигидан юқори бўлган ва қуриш тезлиги пахтани қуриш тезлигидан секин бўлган ифлосликлар қуритишнинг сифат ва самарадорлик кўрсаткичларига салбий таъсир кўрсатади. Намлиги нисбатан юқори бўлган чиқиндиларни пахтадан ажралиш ва уларга толаларни илашиш кўрсаткичлари қуруқ чиндилариникидан фарқ қилади

Ишлаб чиқариш корхоналарида ва Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти илмий-текшириш лабораторияларида олиб борилган тажриба-синов тадқиқотлари натижасида қуйидаги мақсадларга эришилди ва вазифалар амалга оширилди.

1. УХК тозалаш линиясида қайта ишланаётганда АБ ларнинг сонини ифлосликлар таркибида ташқарига чиқиб кетаётган пахта бўлаклари миқдорига таъсирини баҳолаш. Бундай баҳолаш 3 ва 4 та АБларга эга УХК тизимларидаги ҳар бир АБларнинг чиқиндилари тахлил қилинди ва уларнинг ҳар биридан чиқиб кетган пахта бўлакларининг миқдори баҳоланди. Баҳолашлар ҳар бир АБлардан чиқаётган чиқиндилар таркибини алоҳида тахлил қилиш орқали амалга оширилди. 3 ва 4 та АБларга эга УХК агрегатлари чиқидиларининг умумий ўртача ва таркибий ташкил этучилари миқдори ҳар бир АБлардан чиқаётган чиқиндиларнинг миқдори ва таркиби билан таққосланди.

2. 3 ва 4 та АБларга эга УХК тизимларида тозаланганда чиқинди таркибидаги пахта бўлаклари миқдорига селекцион навнинг таъсирини баҳолаш мақсадида тажриба-синовлари С-6524 , С65-24 R2 ½ ва Ан-37 селекцион навли пахталар устида ўтказилди. Бундай баҳолашлар 3 ва 4 та АБ ларга эга УХК тизимларида тозаланган пахта навларидан чиққан чиқиндиларни алоҳида тахлил қилиш орқали амалга оширилди.

3. Чиқиндилар таркибидаги пахта бўлаклари миқдорига бошланғич ифлосланганликнинг таъсирини баҳолаш учун тадқиқотлар турли миқдорда ифлосланган пахталар устида бажарилди. Бунда тадқиқотлар бошланғич ифлослиги 6.5 % ва 7.5 % ни ташкил этган бир хил селекцион навли - С65-24 R2 1/2 ва бир хил усулда терилган *(қўл терими)* пахталарни 3 ва 4 та АБ ларга эга УХК тизимларида тозалаш орқали бажарилди.

4. Пахтани бошланғич намлигини чиқиндилар таркибадаги пахта бўлакларининг умумий миқдори ва сифатига таъсирини баҳолаш мақсадида тадқиқотлар бошланғич намлиги 8,4 % ва 10,9 % ни ташкил этган бир хил навли (С65-24 R2 ½) ва бир хил усулда терилган (қўл терими) намуналарни 3 ва 4 та АБ ларга эга УХК тизимларида тозалаш орқали бажарилди.

5. Пахтани қуритиш натижасини чиқиндилар таркибадаги пахта бўлакларининг умумий миқдорига таъсири кўрсаткичларини баҳолаш учун бошланғич намлиги 10,9 % ва қуритиш барабанидан кейинги намлиги 9,5 % ни ташкил этган намунани 3 ва 4 та аррали секцияларга эга УХК тизимларида тозалаб кўрилди ва ҳар бир АБ дан чиққан чиқиндиларнинг таркиби тахлил қилинди.

6. Пахтани тозалаш ва чиқиндилар миқдорига УХК агрегатининг АБ лари сони таъсирини баҳолаш мақсадида турли корхоналардаги 3 ва 4 та аррали секцияларга эга агрегатлардан чиққан чиқиндилар намуналари тажриба-синов тадқиқотларидан ўтказилди.

7. Қозиқчали барабанларни ишчи ҳолатини тозалаш сифати ва чиқиндиларнинг миқдори ва таркибига таъсирини баҳолаш учун УХК агрегатини қозиқчали барабанлари тагидаги қопқоқни ёпиқ ва очиқ ҳолатларида ишлаши давомида олинган намуналар алоҳида тахлил қилинди ва натижалар таққосланди.

8. УХК агрегатидан ажралиб чиқаётган барча чиқиндининг умумий миқдори ва сифатини баҳолаш мақсадида 3 минут давомида қозиқчали барабанлардан ва ҳар бир АБлардан ажралиб чиққан чиқиндилар таркиби алоҳида тахлил қилинди.

9. Чиқиндилар таркибидаги пахта бўлаклари миқдорига турли корхоналардаги тозалаш тизимлари иш сифатининг таъсирини баҳолаш мақсадида тажриба синовлари Андижон вилоятининг Чинобод ва Шахрихон ҳамда Тошкент вилоятнинг Чиноз, Дўстлик-1, Дўстлик-2 ва Бўка туманлари пахта тозалаш корхоналарида С-6524 ва Ан-37 ҳамда С65-24 R2 1/2 (қўл терими) селекцион навли намуналар устида амалга оширилди.

2. Тажриба учун намуналарни олиш тартиби. Дастлаб агрегатни доимий иш ҳолатида 3 минут давомида ишлаши натижасида қозиқли барабанлардан ажралган чиққан чиқинди намунаси олинди.

Сўнгра УХК линиясидаги қозиқчали барабанларнинг таг қопқоғи 30 минут давомида очиб қўйилди ва тўрли юзаларни аввалдан илашиб қолган толали ифлосликлардан тозалаб яна 3 минут давомида ажралган чиқиндининг барчаси намуна сифатида олинди. Бу орқали агрегатнинг турли жойларида аввалдан йилиб қолган чиқиндиларни намуналарга қўшилиб кетишини олди олинди.

Юқорида айтилган 3 минут вақт давомида АБларнинг шнекларнинг ҳар биридан ажралиб чиққан чиқиндиларнинг барчаси алоҳида-алоҳида намуналар сифатида танлаб олинди. Намуналар ифлослик шнекидан тушган чиқиндини РХ регенерация қурилмасида регенерация қилингандан кейинги ҳолатда олинди.



а) б)

1-расм. Аррали секциялардан ажралиб чиққан чиқинди таркиби намуналари

3. Тажриба тадқиқотлари ва натижалар. Барча корхоналардан олинган чиқинди намуналари беш турдаги бўлакларга ажратилди: а) АБдан чиққан чиқинди; б) қирқилган, майда ифлослик, пишмаган тола пластиги ва улюк билан чигаллашган толалар; в) ғўза барги, гули, бандлари ва уларга илашган толалар; г) майда ифлосликлар ва уларга илашган толалар; д) чиқинди таркибидаги чаноқ; д) тозаланган пахта.

1-расмда АБдан чиққан чиқинди ва қирқилган, майда ифлослик, пишмаган тола пластиги ва улюк билан чигаллашган толалар ҳамда ғўза барги, гули, бандлари ва уларга илашган толаларнинг умумий кўринишлари келтирилган.

Кузатишлар АБлардан олинган чиқиндининг таркибида кўп миқдорда бир чигитли ва айрим ҳолларда эса икки чигитли пахта ва тола ҳамда тола бўлаклари мавжудлигини кўрсатди (1*а* –расм). Тахлиллар тола ҳамда шикастланган ва пишмаган толалар ажратилган бўлакларнинг барчасида мавжудлиги ва уларнинг миқдори майда чиқиндилар (1 *б* -расм) ҳамда ғўза барги, гули, бандлари (1 в -расм) таркибида нисбатан кўплигини кўрсатди.



2-расм. УХК агрегатининг аррала секцияларнинг тартиб рақамлари

4. Дўстлик-1 ва Дўстлик-2 корхоналарида ўтказилган тажриба тадқиқотларининг натижалари. 1-жадвалда Дўстлик-1 ва Дўстлик-2 заводларида 28 та қозиқчали барабанлар ва 3 та аррали барабан (АБ)лардан иборат УХК агрегатининг тозалаш сифати ва самарадорлигини уруғнинг нави, териш усули, бошланғич намлиги ва ифлослиги ҳамда корхонанинг иш унумдорлиги ҳамда қозиқчали барабанлар остидаги қопқоқнинг ҳолатига боғликлигини баҳолаш бўйича ўтказилган тажрибаларнинг натижалари келтирилган. Ушбу тажрибаларда Дўстлик-1 ва Дўстлик-2 заводлари УХК агрегатларини 3 минут давомида тўхтовсиз ишлаш давомида қозиқчали барабанлар кейинги 1-, 2- ва 3-АБлардан чиққан барча чиқиндилар миқдори аниқланган.

1-жадвалда келтирилган маълумотлардан қуйидаги тозалаш самарадорлигининг сифат кўрсаткичларига тегишли қуйидаги хулосалар келиб чиқади.

1-жадвал

Тозалаш сифати ва самарадорлигини қозиқчали барабанлар осидаги қопқоқнинг ҳолатига боғлиқлиги

Пахтанинг бошланғич кўрсаткичлари	АББ нинг тартиб рақамлари	Чиқиндининг миқдори *(кг)*
Дўстлик-1 заводида қайта ишланаётган Бухоро-102 1/2 навли *(қўл терими)* пахта, бошланғич намлик 9,8 %, қуритиш барабанидан кейинги намлик 8,1 %, бошланғич ифлослик 7.2 %, УХК тозалагичлари иш унумдорлиги ўртача 3.960 *m/coat.*	Қозиқчали барабанлар ости қопқоғи очиқ	
	1-АБ	3.43
	2-АБ	3.17
	3-АБ	1.83
	Қозиқчали барабанлар ости қопқоғи ёпиқ	
	1-АБ	4.6
	2-АБ	3.8
	3-АБ	2.23
Дўстлик-2 заводида қайта ишланаётган Ан-Бояут 4/2 навли *(машина терими)* пахта, бошланғич намлик 12,7 %, қуритиш барабанидан кейинги намлик 7,2 %, бошланғич ифлослик 19,8%, УХК дан олдинги ифлослик 17.5 %, УХК тозалагичлари иш унумдорлиги ўртача 4.752 *m/coat.*	Қозиқчали барабанлар ости қопқоғи очиқ	
	1-АБ	10.13
	2-АБ	5.67
	3-АБ	5.03
	Қозиқчали барабанлар ости қопқоғи ёпиқ	
	1-АБ	15.27
	2-АБ	8.67
	3-АБ	5.97

Дўстлик-1 заводида биринчи 1-АБдан чиқадиган чиқиндининг миқдори қолганлариникидан анча катта – 3-АБ чиқаётган чиқиндининг миқдоридан деярли икки баробар катта. Бунинг сабаби қилиб пахта бўлаклари АБлардан ўтгани сари чиқиндини

миқдорининг камайиб боришини кўрсатиш мумкин. Бундай натижа қозиқли барабанлар остидаги қопқоғи очиқ бўлганда ҳам ёпиқ бўлганда ҳам кузатилади.

Дўстлик-1 заводидан олинган маълумотларга кўра қозиқли барабанлар остидаги қопқоғи ёпиқ бўлганда уччала АБларни тозалаш сифати ва самарадорилиги қопқоқлар очиқ бўлгандаги натижалардан юқори бўлади. Масалан, қозиқли барабанлар остидаги қопқоқ ёпиқ бўлганда 1-АБдан уч минут давомида 4.6 *кг* чиқинди ажралиб чиқади, очиқ бўлганда эса – 3.43 *кг,* яъни чиқиндининг миқдори 25 % га кўп.

Қозиқли барабанлар остидаги қопқоқ ёпиқ бўлганда 2- ва 3-АБларни тозалаш кўрсаткичлари ҳам қопқоқ очиқ бўлгандагисиникида анча юқори, айниқаса 3-АБнинг натижаси 22 % га юқори.

Юқоридагига ўхшаш натижа ва тозалашнинг сифат кўрсаткичлари Дўстлик-2 заводида ҳам кузатилади. Бу ерда қозиқчали барабанлар ости қопқоғи ёпиқ бўлганда 1-АБ ажратган чиқиндининг миқдори 2-АБникидан деярли икки ва учинчисиникидан эса деярли уч баробар кўп.

Иккала корхоналардан олинган натижалардан пахтани бошланғич ифлослик даражаси ортса уччала АБлардан ажралиб чиқаётган чиқиндиларнинг миқори ортади ва аксинча - бошланғич ифлосликнинг миқдори камайса, АБлардан ажралиб чиқаётган чиқиндиларнинг миқори ҳам камаяди деган хулоса келиб чиқади.

Юқоридаги шартларда уччала АБлардан ажралган чиқиндиларни таркиби тахлил қилинди. Бунда 3 минут давомида уччала АБларнинг қозиқли барабанни қопқоғи ёпиқ турган ҳолатидаги чиқиндиларидан 300 *г* дан ажратиб олиниб 2-жадвалда келтирилган таркибларга ажратилди.

Кузатишлар тажриба ўтказилаётган корхоналарнинг иккаласида ҳам 1-, 2-, ва 3-АБлардан ўтиш давомида чиқинди билан ажралиб чиқаётган пахта ва толаларнинг миқдори ортиб боради.

Дўстлик-1 заводи агрегатининг учинчи АБсидан ажралиб чиққан чиқиндидаги пахта бўлакларининг миқдори биринчи АБдан ажралиб чиққанидан икки барабардан ҳам кўпроқ – биринчисидан 119.5 *г*, учинчисидан эса 254.6 *г* пахта ажралиб чиқиб кетади.

2-жадвал

Дўстлик-1 ва Дўстлик-2 корхоналарида тозалаш сифатини тахлиллари ва комплекс баҳолаш натижалари

Дўстлик 1-заводида қайта ишланаётган Бухоро-102 1/2 навли *(қўл терими) пахта,* бошланғич намлик 9.8 %, қуритиш барабанидан кейинги намлик 8.1 %, бошланғич ифлослик 7.2 %, УХК тозалагичлари иш унумдорлиги ўртача 3.960 *т.соат,* тажрибанинг давомийлиги 3 минут, АБСлардан олинган намуналарнинг массалари 300 *гр*						
Тузилма таркиби	1-АБ		2-АБ		3-АБ	
	гр	%	*гр*	%	*гр*	%
Пахта	119,5	39,83	202,0	67,33	254,6	84,87
Йирик ифлослик	128,9	42,97	74,6	24,87	24,8	8,27
Майда ифлослик	48,5	16,17	23,4	7,80	18,9	6,30
Угар	3,1	1,03	2,1	0,70	1,7	0,57
Умумий	300	100	300	100	300	100
Дўстлик 2-заводида қайта ишланаётган Ан-Бояут 4/2 навли *(машина терими)* пахта, бошланғич намлик 12,7 %, қуритиш барабанидан кейинги намлик 7,2 %, бошланғич ифлослик 19,8%, УХК дан олдинги ифлослик 17,5 %, УХК тозалагичлари иш унумдорлиги ўртача 4.752 *т.соат*, тажрибанинг давомийлиги 3 минут, АБлардан олинган намуналарнинг массалари 300 *гр*						

Тузилма таркиби	1-АБ		2-АБ		3-АБ	
	гр	%	*гр*	%	*гр*	%
Пахта	116,9	38,97	167,3	55,77	213,2	71,07
Йирик ифлослик	138,9	46,30	84,4	28,13	47,5	15,83
Майда ифлослик	42,1	14,03	46,9	15,63	37,3	12,43
Угар	2,2	0,73	1,4	0,47	2,0	0,67
Умумий	300	100	300	100	300	100

Дўстлик-2 корхонасида олинган натижалар сифат жихатидан Дўстлик-1 корхонасида олинган натижаларга ўхшайди. Бироқ қўл терими пахтасидан ажралган ифлосликнинг таркибида пахта бўлаклари ва толаларнинг миқдори машинада терилганиникидан кўпроқ.

Бошланғич ифлосланганлик даражаси *машинада* терилган пахтада *қўлда* терилганиникидан анча кўп бўлишига қарамасдан қўлда терими чиқиндисидан ажралаётган пахтанинг миқдори машина териминикидан 41.4 *г*, яъни 13.8% кўп.

АБлардан ўтгани сари йирик ифлосликлар ажралиб чиқиши камайиб боради. 1-АБ қўл терими пахтасидан 3-АБ га нисбатан 5.2 баробар кўпроқ йирик ифлослик ажратади, машина теримида эса бу кўрсаткич деярли 3 баробарни ташкил этади.

Дўстлик-1 заводи агрегатининг АБларидан ўтгани сари майда ифлосликлар ажралиб чиқиши камайиб боради. 1-АБ қўл терими пахтасидан 3-АБ га нисбатан 2.6 баробар кўпроқ майда ифлослик ажратиб чиқаради.

Дўстлик-2 заводи агрегатининг АБларидан ўтганида майда ифлослик ажралиши миқдори Дўстлик-1 заводи агрегатиникига ўхшамайди. Бу ерда 2-АБдан ажралган майда ифлосликнинг миқдори, қолган 1- ва 3-АБлардан ажралганидан кўпроқ.

Кузатиш ва баҳолашлар Дўстлик-2 заводи агрегатининг 3-АБи Дўстлик-1 заводи агрегатиникидан деярли 2 баробар кўп майда ифлослик ажратишини ва бу ифлосликнинг таркибида толаларнинг кўплигини кўрсатди.

Дўстлик-1 корхонасининг уччала АБларидан жами 90.8 *гр* майда ифлослик чиқади, Дўстлик-2 корхонасининг уччала АБларидан эса – 126.3 *гр*.

Пахта Дўстлик-1 корхонаси УХК агрегати АБларидан ўтиши давомида угарнинг чиқиши камайиб боради. 1-АБдан чиққан угарнинг миқдори 2-АБдан чиққан угардан 32 %, учинчи 3-АБдан чиққанидан эса 45 % кўп.

Дўстлик-2 корхонаси АБларидан чиқаётган угарнинг миқдори Дўстлик-1 никидан бошқача қонуният бўйича ўзгаради. Бу ерда 1- ва 3-АБлардан чиқаётган угарнинг миқдори бир-бирига нисбатан яқин, бироқ бу қийматлар 2-АБдан чиқаётган миқдордан кескин фарқ қилади.

Дўстлик-1 корхонасининг уччала АБларидан жами 6.9 *гр* угар ажралиб чиқади, Дўстлик-1 корхонасининг АБларидан эса бир оз кам – 5.6 гр угар ажралади.

Тахлиллар корхоналарда тозаланадиган пахталарнинг уруғ нави, сифати, ифлосланганлик ва намлик даражалар, УХК таркибидаги қозиқли ва аррали барабанлар сони, агрегатларни ишлаш қуввати (тезлиги) турлича эканини ва шунинг учун, турли корхоналарда ўтказилган тажрибаларнинг айрим натижаларини сифат жихатидан таққослаш мумкинлини кўрсатди.

Қуйида Бўка пахта тозалаш корхонасида қўлда терилган пахта устида олиб борилган тажриба-синовларнинг натижалари ва уларни айрим жиҳатларини Дўстлик-1 корхонасида қўлда терилган пахта устида ўтказилган тадқиқот кўрсаткичлари билан қиёслашдан олинган хулосаларни келтирамиз.

5. Бўка пахта тозалаш корхонасида корхонасида ўтказилган тажриба тадқиқотдарининг натижалари. Корхонада 28 та қозиқчали барабан ва 4 та АБли УХК агрегати ўрнатилган. Бу ерда тозаланаётган қўлда терилган пахтанинг нави С65-24 ½,

бошланғич намлиги 10.9 %, қуритиш барабанидан кейинги намлиги 9.5 % ва бошланғич ифлослиги 6.5 %.

3-жадвалда УХК агрегатининг 4 та АБларидан 3 минут давомида тозалаш натижасида ажралган ифлосликларнинг умумий миқдорлари ҳамда улардан ажратиб олинган бўлакларнинг улушлари келтирилган.

Кўриниб турибдики, 3 минут давомида 1-АБдан энг кўп 6575 *гр* ифлослик ажралиб чиқади ва бу кўрсаткич 2-АБникидан 3.09, 3-АБникидан 4.04 ва 4-АБникидан 6.09 баробар кўпни ташкил қилади. Ўтказилган кузатиш ва баҳолашлар бундай ҳолатни юзага келишининг сабаби қилиб пахтани агрегатнинг қозиқли барабанлари ва уларни остидаги металл тўр билан таъсирлашиш натижасида айрим йирик ифлосликлар майдаланиб кетиши оқибатида 1-АБга нисбатан кўпроқ майда ифлосликка эга пахта келиб тушишади, ва, бунинг натижасида, 1-АБдан анча кўп ифлослик ажралиб чиқади деган хулоса чиқаришга асос бўлди. Қолган АБлардан ажралиб чиққан чиқиндиларнинг миқдори биринчисиникидан кам.

Чиқиндилар билан биргаликда ажралиб чиқаётган майда ва йирик ифлосликлар, калта қирқим толали ифлослик ва угар миқдорининг ўзгариши сифат жиҳатидан умумий чиқинди миқдорини ўзгаришига ўхшайди – тўрттала АБлардан ўтган сари уларни ажралиш миқдорлари камайиб боради ҳамда 1-АБдан кейин кескин камаяди.

Чиқиндилар билан биргаликда ажралиб чиқаётган пахта бўлаклари миқдорининг ўзгариши сифат жиҳатидан олдинги кўрсаткичлар миқдорларини ўзгаришига ўхшамайди. 1-АБдан чиқиндиси таркибидаги пахта миқдори қолганлариникидан анча кўп, бироқ 3-АБ чиқиндисидан ажралган пахтанинг миқдори 2-АБ ва 4-АБ чиқиндисидан ажралган пахтанинг миқдоридан кўпроқ.

3-жадвал

Бўка туманида жойлашган ПТКда УХК АБларидан ажралиб чиққан ифлосликлар ва уларнинг улушлари

Тузилма таркиби	1-аррали барабан		2-аррали барабан		3-аррали барабан		4-аррали барабан	
	гр	%	гр	%	гр	%	гр	%
Ажратилган пахта	1695,04	25,78	237,92	11,17	265,53	16,33	139,54	12,92
Майда ифлослик	308,37	4,69	97,77	4,59	68,78	4,23	55,19	5,11
Йирик ифлослик	3486,06	53,02	1126,34	52,88	812,02	49,94	549,50	50,88
Калта қирқим толали ифлослик	965,21	14,68	635,81	29,85	454,30	27,94	320,22	29,65
Угар	120,32	1,83	32,16	1,51	25,37	1,56	15,55	1,44
Умумий ифлослик	6575	100	2130	100	1626	100	1080	100

Тажриба ва кузатишлар турли корхоналарнинг тўртта АБли УХК агрегати шнекларидан чиққан чиқиндилар таркибида пахта миқдорини Бўка корхонаси агрегатиникига ўхшаш бўлишини кўрсатди, яъни 1-АБдан қолганлариникида кўп миқдорда чиқинди пахта ажралиши ҳамда 3-АБ чиқиндиси таркибидаги пахта миқдори 2- ва 4-АБ лардан чиққанларидан нисбатан кўп бўлиши аниқланди.

Хулоса

Тозалаш натижасида УХК агрегати АБ шнекларидан ажралиб чиқадиган чиқинди таркибидаги пахта ва бошқа ифлосликларнинг миқдорларини корхонанинг иш унумдорлиги, пахтанинг бошланғич кўрсаткичлари, қозиқли ва аррали барабанларнинг сонига боғлиқлигини баҳолаш мақсадида турли корхоналарда тажриба-синовлари

ўтказилди. Турли бошланғич кўрсаткичлар асосида ўтказилган тажрибаларнинг айрим натижалари қиёсланди ва улардан тегишли хулосалар келтириб чиқарилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Paxtani dastlabki ishlash muvofiqlashtirilgan texnologiyasi. “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi. “Paxtatozalash IICHB” OAJ. T.: 2012.
2. Paxtani dastlabki ishlashni muvofiqlashtirilgan texnologiyasi “Uzpaxtasanoat uyushmasi”. Paxta tozalash ilmiy markazi. T.: 2017.
3. Parpiyev A.P., Usmankulov A.K., Chigitli paxtani quritish. T.: ‘‘Fan va texnologiyalar’’,2009 y.
4. Umarxodjayev D.X., Parpiyev A.P. Tola sifatini yaxshilashni ba’zi muammolari. Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat texnika va texnologiyalarini takomillashtirishda innovatsiyalarning roli. Ilmiy amaliy anjuman ma’ruza materiallari to‘plami. Namangan-2015.56-60 b.
5. Parpiev, A., Sharakhmedova M., Ergashov M., Theoretical analysis of cotton movement in cleaning equipment. International Journal of Emerging Trends in Engineering Research. 2021y. April.
6. Parpiev, A., Sharakhmedova M., Saidbekova S., Improvement of working elements separating cotton from fine impurities, impurities. Scientific and technical journal "textile problems" №3, 2020 year, Page 9-14
7. Parpiyev A.P.,Usmonov X.S., Kuziyev B.N., Analiz udlineniya letuchek xlopka i poteri sili ssepleniya mejdu letuchkami pod deystviyem mexanicheskix vozdeystviy // Universum. May 2022 Vipusk: 5(98). M.: 19-23 ст. ISSN : 2311-5122. (02.00.00; №1).
8. Kuziyev B.N., Parpiyev A.P., Qarshiyev B.E., Turdiniyozova. H.G‘., Tozalash uskunasining yirik iflosliklardan ajratish bo‘limini takomillashtirish // Agro ilm Agrar-iqtisodiy ilmiy-amaliy jurnal. ISSN 2091-5616. 2 (86)-son. 2022, 92-93 b. (05.00.00; №3).-
9. Parpiev, A., Sharakhmedova M., Ergashov M., To improve the theory of determining and evaluating the factors of origin of defects in the work of cotton seedling and cleaning machine. Scientific and technical journal " Textile problems" №2, 2020 year, 16-26 pp.
10. Burnashev R.Z. Lugachev A.Y. Kinematika izmeneniya xlopka-sirsa na ochistitelyax krupnogo sora. Xlopkovaya promishlennost. Tashkent 1979 № 1 s.7-8
11. Tuychiyev T.O. “Paxtani tozalash tyexnologik jarayoniga tayyorlash va ta’minlagichni takomillashtirgan holda tozalash mashinasi samaradorligini oshirish”, Texnika falsafa fanlari doktori dissyertatsiyasi (PhD). Toshkent 2018. 120 bet.
12. Madumarov I.D. “Intensifikatsiya protsessa ochistki s optimizatsiyey teplo-vlajnogo sostoyaniya xlopka-sirsa. Diss.kand.texn.nauk. Tashkent, 1993 g. 160 s.
13. Scopus: Wu.Z., Yang.Y., Huang.G., Cotton functional genomics reveals global insight into genome evolution and fiber development (Journal of Genetics and Genomics 44(11), c 511-518, 2017).
14. Mardonov B.M. Ruzmetov R., Tuychiyev T.O Movement of the trash inside of fiber material when available elastic force of clutch Engineering, 2018, 10 pp. 579-587.
15. Tuychiyev T.O., Madumarov I.D., Mardonov B.M.., Investigation of the process of releast of dirt impurities in the zone of interaction of it with a netlike sur face/ // European Science Review. Vienna 2017 №9-10, P130-133.
16. Umarxodjayev D.X., Parpiyev A.P., Mashinada terilgan paxtani qayta ishlashni o‘ziga xos xususiyatlari. TTESI.Magistratura talabalarining ilmiy maqolalari to‘plami. Toshkent-2014. 46-51b.
17. Burnashev R.Z. “Deformatsiya sloya xlopka-sirsa lopos pitayushix valikov xlopkoochistitelnix mashin// Xlopkovaya promishlennost.1980 g.

18. Miraxmedov D.Y. Sovershenstvovaniye protsessa pitaniye xlopkoochistitelnix mashin. Diss.kand.texn.nauk.Tashkent. 1990, s. 23-27.
19. Parpiyev A.P., Mardonov B, Madumarov I.D.,Tuychiyev T.O., “Modelirovaniye dvijeniye massi xlopka-sirsa v zone pitateley. Problemi tekstil.2013 y. №1, s.80-86.
20. Tuychiyev T.O., Madumarov I.D., Parpiyev A.P., Shaxta to‘plagichning geometrik o‘lchamlarining uskuna tozalash samaradorligiga ta’siri// To‘qimachilik muammolari. №4, 12-16
21. Madumarov I.D. “Paxtani issiqlik-namlik holatini muqobillashtirish va bir tekis ta’minlash asosida tozalash jarayonining samaradorligini oshirish. Texn.fan.dokt. diss. Toshkent, TTESI. 2019 y.210 b.
22. Arude V.G., Manojkumar T.S., Shukla S.K. Axial flow pre-cleaner for on farm cleaning of cotton. Agricultural Mechanization in Asia, Africa and Latin Amerika. ISSN: 00845841 (2014). 105-115 б.
23. Kuziyev B.N., Parpiyev A.P., Qarshiyev B.E., Turdiniyozova H.G‘., Tozalash jarayonida ajratilgan chiqindi tuzilma tarkibining amaliy tajribalardagi taxlili // Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnal. Buxoro. 2022 y.

ПАХТАНИ МАЙДА ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАГИЧ

Эрдонов А.М. (Термез давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети),
Росулов Р.Х. (Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти)

Аннотация. В статье представлены результаты эксперимента по повышению эффективности работы оборудования на вибрирующей сетчатой поверхности хлопкоочистителя от мелких примесей. В результате эксперимента было определено влияние величины поверхности вибрирующей сетки на эффективность при его проведении на разных амплитудах и частотах.
Ключевые слова: очиститель, устройство, эксцентрик, наклон, примесь, сетчатая поверхность, вибрация, частота, амплитуда, эффективность.
Abstract. The article presents the results of an experiment to improve the efficiency of equipment operation on a vibrating mesh surface of a cotton gin from small impurities. As a result of the experiment, the influence of the vibrating mesh surface size on the efficiency was
Key words: cleaner, device, eccentric, slope, impurity, mesh surface, vibration, frequency, amplitude, efficiency.

Пахта хом ашёсининг таркибидаги ўлчами 8 мм дан кичик бўлган майда ифлос аралашмалар толага чуқур ёпишган бўлиб, уларни ажратиб олиш учун тозалаш жараёнида етарли даражада зарб бериб олинади. Йирик ифлосликлар эса асосан пахта хомашёсининг сиртига ёпишган бўлиб, уларни ажратиб олиш осонроқ кечади [1].



1-2-3-секциялар пахта хомашёси таркибидаги йирик ифлосликларни тозалаш учун мўлжалланган, 4- секция пахтани майда ифлосликдан тозалаш учун мўлжалланган

1-расм. УХК русумли пахта тозалаш агрегати схемаси

Пахта тозалаш корхоналарига УХК русумли пахта тозалаш агрегати кенг жорий этилган [1]. УХК русумли пахта тозалаш агрегати кетма-кет ўрнатилган тизимли бўлиб, пахта хомашёсини майда ва йирик ифлосликлардан тозалаш бўлимларини ўз ичига олади. Пахта хомашёсини йирик ифлосликлардан тозаловчи учта бўлимдан иборат УХК русумли пахта тозалаш агрегатининг схемаси 1-расмда келтирилган. Барча учта бўлимларда иккитадан аррали барабан 4 ва уларни остида колосникли панжаралар 5 ўрнатилган. Колосниклар 20 мм ташқи диаметрли айлана кўндаланг кесимга эга. Шуни таъкидлаш лозими, пахтанинг дастлабки ифлослигига боғлиқ равишда йирик ифлосликдан тозалаш бўлимлари сонини бошқариш мумкин.

Керакли ишчи юзаларни яратиш учун турли хилдаги тўрли юзалар мавжуд, тўрли юзаларни узоқ вақт ишлатиш учун асосан пўлатлардан, прутоклардан (колосниклардан) ва штамповкаланган пўлат листлардан тайёрланади. Тўрли юзаларнинг тешиклари шакллари турли хилда бўлиши мумкин.



2-расм. Тебранма ускунанинг тебраниши

Муаллиф томонидан тебранма тозалагичнинг янги конструкцияси ишлаб чиқиш йўли билан тозалаш жараёнида пахта хомашёсининг дастлабки сифат кўрсаткичларини сақлаб қолинган [2] (2-расм).



3-расм. Тажриба қурилмаси

Муаллиф томонидан пахтани майда ифлосликларни тозаловчи тебранма ускуна экспериментал модели яратилган. Тозаловчи ускуна тўрт колоннадан иборат, ифлосликлар учун бункер, пружинада мустаҳкамланган қия бурчак остидаги тўр, тасмали узатма, турткич ва электромотор (1.2-расм.) Электромотор ёрдамида эксцентрикли валда айланма ҳаракат юзага келади, ўз навбатида эксцентрикли механизм тўрли юзага тебранма ҳаракатини ҳосил қилади, тўрли юзани ҳаракатга келиши кривошип механизм орқали амалга оширилади. [2].

1-жадвал

Пахта хомашёсин тозалашда тўрли юзанинг тебраниш амплитудаси ва частотасининг тозалаш самарадорликка боғлиқлиги

№	Намлик, %	Ифлослик, %		
		Ғарамда	Тозалашгача	Тозалашдан сўнг
φ =4 Гц частота ва 0,004 м амплитуда тебранишда				
1	8,1	2,3	1,89	1,87
2	8,7	2, 4	1,92	1,88
3	8,7	2,5	1,96	1,88
φ =6 Гц частота ва 0,006 м амплитуда тебранишда				
1	8,1	2,3	1,89	1,79
2	2 8,7	2,4	1,92	1,76
3	8,7	2,5	1,96	1,75
φ=8 Гц частота ва 0,008 м амплитуда тебранишда				
1	8,1	2,3	1,89	1,89
2	8,7	2,4	1,92	1,90
3	8,7	2,5	1,96	1,95

Барабанлар турли кўринишда, қозиқли, планкали, тишли ва комбинациялашган бўлиши мумкин

Муаллиф томонидан пахтани майда ифлосликлардан тозалаш қурилмасини самарадорлигини ошириш мақсадида унинг конструкциясини такомиллаштирилган [3-14].

Турли тебранишлар берилган тўрли сиртлар устида олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, тўрли сирт устидаги пахтага ўзгарувчан яъни, икки ўзаро перпендикуляр тебранишлар йиғиндисидан ташкил топган гармоник тебранишлар, пахта тозалаш самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Пахтани майда ифлосликлардан тозалагичда тебранувчи тўрли юза қўллашда турли тебраниш амплитудасига эришиш учун турли эксцентрикликка (е=4мм, е=6мм, е=8мм) эга бўлган валдан фойдаланилди. Турли тебраниш частотасига эришиш учун частотали тебраниш ўзгартиргичдан фойдаланилди. Тажриба қурилмаси 3-расмда келтирилган.

Тажрибада тўрли юзасининг тебраниш частотаси ва амплитудасининг тозалагичнинг самардорлигига таъсири ўрганилди. Тажриба Наманган – 77 селекцион навли пахта хомашёси 1-саноат навида уч марта такрорланган ҳолда ўтказилди. Натижалар 1-жадвалда келтирилган .

Ўтказилган тажрибалар асосида олинган натижалар таҳлили ва жадвалдан кўринадики, пахта хомашёсининг ифлослиги ошган сайин тозалагичда тебранувчи тўрли юзани қўллашда тозалаш самарадаорлигининг ошишига эришиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. F.B.Omonov, R.F.Yunusov, V.V.Dyachkov “Paxtani dastlabki ishlash bo‘icha spravichnik”. “Voris-nashriyoti” Toshkent-2008 yil. 11-16 betlar.

2.Е.В.Тадаева. Разработка и внедрение новой очистительной установки, сохраняющей природные свойства хлопка-сырца. Автореферат дисс. д.ф.т.н. Наманган-2019 г. 46 с.

3. А.А.Джураев, Қ.Жуманиязов, А.Даминов, Х.Н.Лукманов Факторы и направления разработки общей стратегии развития инновационной деятельности текстильной и легкой промышленности Ташкент-2006.

4. А.А.Джураев, Н.Камолов, А.Исмаилов, С.Юнусов. О путях автоматизированного управления техническим процессам джинирования, Материалы РНПК «Развитие и совершенствование дизайна и технологии изделий из кожи» Ташкент 2008, 2-том, С.23-26.

5. А.Ю.Рашрагович, П.Н.Бородин, Анализ работы оборудования Бектемирского опытного хлопкозавода с целью его модернизации (аннотированный отчет), тема 9632, РНЦ "Хлопкопром", Ташкент, 1996 г.

6. А.М.Эрдонов, Р.Х.Росулов, М. Ю. Ходжаева, Х. С. Усманов Х. Н. Пардаев. Анализ воздействия внешних сил на частицы хлопка на вибрирующей поверхности Москва . 2022 , ISSN : 2311-5122.

7. А.М.Эрдонов Р.Х.Росулов .Очистка хлопка с помощью виброочистки Москва . Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2022. 7(100).

8. Росулов Р.Х., Эрдонов А.М. Анализ движения летучки хлопка-сырца по вибрирующей сетчатой поверхности. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, Т.27, №1).

9. Р.Х.Росулов. Влияние жесткости крепления колков очистителя хлопка-сырца на очистительный эффект. Журнал Известия ВУЗов. Технология текстильной промышленности. Россия, Иваново, 2017, №1 (367), 119-122стр.

10. R. Rosulov, A. Djuraev, H. Diyorov, U. Berdimurodov. Theoretical study of the influence of the length of the spike on the cleaning effect of the fine litter cleaner. E3S Web of Conferences 304, 03038 (2021).

11. A. Djuraev, R. Rosulov, J. Kholmirzaev, H. Diyorov, U. Berdimurodov. Development of effective construction and justification of parameters of the cleaner of fibrous material. E3S Web of Conferences 304, 03031 (2021).

12. R.X. Rosulov, A. Juraev, D.V.Norbaeva. Study of air flows in the Cross-Wine Zone RH. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Tom 8, №8, str. 33-39.

13. R.X. Rosulov, A. Juraev, D.V.Norbaeva. Influence of the grate bar radiation on the time of interaction with flying parts in the cleaner of the cotton from the large litter. Textile Journal of Uzbekistan. 2019, Tom 3. №1. Str.35-39.

14. Невзоров В.Н. и др. Технология сепарации зерна на вибрационной машине. Вестник КрасГАУ. 2018. №5. Стр.198-202.

NAZARIY MEXANIKA FANIDAN KO‘P VARIANTLI MASALA VA TOPSHIRIQLAR TUZISH TAJRIBASIDAN

Maxmudov Z.S., A’zamov Q. S. (NamMQI)

Annotatsiya: Mamlakatimizda oxirgi besh yil ichida oliy ta’lim muassasalari soni va ularga talabalar qabul qilish darajasi hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib keskin oshdi . Natijada ushbu talabalarni yetarli darajada o‘quv-uslubiy ta’minotini ta’minlash masalasi yuzaga keldi. Ushbu maqolada nazariy mexanika fanidan talabalar uchun ko‘p variantli masala va topshiriqlar tuzish tajribasi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: nazariy mexanika,tayanch reaksiya kuchi, kinematika, harakat qonuni, ilgarilanma harakat, tezlik, tezlanish, aylanma harakat, chiziqli tezlik, aylantirma tezlanish, markazga intilma tezlanish, harakatni uzatish, reyka, pog‘onali g‘ildirak.

Шундай қилиб, резервуар 10 тушаётган ҳавони тозалаш ва ташқи мухитга чиқаётган тиниқ нефт масулотларини буғларини ушлаб қолиш газ-хаво аралашмаси таркибидаги тиниқ нефт махсулотларини кондесациялаш, конденсатор 1 ички юза 9 ни ва жалюза 18ни

совитиш натижасида амалга оширилади. Бунда змеевик шаклида ясалган буғлатгич 4 конденсаторга уланган бўлади.



3-Расм. Қуёш иситкичи конденсатори [4].

Ташқи мухитдаги ёғингарчиликларда сақлаш учун конденсатор 1 ҳимоя қолпоғи 19 билан жихозланган.

Бу енгил учувчи суюқликларни буғланишдан йўқотишларини ва энергия сарфини камайтиради.

Бундан ташқари таклиф этилаётган конструкция техник сервисга ва таъмирлашга сарфланган харажатларни камайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзаев И.Г., Зулунов З.Т., Турдиева М.Ё. Зависимость количества конденсируемых легкоиспаряющихся жидкостей от параметров конденсатора. Россия. г.Самара журнал «Научный аспект» РИНЦ (ИФ 0,03), стр2168…2172, 2020 г

2.Мирзаев И., Зулунов З.Т., Тудиева М.Ё. Расчёт потерь от испарения горизонтально - цилиндрических резервуаров. Россия. Г.Самара журнал «Научный аспект» РИНЦ (ИФ 0,03), стр2173…2178, 2020 г

3. Абдуллаев Д.А., Зулунов З.Т., Йулдашев Р.Р. Конденсация потери от испарения светлых сортов нефтепродуктов при хранении в условиях сельскохозяйственных предприятиях. «Школа Науки» № 14 (25) Декабрь 2019. Стр 1-3.

4. Худойбердиев Т.С., Зулунов З.Т., и др. патент на изобретения №IAP 03301 Газоотводная система резервуара для хранения легкоиспаряющихся жидкостей, 28.02.2007 г.

5. З.Т.Зулунов, И.А.Ефимов Сокращение потерь нефтепродуктов на основе конденсационно-сорбционных дыхательных клапанов резервуаров. М., Механизация и автоматизация технологических процессов в агропромышленном комплексе. Часть IV стр. 106-107. 1989 г.

6. З.Т.Зулунов, И.А.Ефимов Пути экономии топливо энергетических ресурсов в АПК. М., Труды ВИМ, стр.106-115,1990г.

7. Борзенков В.А., Ефимов И.А. и др. «Основные требования к оценке технического состояния резервуаров и оборудования нефтескладов». М.: «ГОСНИТИ», с.16, 1987.

8. Бронштейн И.С., Абузова Ф.Ф. и др. «Борьба с потерями нефти и нефтепродуктов при их транспортировании и хранении». М.: «Недра», 1981.

10. Ефимов И.А., Пучин Е.А., Зулунов З.Т. «Снижение потерь от испарения светлых сортов нефтепродуктов при хранении на нефтескладах АПК». М.: Научно-технический информационный сборник, №2, с.24-27, 1990.

11. Зулунов З.Т. и др. А.С. № 1628434 «Газоотводная система резервуаров для хранения легкоиспаряющихся жидкостей». 15.10.1990.

12. Зулунов З.Т., Мирзаев И.Г., Турдиева М.Ё. “Устройства для улавливания паров светлых сортов нефтепродуктов” Россия г.Москва Научный журнал “Интер наука”№7 (183) Февраль 2021г Часть 1 стр 49...52.

13. ИГ Мирзаев, ЗТ Зулунов, М Яшаров, И Халимов. Особенности эксплуатации тракторных дизелей в природно-климатических условиях Республики Узбекистан. БНТУ.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ld814_kAAAAJ&citation_for_view=ld814_kAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

УДК 66.067.3

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИДА ДИЗЕЛЬ ЁНИЛҒИЛАРИНИ ИФЛОСЛАНИШ САБАБЛАРИ

Мирзаев И.Ғ., Зулунов З.Т., Халилов М.М.,
Яшаров М.И. – таянч докторант (АндҚХАИ)

Аннотация:Мақолада дизел двигателларида фойдаланиладиган дизел ёнилғиларини ифлосланиш сабаблари, ҳаводан чанг ва намлик нефть махсулотларига кирганда, уларнинг ишлаш хусусиятлари сезиларли даражада ёмонланиши, ёнилғи ўзининг ифлосланиш таркибига кўра ёнилғи сифатига салбий таъсир этувчи жуда кўп ташкил этувчилардан иборатлиги келтирилган.

Калит сўзлар: ифлосланиш, дизел ёнилғиси, трактор, иқлим, чанг, ҳаво, ёнилғи тизими, техник хизмат кўрсатиш, ёнилғи фильтри, ёнилғи баки.

Аннотация: В статье представлены причины загрязнения дизельного топлива, используемого в дизелях. При попадании пыли и влаги из воздуха в нефтепродукты существенно ухудшаются их эксплуатационные характеристики. Загрязнения включают в себя множество компонентов которые отрицательно влияют на качество топлива.

Ключевые слова: Загрязненность, дизельное топливо, трактор, климат, запылённость, воздух, топливная система, техническое обслуживание, топливный фильтр, топливный бак.

Annotation: The article presents the causes of pollution of diesel fuel used in diesel engines. When dust and moisture from the air enter petroleum products, their performance characteristics are significantly deteriorated. Contaminants include many components that negatively affect the quality of fuel.

Key words: Pollution, diesel fuel, tractor, climate, dust, air, fuel system, maintenance, fuel filter, fuel tank.

Ифлосланиш деганда ёнилғи тизимининг ва умуман двигателнинг ишончлилиги ва хизмат қилиш муддатига салбий таъсир кўрсатадиган дизел ёнилғиси таркибидаги қаттиқ, суюқ ва газсимон моддалар тушинилади.

Одатда табиатда ноорганик (металлар ва минераллар) ва органик келиб чиқиш зарраларидан ташкил топган турли табиий хусусиятларга эга бўлган ифлослантирувчи моддалар тўпламига дуч келамиз. Ўзиниг физик ҳолатига қараб, заррачалар қаттиқ, суюқ ва газсимон ҳолатда бўлади. Қаттиқ ифлослантирувчи моддаларга металл зарралари,

эскириш махсулотлари, емирилиш махсулотлари (кимёвий, электрокимёвий, биологик), атмосфера чанглари ва бошқалар киради.

Л.А.Емеляновни [1] малумотларига кўра, Дизел ёнилғиси таркибида майда тупроқ зарралари мавжуд бўлиб, улар микрочанг (ўлчами 1 мкм дан кам), майда чанг (1 дан 5 мкм гача), ўртача чанг (5 дан 10 мкм гача) ва (10 дан 50 микронгача) йирик чангга киради.

Дизел ёнилғисининг ифлосланиш жараёни нефт ишлаб чиқарилган заводдан то трактор, комбайн ёки бошқа қишлоқ хўжалиги машинасигача бўлган барча йўналиш бўйлаб содир бўлади. Ифлосланиш нефт маҳсулоти заводдаги темир йўл бакига қуйилган пайтдан бошлаб бошланади. Қувурларнинг коррозия маҳсулотлари, ҳаводан чанг ва намлик ҳамда бошқалар резервуарга киради. Нефть махсулотларининг ифлосланиши нефть базаларида сақлашда, ташишда, хўжаликлар, агрокластрларнинг нефт складларида, трактор бригадаларида сақлашда, шунингдек, трактор ва комбайнларга ёнилғи қуйишда аста-секин ортиб бормоқда. моддаларга

Ҳаводан чанг ва намлик нефть махсулотларига кирганда, уларнинг ишлаш хусусиятлари сезиларли даражада ёмонлашади. Дизел ёнилғисини ифлослантирувчи моддалар ноорганик ва органик келиб чиқадиган махсулотлар, сув микроорганизмлардан иборат. (1- жадвал) [2]. Ноорганик келиб чиқадиган ифлослантирувчи моддаларга қуйидагилар киради; атмосфера чанглари, металларнинг коррозия махсулотлари ва уларнинг қотишмалари. Қатор авторларни маълумотларига кўра [3...6], дизел ёнилғисига чанг шаклида кирувчи ифлослантирувчи моддаларни 60...80% алюминий ва кемнийнинг таркиби қисми бўлган кварс (CuO_2) ва металл оксидлари (ZhO, Fe_2, O_2 , CaO, Al_2, O_3) дан иборат. Л.А. Емелянов татқиқотида ҳам худди шундай хулосага келган [4]. Марказий Осиё минтақаси учун бу компонентларни таркиби тупроқ турига қараб 65...98% [7]ни ташкил қилган. Органик ва минерал аралашмалардан ташқари, дизел ёнилғисини таркибида сув мавжуд [2,8]. ГОСТ 305-82 талабларига муофиқ ёнилғида сув миддори рухсат этилмайди. Бироқ, ёнилғи қуйишдан кейин трактор харакатланганда, унинг ёнилғи бакидаги таркиби ўзгаради. Бу резервуардаги ёнилғи даражасининг ўзгариши билан боғлиқ, резервуар қопқоқдаги “нафас олиш клапани” орқали “нафас олади”. Бу ёнилғи идишидаги сув буғини ва нам ҳавони ўз ичига олган ифлослантирувчи зарраларнинг кириб боришига олиб келади, совутиш пайтида конденсат чиқаради. Ёнилғи таркибидаги сув миқдори массаси бўйича 0.0003...0001% оралиғида бўлади [9].

Сувнинг роли унинг ифлосланишининг кучайишига олиб келадиган оксидланиш ва коррозия жараёнларига таъсири билан чекланмайди. Сув ифлослантирувчи моддаларини қаттиқ заррачаларининг коагуляциясига ва агрегатнинг, шу жумладан қатронли моддалар ва ноорганик зарраларнинг шаклланишига ёрдам берадиган энг фаол моддалардан биридир.

Дизел ёнилғисини ифлосланиши

1. **Минерал ифлосланишлар**:
- Металлар;
- Металлар оксидлари;
- Нометал боғланишлар;

2. **Органик ифлосланишлар:**
- Адсорсиаланган сақич;
- Карбон кислота тузлари;
- Олтингургутли ва азотли бирикмалар;
- Углеводородлар кристаллари;

3. **Микробиологик ифлосланишлар:**
- Бектериялар;
- Қозиқоринлар;

- Пироген моддалар;

4. Бошқа ифлосланишлар:

- Сув;
- Ҳаво ва газлар;
- Нефт махсулотлари буғлари.

Нефт махсулотидаги эркин сув дизел ёнилғисининг ишлаш хусусиятига салбий таъсир кўрсатади.

Дизел ёнилғисининг эксплуатацион хоссаларига ёнилғининг таркибидаги эмулция холатидаги сув сальий таъсир кўрсатади. Бу ходиса сув ва ёнилғини катта контакт юзасида ҳосил бўладиган жараён билан боғликлигидан далолат. Сувнинг таъсирида дизел ёнилғисинин таркибида оксидланиш ва ифлосланиш эримаган чўкинди шаклида ҳосил бўлишга мойил бўлади.

Фойдаланиш вақтидаги ёнилғиларни ифлоснанишлари

1-жадвал

Ифлосланиш турлари	**Келиб чиқиш сабаблари**	**Юзага келиш шартлари**	**Ифлосланишни олдини олиш чоралари**
Атмосферали	Чанг билан алоқада бўлиш ва намланган ҳаво	Катта ва кичик нафас олиш клапанлари жойлашган туйнуклар орқали	Сақлаш, ташиш ва тозалаш васиталарини герметизациялаш ва ҳавони тозалаш
	Металлар коррозияси, каучик махсулотларини копламаларини йўқотиш	Қуйиш ва ташиш воситалари материаллари билан нефт махсулотларини боғланганда	Ҳимоя воситаларини нефт махсулотларига чидамлилиги
Ейилиш махсулотлари	Насосларнинг иш қимслари, ўчириш ва назорат ускуналарини эскириши	Нефт махсулотларини қайта хайдашда	Ейилишга чидамли материалларни қўллаш
Оксидлани махсулотлари	Нефт махсулотлари таркибига кирувчи углеводородларни оксидланиши	Узоқ вақт сақланганда айниқса кислород борлигида ва нефт махсулотлари харорати кўтарилиш шартларида	Сақлаш жойларини герметизациялаш ва иссиқлик изоляцияси
Паст хароратли	Углеводород кристалларини чўкиши	Нефт махсулотларини харорати пасайганда	Сақлаш ва ташиш воситаларида нефт махсулотларини қизитиш
Газ ҳосил бўлиши	Ҳаво пупакчалари ва нефт махсулотлари буғларини пайдо бўлиши	Ҳаво сўришда ва нефт махсулотлари буғлари пайдо бўлиши	Сўришни бартараф этиш ва нефт махсулоти хароратини пасайтириш

Ёнилғи таркибидаги микроорганизмлар сони муҳим ахамиятга эга. Масалан: 14 ой резервуарда сақланган ёнилғидаги товар остидаги сувда 62 млн. бактериялар колоннаси,

Сув ва ёнилғи чегарасидаги қатламда 196 млн., ёнилғи қатламида ва сув устида 530 млн. бактерия колонияси борлиги аниқланган [8]

Ёнилғи таркибидаги микроорганизмларни мавжудлиги ёнилғи аппаратуралари деталларини коррозияланиш тезлигини жадаллаштиради.

Микроорганизмларни хаёт фаолияти ва парчаланиш жараёнида ҳосил бўладиган кислотали мухит деталлар коррозиясини жадаллаштиришга олиб келади.

Ўтказилган адабиётлар шархи шуни кўрсатдики, дизел ёнилғисини ифлосланиши кўп компонентли тизим ҳисобланиб, келиб чиқиши неорганик ва органик моддалардан ҳамда сув ва микроорганизмлардан ташкил топган. Дизел ёнилғисидаги барча ифлосгарчиликлар у ёки бу даражада кўпгина агрегатларни ишлашига ёки бутун бир агрегатни ишлашига салбий таъсир кўрсатади .

Шундай қилиб, дизел ёнилғисини ифлосланиши ундан фойдаланиладиган барча этапларда содир бўлади. Ёнилғи ўзининг ифлосланиш таркибига кўра ёнилғи сифатига салбий таъсир этувчи жуда кўп ташкил этувчилардан тузилган. Бироқ, хар бир климатик регион учун, айниқса Ўрта Осиё шароити учун алохида характеристикага эга бўлган ифлосгарчиликларни кутиш мумкин .

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Емельянов Л.А. Фильтрация дизельного топлива. - М.-Л.: машгиз, 1962.-107 с.

2. Семернин А. Н. Повышение частоты дизельных топлив в тракторах, эксплуатируемых в условиях сельского хозяйства: Дис. … канд. техн. наук: 05.20.03. — М., 1983. — с.

3. Алексеев В. Н., Кувайцев И. Ф. Автотракторные неметаллические материалы. — М.: Транспорт, 1966. — 371с.

4. Каприлин Б. Н. К вопросу деформации прецизионных деталей топливных насосов дизелей в процессе износа под действием остаточных поверхностных напряжений: Сб. науч. тр. // ЦНИТА, 1963. —Вып.16. — С.47.

5. Организовать централизованное восстановление нагнетательных элементов топливных насосов распредительного типа на Новоалександровском ремонтом заводе Ставропольского края // Отчет ГГОСНИТИ № 760.20841. - М., 1979.-58 с.

6. Лебедев Б. Й., Ярков В. А. Повышение долговечности прецизионгых деталей дизельной топливной аппаратуры // Обзорная информ. НИИ Автосельхозмаш, 1965. С. 31–33.

7. Кадыров С. М. Долговечность автотракторных дизелей в условиях Средней Азии. — Ташкент: Укитувчи, 1982. — 263 с.

8.ИГ Мирзаев, ЗТ Зулунов, М Яшаров, И Халимов. Особенности эксплуатации тракторных дизелей в природно-климатических условиях Республики Узбекистан. БНТУ.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ld814kAAAAJ&citation_for_view=ld814_kAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

MUHANDISLIK SOHALARIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TA’LIM, FAN VA ISHLAB CHIQARISHNI INTEGRATSIYASINI TA’MILASHGA DUAL TA’LIMNING O‘RNI

Kodirov I. N. (QarMII)

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’limda muhandis kadrlarni tayyorlashda “korxona – kafedra” darajasida dual ta’limni tashkil etish masalalari muhokama qilinadi. Dual ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning tamoyillarini aniqlashtirish, dual ta’lim tizimi, unda ishtirok etuvchi barcha tomonlar – ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, talabalar, davlat va ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta’milashda dual ta’limning o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: muqobil energetika yo‘nalishi, dual ta’lim tizimi, muhandis-texnik kadrlar, samarali va moslashuvchan mexanizm, o‘quv dasturlari, ishlab chiqarish korxonalari, xususiy firmalar.

Annotatsiya. В статье рассматриваются вопросы организации дуального образования на уровне «предприятие-кафедра» в современном образовании в высших учебных заведениях. Уточнение принципов успешной реализации дуального образования, системы дуального образования, всех участвующих в ней сторон - производственных предприятий и организаций, обучающихся, государства и интеграции образования, науки и производства. обдумывается.

Ключевие слова: направление альтернативной энергетики, дуальная система образования, инженерно-технические кадры, эффективный и гибкий механизм, образовательные программы, производственные предприятия, частные фирмы.

Annotation. The article discusses the issues of organizing dual education at the "enterprise-department" level in modern education in higher education institutions. Clarification of the principles of successful implementation of dual education, the dual education system, all parties involved in it - production enterprises and organizations, students, the state and the integration of education, science and production is thought about.

Key words: alternative energy direction, dual education system, engineering and technical personnel, effective and flexible mechanism, educational programs, production enterprises, private firms.

Mamlakatimizda oliy ma’lumotli malakali muhandis-texnik kadrlarni tayyorlashda kasbiy tayyorgarlik muammosini hal qilishga imkon beruvchi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo‘nalishi bo‘yicha ham muhandis-texnik kadrlarni tayyorlashda milliy reja, maxsus dastur ishlab chiqish, mazkur soha uchun oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida dual ta’lim tizimini qo‘llagan holda kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangi tizim yaratish kabi dolzarb vazifalarning amaliyoti muhim ahamiyatga ega. Chunki muqobil energiya manbalaridan amalda foydalanish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va malakali kadrlarning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omili sifatida qaralmoqda[1].

Ma’lumki, professional ta’lim tizimida olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar mehnat bozorini raqobatbardosh malakali kadrlar bilan ta’minlash jarayonini yanada takomillashtirishni taqazo etadi. Professional ta’lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasi shundan iborat bo‘ladiki, bunda ta’limning xalqaro standart tasniflagichi bilan uyg‘unlashgan mutloqo yangi tizimi joriy qilindi. Shuningdek, hozirgi kunda ta’lim–tarbiya mazmuni, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini dual ta’lim tizimi asosida shakllantirish borasida tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda.Shuningdek, олий ўқув юртларининг малакали кадрлар тayyorlash тизими нафақат таълим тизими жараёнидаги сифат ўзгаришлари, балки унинг

ишлаб чиқариш соҳалари билан ўзаро адоқада эканлиги, шунингдек, кадрлар компетентлигини ривожланиши билан тавсифланади [2,3].

Dual ta'limni "kasbiy tayyorgarlik faoliyatda talabalarni kasbiy yo'nalishlaridagi individual bilim va ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlovchi pedagogik faoliyat deb tassavvur qilish mumkin" [4]. Bunday holda, asosiy rolni bevosita amaliyot o'ynaydi. L.V. Sidakova dual ta'lim tizimi "ta'lim muassasasining o'qish faoliyatini ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan kombinatsiyasini nazarda tutuvchi ta'lim tizim" ekanligini e'tirof etadi [5]. Mutaxassislar tayyorlashning dual ta'lim tizimini "oliy kasbiy ta'limning ish beruvchi ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi aniq muvofiqlashtirilgan, muayyan kasb-hunar bo'yicha talab qilinadigan malaka darajasiga ega bo'ladigan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta'lim tizimi" deb qarash mumkin [6,7].

Shuningdek, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilib ko'rilganda dual ta'lim tizimini nazariy mashg'ulotlar ta'lim muassasalarida, amaliyot- esa ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ta'lim modeli sifatida tassavvur qilish mumkin [8].

Dual ta'lim – ta'lim muassasasida nazariy tayyorgarlik (o'quv vaqtining 30%-40 foizi) va ishlab chiqarish korxonasida amaliy mashg'ulotlar (o'quv vaqtining 60-70 foizi)ni birlashtirgan kadrlar tayyorlash shaklidir.

Dual ta'lim tizimining asosiy tamoyili - kadrlar tayyorlash sifati uchun ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarning teng javobgarliligidadir[9-11].

Dual ta'lim tizimi unda ishtirok etuvchi barcha tomonlar – ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, talabalar, davlat manfaatlariga javob beradi:

- ishlab chiqarish korxonasi uchun - bu o'zi uchun kadrlar tayyorlash, ishchilarni qidirish va tanlash, ularni qayta tayyorlash va moslashtirish uchun xarajatlarni kamaytirish imkoniyatidir;
- talabalar uchun - bu bitiruvchilarning haqiqiy ishlab chiqarish korxonalarining sharoitlariga moslashishi va o'qishni tugatgandan so'ng o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish korxonalariga muvaffaqiyatli ishga joylashish ehtimolining yuqori bo'lganligidadir;
- butun iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasini samarali hal etayotgan davlat ham bundan naf ko'radi.

Dual ta'limda universitet va korxona talaba uchun maxsus o'quv dasturini ishlab chiqadi, bu mutaxassislik bo'yicha ish dasturi bilan organik ravishda birlashtiriladi.

Bugungi kunda muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlashda ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta'milashga dual ta'limning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda, shuninhdek, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Muqobil energiya manbalari" kafedrasi bilan Qashqadaryo viloti Qarshi shahrida joylashgan **"SUN-HIGHTECH" MCHJ** Qashqadaryo filiali o'rtasida "korxona – kafedra" darajasida dual ta'limni tashkil etishni yo'lga qo'yish rejasi ustida ish olib borilmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, **"SUN-HIGHTECH" MCHJ** mamlakatimizda quyosh fotoelektr stansiyalarini o'rnatish va ekspluatatsiyasi sohasida eng yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi.

Dual ta'lim tizimi - bu ish beruvchi korxonalar va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligiga asoslangan tarmoq shakli, ya'ni Qashqadaryo viloti Qarshi shahrida joylashgan **"SUN-HIGHTECH" MCHJ** Qashqadaryo filialining muvofiqlashtirilgan o'zaro hamkorligiga asoslangan tarmoq shakli ekanligi nazarda tutiladi.

Dual ta'lim nazariy va amaliy mashg'ulotlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi, bunda talaba oliy ta'lim muassasi hisoblangan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Muqobil energiya manbalari" kafedrasida kasbiy faoliyat asoslarini (nazariy qism) o'zlashtirishi kerak va mashg'ulotning amaliy qismini esa bevosita ish joyi hisoblanadigan Qarshi shahrida joylashgan **"SUN-HIGHTECH" MCHJ** Qashqadaryo filialida amalga oshiradi.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi professor-o‘qituvchilari muayyan ish joylari hisoblangan Qarshi shahrida joylashgan **“SUN-HIGHTECH” MCHJ** Qashqadaryo filialida amalga oshiriladigan dual ta’lim dasturlari uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi:

1) o‘quv, ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyot;

2) amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari;

3) auditoriyadan tashqari ishlar (ekskursiyalar, davra suhbatlari, mahorat darslari).

Hozirgi vaqtda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 60711000 -Muqobil energiya manbalari (Quyosh va shamol energetikasi) mutaxassisligi bo‘yicha talabalar uchun dual ta’lim elementlarini joriy etish maqsadida ishlar olib borilmoqda.

Maqsad: Bitiruvchilarning zamonaviy iqtisodiyotda talab etilayotgan malaka sifatiga ega raqobatbardoshligini oshirish uchun hamda bitiruvchilar soni bo‘yicha ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish.

Vazifalar quyidagilardan iborat:

1) ish beruvchilar tomonidan kutilayotgan malaka darajasi yuqori bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlash;

2) mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish;

3) oliy ta’lim muassasalari ta’limi tizimiga investitsiyalarni jalb etish.

Ishtirokchilar: Qarshi shahrida joylashgan **“SUN-HIGHTECH” MCHJ** Qashqadaryo filiali, institut talabalari, professor- o‘qituvchilar.

Hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida” gi 163-son qarori bilan professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom.

Qashqadaryo viloti Qarshi shahrida joylashgan **“SUN-HIGHTECH” MCHJ** Qashqadaryo filiali bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasi o‘rtasida dual ta’lim tizimini joriy qilishni yo‘lga qo‘yish rejasi bo‘yicha tayyorgarlikni amalga oshirish ikki bosqichdan iboat bo‘ladi:

Birinchi bosqich - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Muqobil energiya manbalari” kafedrasida dual ta’limga tayyorgarlikning dual ta’lim tizimi bo‘yicha quyidagi meyoriy, o‘quv va uslubiy hujjatlar ishlab chiqiladi:

– Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va Qarshi shahrida joylashgan **“SUN-HIGHTECH” MCHJ** Qashqadaryo filiali bilan talabalarga dual ta’lim berish to‘g‘risidagi shartnomalar;

– ta’lim muassasasida dual ta’limning ayrim turlarini o‘tkazish qo‘shimcha ravishda belgilandi;

– 60711000 -Muqobil energiya manbalari (Quyosh va shamol energetikasi) mutaxassisligi bo‘yicha dual ta’lim dasturlari ishlab chiqiladi, dasturlarni **“SUN-HIGHTECH” MCHJ** Qashqadaryo filiali bilan muvofiqlashtirilgan holda tayyorlananadi;

– mutaxassislik bo‘yicha **“SUN-HIGHTECH” MCHJ** Qashqadaryo filiali bilan kelishilgan holda o‘quv rejasi ishlab chiqiladi;

– dual ta’lim rejalari va jadvallari tayanch ta’lim muassasasi bilan kelishiladi;

– dual ta’limni joriy etish doirasida ta’lim jarayonini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tuziladi;

– “Ishlab chiqarish korxonalarida dual ta’limni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” gi Nizom tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

– dual ta’lim bo‘yicha shartnomalari ishlab chiqiladi va talabalar bilan shartnomalar tuzishga tayyorgarlik ko‘riladi.

Ikkinchi bosqich – dual ta’lim dasturlarini amalga oshirish bosqichida tasdiqlangan jadvallar asosida 3-4 kurs talabalarini dual o‘qitish amalga oshirilib, amaliy

mashg'ulotlarto'g'ridan-to'g'ri va ish beruvchi korxona yoki tashkilotlarda turli xilda amaliyot o'tash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'taydilar, shuning uchun ish beruvchilar ushbu bosqichda oliy ta'lim muassasalari talabalarining nazariy ta'lim jarayonida oladigan bilim va ko'nikmalari haqida fikrlarini shakllantiradilar. Shu bilan birga, amaliyot jarayonida talabalar korxona yoki tashkilotning ish tartibi, korxona sharoitlari va iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maxsus fanlar professor-o'qituvchilari ham ijtimoiy sheriklar korxonalarida amaliyot o'tash imkoniyatiga ega bo'ladilar, shuningdek, mahorat darslarida, seminarlarda, turli xil konkurslarda qatnashib, buning natijasida esa o'zlarining malakaviy darajalarini oshirishlari va yangi zamonaviy asbob-uskunalarning texnologik imkoniyatlarini bilishlari hamda ularni egallashlari mumkin bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, dual ta'lim tizimiga o'tish jarayoni bo'yicha quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- oliy ta'lim muassasalari ta'limning davlat ta'lim standarti talablarini amalga oshirishni ta'minlaydigan nazariy tayyorgarlik darajasini saqlab qolgan holda, o'quv jarayonining amaliy tarkibiy qismini sezilarli darajada mustahkamlaydi;

- ishlab chiqarish korxonalari faoliyatga to'liq tayyor bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash muammosini hal qilishga yordam beradi.Bitiruvchi talabalarning kasbiy harakatchanligi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi;

- oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari faoliyatlari o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi. Dual ta'lim tizimi tufayli ishlab chiqarishning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun haqiqiy o'qitish samaradorligiga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori.

2. Xadjaboev A., Xusanov I. "Kasbiy ta'lim metodologiyasi" – T., 2007 yil.

3. Mullaboyeva N. Kasbiy pedagogika. Namangan, 2019, 364 bet.

4. Kozlova S.A., Kulikova T.A. Doshkolnaya pedagogika. Moskva, 2000.

5. Sidakova L.V. Sushnost i osnovniye priznaki dualnoy modeli obucheniya. Obrazovaniye i vospitaniye. 2016; 2: 62 – 64.

6. Rastegayeva D.A., Filimonyuk L.A. osnovi realizatsii sistemi dualnogo obucheniya v professionalnoy podgotovke studentov orga-

nizatsiy visshego obrazovaniya. Mir nauki, kulturi, obrazovaniya. 2017; 6 (67): 110 – 112.

7. Tereshenkova YE.V. Dualnaya sistema obrazovaniya kak osnova podgotovki spetsialistov. Nauchno-metodicheskiy elektronniy jurnal «Konsept».2014; 4:41-45.

8. Kodirov I.N.Muhandis-texnik kadrlar tayyorlashda dual ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari. "TAFAKKUR ZIYOSI" ilmiy-uslubiy jurnali. Jizzax. 2024/2-son.10-14 b.

9. Kodirov I.N. Texnika oliy ta'lim muassasalarida malakali muhandis kadrlar tayyorlashda dual ta'limning afzalliklari. "ILM SARCHASHMALARI" ilmiy-nazariy, metodik jurnal. Urganch davlat universiteti. Xorazm. 5/1-son (may 2024).58-62 b.

10. Kodirov I.N.Dual ta'limni "korxona-kafedra" darajasida tashkil etish orqali oliy ta'limda muhandis energetiklarni tayyorlash. Замонавий таълим / Современное образование. htt ps://doi .org /10.34920/so /vol _2024_issu e_6_2. 2024, 6 (139).9-16 б.

KASBIY KOMPETENSIYALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR, TALABALARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI SHAKLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSI

Egamberdiyev A.O. (NamMQI)

Annotatsiya: Ushbu maqolada quruvchi-muhandis talabalarining kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablari hamda maxsus kompetensiyalarini shaklantirishning pedagogik asoslari xususida to'htalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: motivatsion, kognitiv, texnologik, komponent, kompetensiya.

Annotation: In this article, the requirements for the professional competencies of construction-engineer students and the pedagogical basis of forming their special competencies are discussed.

Key words: motivational, cognitive, technological, component, competence.

Mamlakatimizda qurilish sohasidagi davlat siyosati mamlakat, mintaqalar va tarmoqlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash maqsadida innovatsiyalar, investitsiyalar, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish orqali tarmoq salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu dasturlarning muvaffaqiyatli bajarilishi qurilish sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Haqiqatdan ham qurilish tarmog'i ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotni kompleks yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qurilishning milliy xo'jalik miqyosidagi o'rni va ahamiyati, aholining katta qismini ish bilan ta'minlashi, fan-texnika va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuviga imkon yaratishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu sohani rivojlantirishga hissa qo'shuvchi malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotimizda malaka talablarida belgilangan kasbiy kompetensiyalar mazmunini maxsus kompetensiyalar tarkibi bo'yicha tizimlashtirishga harakat qildik.

1-jadvil.

Bo'lajak quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetnsiyalariga qo'yiladigan talablar

Maxsus kompetentlik	**Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**
Psixologik kompetent	tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish; sog'lom turmush tarziga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalarga ega bo'lish.
Metodik kompetentlik	bino va inshootlar, transport binolari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob'yektlari, yo'l bo'yi infratuzilmalarini va suv xo'jaligi ob'yektlarini loyihalashtirish va qurish sohasiga tegishli yangi texnik vositalar, tizimlar texnologiyalar, jarayonlar, qurilmalar, konstruksiyalar, yangi turdagi qurilish materiallari va konstruksiyalarini, muhandislik kommunikatsiya tizimlarini amaliyotga tatbiq etish tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

Informatsion kompetentlik	dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish; axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
Kreativ kompetentlik	yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish; turli qurilish ob’yektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy texnologik xaritalarini tuzish va qo‘llash;
Innovatsion kompetentlik	tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘zkasb faoliyatida foydalana bilish; bino va inshootlar, transport binolari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati ob’yektlari, yo‘l bo‘yi infratuzilmalarini va suv xo‘jaligi ob’yektlarini loyihalashtirish va qurish, ta‘mirlash hamda rekonstruksiya qilish bilan bog‘liq loyihalarini ishlab chiqish o‘quviga ega bo‘lish;
Kommunikativ kompetentlik	insonning boshqa insongao jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish; tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

Har qanday pedagogik tizimning funksional komponentlari o‘qituvchi va talabalar faoliyati jarayonida asosiy tarkibiy qismlarni bog‘laydi. Biz talabalarning maxsus kompetensiyalarini shaklantirishning pedagogik asosi sifatida quyidagi o‘zaro ta’sir qiluvchi funksional komponentlarni ajratib oldik. Bularga: motivatsion, kognitiv, texnologik komponentlar kiradi. Bu komponentlarning har birining mazmuniga 2- jadvalda ta’riflar keltirib o‘tilgan.

Bo‘lajak quruvchi-muhandislar, quyidagi qo‘yilgan talablarni bajarsalar ularda kasbiy va maxsus kompetensiyalar shakillanishiga olib keladi, uning uchun talabalardan qattiq mexnat talab etilada natijada hozirgi kun talabiga javob beradigan darajadagi mutahassis bo‘lib yetishadi.

2 –jadval

Talabalarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirish komponentlari

№	Komponentlar	Komponentlar mazmuni
11	**motivatsion**	Motivatsion-komponent talabalarning haqiqiy xulq-atvorida xatti-harakatlarning axloqiy motivlarining mavjudligi bo‘lib, u mas’uliyat, tashabbuskorlik, mustaqillikning namoyon bo‘lishi; talabaning tengdoshlari va kattalarga bo‘lgan munosabatining tabiati; boshqalar bilan ziddiyatli vaziyatlarda faoliyatning yo‘nalishi va mazmunini belgilab beradi.
22	**kognitiv**	Kognitiv komponent – ilmiy ma’lumotlarni o‘rganish va tadqiqotchilik vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish hamda uning natijalarini kasbiy faoliyatiga tadbiq etish.
33	**texnologik**	Texnologik komponent – qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikma va malakalar yig‘indisi sifatida izohlanadi. Shu bilan birga tadqiqotchilik kompetentligi fikrlash jarayonlari va

		tadqiqotchilik faolligida, muammolarni ko‘ra bilish va ajrata olish, vazifalarni qo‘ya olish, muammo yechimiga qaratilgan farazlarni shakllantirish va yechimlarini asoslay olishi, empirik ta'lim metodlarini qo‘llay olishida o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беспалько В.П. О возможностях системного подхода в педагогике. // Сов.педагогика.1990, №7, с. 59-60.

2. Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования. Учебное пособие. Ленинград. 1980.-172с.

3. Кустов Ю.А. Единство и преемственность педагогических действий в высшей школе. Изд. Самарский университет. 1993.С.31-38.

4. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. МГУ.1984. с. 31, 43, 57

5. Kuchkarbayev R.U. Talabalarning kasbiy kompetentliginirivojlantirish metodtkasinidasturiy vositalardan foydalanib takomillashtirish (Qurilish fizikasi fani misolida) // p.f.f.d. (PhD) diss. Avtoreferati. Chirchiq. 2023. 52 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884.

8. A.O.Egamberdiyev. Bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion texnologiyalar asosida amaliyot darslarini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar. NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_7-son. 689-691-b.

9. A.O.Egamberdiyev. M.L. Boltayeva., Ixtisoslik fanlarni o‘qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida takomillashtirish modeli. NamDU ilmiy axborotnomasi–2024-yil_1-son. 565-569-b.

10. A.O.Egamberdiyev. Ixtisoslik fanlarni innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda dasturiy ta'lim vositalari asosida o‘qitish metodikasi. NamMQI Qurilish va ta'lim ilmiy jurnali. 2023-yil №5-6-son. 133-139-b.

11. A.O.Egamberdiyev. Advanced foreign experiences in organizing practical classes for future specialists based on innovative technologies. rld bulletin of public health (wbph) available online at: https://www.scholarexpress.net volume-23, june 2023. issn: 2749-3644 June 2023. 143-144-b.

12. A.O.Egamberdiyev. Loyihalash metodi yordamida talabalarda maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish. "Texnika va texnologiyalar rivojining mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami-2. Namangan shahar. 18-oktabr 2023- yil. 380-383-b.

13. A.O.Egamberdiyev. Dasturiy-maqsadli yondashuv tamoyilidan foydalanib talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish. «Qurilishda innovatsiyalar, binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligi» Xalqaro miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferentsiya materiallari to‘plami. Namangan 14 dekabr, 2023 yil. 1210-1212-b.

14. A.O.Egamberdiyev. Bino va inshootlar qurilishi ta'lim yo‘nalishi talabalarining maxsus kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslik fanlarni o‘qitishning pedagogik asoslari. «Qurilishda innovatsiyalar, binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligi» Xalqaro miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferentsiya materiallari to‘plami Namangan 14 dekabr, 2023 yil. 1223-1225-b.

15. A.O.Egamberdiyev. Maxsus kompetensiyalarini talabalarda shaklantirish. Namangan muhandislik-qurilish instituti. "fan va innovatsiya – 2023: rivojlanish va ustuvor yo‘nalishlari" respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2-qism. 20-22 Oktabr, 2023-yil.

16. A.O.Egamberdiyev. Talabalarining maxsus kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan bog‘liqliklar. «Zamonaviy arxitektura, binolar va inshootlarning mustahkamligi, ishonchliligi va seysmik xavfsizlik muammolari» Xorijiy olimlar ishtirokidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya. materiallari to‘plami. Namangan 9 iyun, 2023 yil. 441-444-b.

17. A.O.Egamberdiyev. Ixtisoslik fanlarni o‘qitishda dasturiy vositalardan foydalanish shart sharoitlari. «Zamonaviy arxitektura, binolar va inshootlarning mustahkamligi, ishonchliligi va seysmik xavfsizlik muammolari» Xorijiy olimlar ishtirokidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya. materiallari to‘plami. Namangan 9 iyun, 2023 yil. 444-447-b.

18. A.O.Egamberdiyev. N.R.Xodjiyev. Ijtimoiy ob’yektlari tom yopmasida qo‘llanadigan issiq saqlovchi qatlamlarni kamchiliklari taxlili. «Qurilishda innovatsiyalar, binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligi» Xalqaro miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferentsiya materiallari to‘plami. Namangan 14 dekabr, 2023 yil. 1058-1061-b.

ZAMONAVIY OLIY TA'LIM TIZIMIDA MUHANDISLIK TA'LIMINING INNOVATSION TUZILISHI

Buzrukov Z.S., Abduraxmanov A., Turg‘unov M. (NamMQI)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim tizimini innovatsion loyihalar asosida rivojlantirishning perspektiv usullari xaqida so‘z boradi. Bunda asosan, dunyo miqyosida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim bo‘lgan va boshqa rivojlangan mamlakatlarda ushbu soxada erishilayotgan natijalar muxokama qilingan va tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion tuzilma, ta’lim tizimi, muhandislik ta'limi, ta'limning jahon darajasi, innovatsion ta'lim.

Аннотация: В статье говорится о перспективных методах развития современной системы образования в Узбекистане на основе инновационных проектов.В основном рассматриваются результаты, достигнутые в этой области в других развитых странах, которые имеют важное значение в подготовке конкурентоспособных на мировом рынке специалистов и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: Инновационная структура, система образования, инженерное образование, мировой уровень образования, инновационное образование.

Abstract: The article talks about the perspective methods of developing the modern education system in Uzbekistan on the basis of innovative projects. It mainly discusses the results achieved in this field in other developed countries, which are important in the preparation of globally competitive specialists, and the relevant conclusions are drawn up.

Key words: Innovative structure, educational system, engineering education, world level of education, innovative education.

O‘nlab yillar davomida O‘zbekistonda va butun dunyoda oliy ta'lim sifati va uni yaxshilash va qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilinmoqda. Bu muammo shu qadar dolzarbki, davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik rivojlanishi oliy o‘quv yurtlari (universitetlar) bitiruvchilarini tayyorlash darajasiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston ta'limining zamonaviy tizimini hisobga olgan holda, yagona o‘ziga xos xususiyatni ta'kidlash mumkin,bu ham bo‘lsa ta'lim tizimi doimiy islohotlar bosqichida ega ekanligidir. Hamma narsa doimo o‘zgarib turadi: buyruqlar, qonunlar, qoidalar va tuzilmalar. Qolaversa, islohot qariyb 20 yildan beri davom etmoqda, ammo mutaxassislar tayyorlashning kerakli darajasiga erishishda hali ham o‘ziga xos muammolar mavjud.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy oliy ta'lim tizimining maqsadi belgilangan - jahon darajasidagi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Biroq, bu kontseptsiya ham juda ko‘p tushunarsiz narsalarni yashiradi. Ushbu hollarda har bir inson o‘zining shaxsiy dunyoqarashi, tajribasi va tasavvurlariga asoslanib, masalaning mohiyatini o‘ziga xos tarzda tushunadi.

Bir qarashda, "jahon miqyosidagi ta'lim" bunday ma'lumotga ega bo‘lgan mutaxassis xalqaro kompaniyalarga osongina ishga kirishi va o‘z kar’erasida tezda qandaydir muvaffaqiyatlarga erishishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, O‘zbekistondagi oddiy mutaxassislar chet elga chiqib, tegishli tashkilotlarda topadilar va u erda muvaffaqiyatli ishlaydilar.Bu shuni anglatadiki, O‘zbekistondagi mavjud asosiy muhandislik ta'limi odatda xalqaro darajaga mos keladigandek. Biroq, universitet bitiruvchilari o‘zlarining bilim va qobiliyatlarini chet elda va qolaversa O‘zbekistonda muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun asosiy tayyorgarlik etarli emas.

O‘zbekiston ta'lim tizimi oldida - o‘quv jarayonini bitiruvchisi o‘zini kasbiy sohada muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan tarzda tashkil etishdek murakkab vazifa turibdi. Bu shuni anglatadiki, "ta'limning jahon darajasi" ni tashkil etadigan bunday bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi haqida aniq tasavvur hosil qilish kerak.

So‘nggi yillarda, asta-sekinlik bilan ta'lim darajasi haqida fikr paydo bo‘la boshladi. Jurnal va gazetalarda innovatsion ta’lim haqidagi sarlavhalar, bunday ta’lim zarurligi haqidagi maqolalar to‘la. Lekin bu nima? Xususan, "innovatsion ta'lim" nima? Va yana, ushbu savolga javob topishning iloji yo‘q.

Ushbu maqola innovatsion ta'limning mohiyatini, O‘zbekiston oliy ta'lim muassasalarida bunday mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarini oydinlashtirishga yordam beradi, shuningdek, innovatsion ta'limni tashkil etish va ta'minlash uchun zarur bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga yondashuvlarni o‘zgartirish bo‘yicha aniq qadamlarni taklif qiladi.

Umumiy holatda birinchidan, tushunchalarni aniqlab olaylik va "innovatsiya", "innovatsion faoliyat" va "innovatsion ta'lim" nima ekanligini aniqlaymiz. Ushbu masala bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilib, turli xil talqinlarni topish mumkin. Bundan tashqari, nazariyotchilar va amaliyotchilarning ta'riflari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, O‘zbeksiton qonunchiligida ko‘rib chiqilgan kontseptsiya asos sifatida tanlangan.

[1,2] ga ko‘ra innovatsiya – bu bozorga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko‘rinishida mujassamlangan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi, ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv deb ta’riflangan.

Ya'ni, innovatsiya har doim yangi ko‘rinish va yangi yondashuv bo‘lib, bu nafaqat kosmik texnologiyalarga, balki oddiy odamlarning kundalik hayotiga ham kiritiladigan ilmiy yutuqlardir. Biroq, "innovatsiya" ning ushbu ta'rifi "innovatsion faoliyat" tushunchasiga asoslanadi.

[3] ga ko‘ra innovatsion faoliyat to‘plangan bilimlar, texnologiyalar va jihozlarni tijoratlashtirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyati majmuasidir. Innovatsion faoliyat natijasi yangi yoki qo‘shimcha tovarlar (xizmatlar yoki tovarlar) va yangi sifatlarga ega bo‘lgan xizmatlardir. Shu o‘rinda “Oliy ta’lim tizimida qanday yangilik bo‘lishi mumkin?” degan savol tug‘iladi. Javob yuqoridagi tushunchalar va ta'riflar asosida o‘zini ko‘rsatadi.

Oliy ta'limdagi innovatsiyalar - bu mustaqil tadqiqot va innovatsiyalarga qodir bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlaydigan yangi ta'lim texnologiyasidir. Boshqacha qilib aytganda, bu “innovatsiya innovatsiyalar uchun” shiori ostida amalga oshiriladi.

Innovatsion ta'lim masalasi bugungi kunda juda dolzarbdir, chunki bu xaqda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 12 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “**Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”** deb ta’kidlab, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida oldimizda turgan muhim vazifalar xaqida fikr bildirganlar.

O‘z vaqtida fransuz olimi Lui Paster juda to‘g‘ri ta’kidlagan edi: “Ilm Vatanning eng yuksak timsoli bo‘lishi kerak, chunki barcha xalqlar ichida tafakkur va aqliy faoliyat sohasida hamisha birinchi o‘rinda turadi”. Ajoyib so‘zlar. Mamlakatimizda doimo taraqqiyotga ochiq, yangi narsalarni yaratishga qodir iste’dodli insonlar ko‘p bo‘lgan. Aynan ularga innovatsion dunyo tayanadi va bunday mutaxassislar o‘z mamlakatida ishlashdan manfaatdor bo‘lishi uchun hamma narsani qilish kerak.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda oliy ta'limning eng muhim vazifasi - ular ishlashi kerak bo‘lgan har qanday kompaniya va korxonaning yutuqlarini ta'minlashga qodir bo‘lgan diplomli mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Boshqa aytganda, zamonaviy dunyoda innovatsion faoliyat bilan faol ishtirok etadigan kompaniyagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Albatta, bu ish maxsus bilim va ko‘nikmalar to‘plamiga, shuningdek, ma'lum shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'limning innovatsion tarkibiy tuzilmasini muhokama qilganda, birinchi navbatda, yirik va samarali faoliyat olib borayotgan korxonalar tomonidan qo‘yilgan talablarga ega bo‘lish uchun mavjud mutaxassisliklar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar ro‘yxatini aniqlab olishimiz zarur. Shu bilan birga, barcha yetakchi xalqaro darajadagi korxonalar faol innovatsion faoliyat yuritayotganini yodda tutishimiz ham zarur.

Natijada, biz quyidagi ro‘yxatga ega bo‘lamiz: birinchidan, universitet bitiruvchisi o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lishi kerak; ikkinchidan, iqtisod va huquq fanlaridan zarur bilimlar to‘plamiga ega bo‘lishi kerak; uchinchidan, chet tilini bilishi zarur; to‘rtinchidan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish tamoyillarini bilishi; beshinchidan, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirishning asosiy tamoyillarini bilishi lozim; oltinchidan, nostandart qarorlar qabul qilish yoki nostandart muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

Bitiruvchining tashabbuskorlik, mas'uliyat va boshqa shaxsiy fazilatlari ushbu ro‘yxatga kiritilmagan. Keling, yuqoridagi bilim va ko‘nikmalar ro‘yxatini biroz tushunib olaylik.

So‘nggi paytlarda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan mutaxassislar universitet bitiruvchilarida nafaqat ma'lum bilim va ko‘nikmalarni, balki yangi raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishda mutaxassisga o‘zini haqiqiy biznesini samarali amalga oshirishga imkon beradigan maxsus " kompetentsiya" ni rivojlantirish zarurligi haqida gapirmoqdalar [6]. Va bu kompetentsiyalar yuqoridagi ro‘yxatda batafsil tavsiflangan.

Bugungi kunda jamiyatda katta miqdordagi bilim va ma'lumotlar jamlandi, ammo bu bilimlarning aksariyati insoniyatning kundalik hayotida hech qanday tarzda o‘zini namoyon qila olmaydi. Shu bois, o‘z intellektual boyligini mohirona boshqarish orqali yangi raqobatbardosh mahsulotlarni va yangi bozorlarni yaratish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda [4].

Texnika va texnologiyadagi barcha zamonaviy innovatsiyalar fanlararo asosda bilim va ko‘nikmalarning bir faoliyat sohasidan boshqasiga mohirona uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Shu bilan birga, muhandisning asosiy vazifasi bilimlardan amaliy maqsadlarda "kutilmagan tarzda" foydalanish, ya'ni nostandart muammolarni hal qilish qobiliyatiga aylanadi. Ammo buni qanday o‘rganish kerak? Talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun Ufa davlat aviatsiya texnika universitetida 20 yildan beri muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan mutaxassislar tayyorlashning funktsional-maqsadli texnologiyasi (FMT) deb nomlangan metodologiya ishlab chiqilgan [5].

Ushbu metodikaning mohiyati shundan iboratki, o‘quv rejasiga birinchi semestrdan boshlab individual tadqiqot ishlari kiritilib, butun o‘qish davri davom etadi va maslahatchi bilan muntazam ish olib boriladi. Individual tadqiqot ishining mazmuni (mavzusi) ilmiy rahbar birinchi semestrdanoq talaba tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi. Talabalarga bir qator nostandart topshiriqlar taklif etiladi, ularning mavzulari kafedraning ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida, shuningdek, istiqbolli texnologiya yaratish bo‘yicha eksperimental loyihalash ishlari

amalga oshiriladi. Belgilangan vazifani hal qilishda talabalar individual tadqiqot ishlari mavzusi bo‘yicha maxsus adabiyotlar, maqolalar, monografiya va dissertatsiyalarni o‘rganadilar. Ilmiy-tadqiqot muammosini hal qilish natijasi to‘rtinchi kurs oxirida yakuniy malaka ishi (bakalavrlar uchun) yoki ilmiy-tadqiqot amaliyoti bo‘yicha hisobot (mutaxassislik bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun) shaklida rasmiylashtiriladi va himoya qilinadi.

Xulosalar

1.Mamlakatimz ta'limidagi mavjud vaziyatni tahlil qilish natijasida ta'lim tizimiga innovatsion tuzilmani joriy etish haqida o‘ylash kerak.

2.Ta'limning innovatsion tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv dasturiga iqtisodiyot, huquq, innovatsiya, chet tillarini chuqur o‘rganish sohalaridan qo‘shimcha fanlarni kiritish, shuningdek, talabalarni ilmiy-tadqiqot (ITI) va ishlanmalarni joriy etish orqali faol jalb etish zarur.

3. Ta'limning innovatsion tuzilmasi yosh olimlarni barcha sohalarda, jumladan tashkiliy (tadqiqot ishlarini moddiy ta'minlash), axborot va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada faollashtirishni talab qiladi. Faqat ushbu barcha qadamlar bajarilsa, O‘zbeksiton oliy ta'lim tizimi jahon standartlariga javob berishiga imkon berishi mumkin va bu, albatta, davlatning iqtisodiy va texnik rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедзянов, Д. А. Инновационная составляющая инженерного образования в современной высшей школе / Д. А. Ахмедзянов, Н. Ю. Дударева. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2010. — № 1-2 (13). - Т. 2. - С. 239-243.
2. Зинов, В.Г. Менеджмент инноваций. – М.: Дело, 2005. - 496 с.
3. Гольдштейн, Г. Я. Инновационный менеджмент. - Таганрог: Изд-во ТРТУ, 1998.
4. Понарина, Е. Отчего датчане живут лучше? "Поиск" № 14, 11 апреля 2003 г.
5. Никитин, Р. В., Технология подготовки специалистов: Практическое пособие/ Р. В. Никитин, Б. П. Рудой. Уфа: УГАТУ, 2002. 61 с.

УДК: 378.22

COMPARATIVE ANALYSIS OF SPIRITUAL EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: THE EXAMPLE OF JAPAN AND UZBEKISTAN
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MA’NAVIY TA’LIMNING QIYOSIY TAHLILI: YAPONIYA VA O‘ZBEKISTON MISOLIDA

Jakbarov Odiljon Otamirzaevich
t.f.n., dotsent “Namangan muhandislik-qurilish instituti”, e-mail: JakbarovOdiljon@gmail.com, +99893 192 74 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yaponiya va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning kontseptsiyasi, metodologiyasi va ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ikkala davlat ham ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni talabalarning yaxlit rivojlanishining ajralmas qismi sifatida ta'kidlasa-da, ularning yondashuvlari madaniy, tarixiy va ta'lim an'analari tufayli sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu qiyosiy tahlil ushbu farqlar va o'xshashliklarni o'rganadi, ilg'or tajribalarni ta'kidlaydi va ma'naviy ta'limni global miqyosda oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so’zlar: ma’naviyat, tarbiya, ta’lim, axloq, qadriyat, istiqbol, rivojlanish, madaniy meros, barkamol shaxs.

Аннотация: В данной статье рассматриваются концепция, методология и влияние духовно-нравственного воспитания в высших учебных заведениях Японии и Узбекистана. Хотя обе страны подчеркивают духовно-нравственные ценности как неотъемлемую часть целостного развития учащихся, их подходы существенно различаются в силу культурных, исторических и образовательных традиций. Этот сравнительный анализ исследует эти различия и сходства, выделяет передовой опыт и дает рекомендации по улучшению духовного образования во всем мире.

Ключевые слова: духовность, воспитание, образование, нравственность, ценности, перспектива, развитие, культурное наследие, всесторонняя личность.

Abstract. This article examines the concept, methodology, and impact of spiritual and moral education in higher education institutions in Japan and Uzbekistan. While both countries emphasize spiritual and moral values as an integral part of the holistic development of students, their approaches differ significantly due to cultural, historical, and educational traditions. This comparative analysis explores these differences and similarities, highlights best practices, and makes recommendations for improving spiritual education globally.

Keywords: spirituality, education, education, morality, values, perspectives, development, cultural heritage, well-rounded personality.

Kirish: Kirish. Ma’naviy tarbiya axloqiy qadriyatlar, hissiy barqarorlik va madaniy ongga ega bo'lgan har tomonlama barkamol shaxslarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yaponiya va O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosiga ega bo‘lib, oliy ta’limda ma’naviy-ma’rifiy ta’limning o‘ziga xos istiqbollarini ta’minlaydi. Yaponiyaning ma’naviy ta’limi zamonaviy amaliyotlar bilan uyg‘unlashgan buddizm, sintoizm va konfutsiy an’analarini aks ettirsa, O‘zbekistonda Markaziy Osiyo madaniyatidan kelib chiqqan islom qadriyatlari va milliy an’analariga urg‘u berilgan. Ushbu tadqiqot ushbu ikki xalqda ma'naviy tarbiyaning kontseptual asoslari, amalga oshirish strategiyalari va muammolarini taqqoslaydi.[1] Dunyoviylashgan zamonaviy dunyoda ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan ma'naviy ta'lim talabalarning har tomonlama rivojlanishining asosi bo'lib qolmoqda. U intellektual faoliyat bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlarni, madaniy merosni va ichki o'sishni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Yaponiya va O‘zbekiston o‘zlarining noyob madaniy va tarixiy sharoitlariga ega bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy ta’limni oliy ta’lim tizimiga integratsiya qilishning yorqin misollarini keltirmoqda. Ushbu tadqiqot ularning yondashuvlaridagi o'xshashlik va farqlarni o'rganadi, ma'naviy ta'lim mas'uliyatli va madaniyatli fuqarolarni shakllantirishga qanday hissa qo'shishi haqida tushuncha beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: O‘zbekistonning ma’naviy tarbiyasi islom merosi va milliy qadriyatlarga kuchli e’tibor bilan shakllangan. 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasida ma’naviyat tiklanishi jadallik kasb etdi, bu sovet davrida buzilgan axloqiy-madaniy tuzilmani qayta tiklashga qaratilgan.[2] O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya islom odob-axloqi, madaniy merosga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularini targ‘ib etib, milliy o‘zlikni anglash va birdamlikdek kengroq maqsadlarga hamohangdir. Yaponiyaning ma'naviy ta'limga bo'lgan yondashuviga uning sinkretik diniy an'analari, jumladan buddizm, sintoizm va konfutsiylik ta'sir ko'rsatadi. Bu urf-odatlar uyg‘unlik, ogohlik va axloqiy mas’uliyatni ta’kidlaydi. Oliy ta'limda ma'naviy ta'lim aniq diniy emas, balki shaxsiy o'sishga, axloqiy xulq-atvorga va jamiyatdagi uyg'unlikka qaratilgan. Falsafa, axloq va mulohaza yuritish bo'yicha kurslar, shuningdek, fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiruvchi darsdan tashqari mashg'ulotlar keng tarqalgan. O‘zbekiston ma’naviy-axloqiy tarbiyasi islom ta’limoti va Al-Forobiy, Al-Buxoriy kabi allomalar merosidan chuqur ildiz otgan.[3] O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng vatanparvarlik, madaniy o‘ziga xoslik va axloqiy kamolotni shakllantirish maqsadida o‘z ta’lim tizimiga milliy va islomiy qadriyatlarni singdirdi. Universitetlar merosga

hurmat va ma'naviy ongni shakllantirishga qaratilgan axloq, din tarixi va milliy an'analar bo'yicha kurslarni o'z ichiga oladi.

Maqsad: Ma'naviy tarbiyaning falsafiy asoslarini tahlil qilishda yaponiyaning global pedagogikaga qo'shgan hissasini o`rganish hamda **y**aponiyaning ma'naviy ta'lim amaliyotining falsafiy asoslarini va ularning global pedagogika bilan aloqasini o'rganish maqsad qilinadi.

Asosiy qism: *Yaponiya: Sintoizm, Buddizm va Zamonaviylikning uyg'unligi.* Yaponiyaning ma'naviy ta'limi uning madaniy an'analarida, jumladan, uyg'unlik, tabiatga hurmat va jamiyatni ta'kidlaydigan shintoizm va buddizm bilan chuqur ildiz otgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi ta'lim islohotlari dunyoviylikni joriy qildi, ammo an'anaviy ma'naviyat qoldiqlari ta'lim amaliyotiga ta'sir qilishda davom etmoqda. Yaponiya universitetlarida ma'naviy ta'lim ko'pincha wa (uyg'unlik) va kokoro (yurak/ruh) kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi, talabalarning hissiy farovonligi va axloqiy ongini rivojlantiradi.[4]

O'zbekiston: islom madaniyati va milliy qadriyatlar merosi. Yaponiyada ma'naviy ta'lim aniq belgilanmagan, ammo axloq, gumanitar fanlar va atrof-muhitni o'rganish bo'yicha kurslarga kiritilgan. Universitetlar ko'pincha talabalarning ma'naviy farovonligini oshirish uchun choy marosimlari va meditatsiya mashg'ulotlari kabi darsdan tashqari tadbirlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda bundan farqli o'laroq, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim yanada aniq va tizimli bo'lib, oliy o'quv yurtlarida "Axloq va ma'naviyat" va "Milliy mafkura" kurslari majburiydir.[5] Dinshunoslik dasturlari va Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslar haqidagi darslar axloqiy va madaniy saboqlar berishda vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Universitetlar ma'naviy ta'limni axloq, adabiyot va ijtimoiy fanlar bo'yicha kurslarga kiritib, fanlararo yondashuvlarni qo'llaydi. Dialog va aks ettiruvchi yozish kabi o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim usullari o'z-o'zini kashf etish va qadriyatlarni shakllantirishga undaydi. O'zbekistonda "Milliy g'oya va ma'naviyat", "Axloq va dinshunoslik" kabi fanlar orqali ma'naviy-ma'rifiy ta'lim o'quv dasturiga aniq kiritilgan. Bu kurslarda madaniy g'urur, an'analarga hurmat va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga urg'u beriladi. Darsdan tashqari tadbirlar Yaponiyada choy marosimlari, meditatsiya seanslari va jamoat xizmatlari loyihalari kabi tadbirlar talabalar o'rtasida ong va rahm-shafqatni rivojlantirish uchun ishlatiladi. O'zbekistonda universitetlarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida ma'naviyat peshvolarining ma'ruzalari, milliy madaniyat bayramlari, xayriya loyihalari kabi tadbirlar tashkil etilmoqda. Har ikki davlatda ham ma'naviy qadriyatlar namunasini shakllantirishda pedagoglar muhim rol o'ynaydi. Yaponiya o'qituvchining yo'l ko'rsatuvchi rolini, O'zbekiston esa pedagogni axloqiy hokimiyat sifatida ta'kidlaydi.[6]

Yaponiyadagi ma'naviy ta'lim uyg'unlik va hurmatni qadrlaydigan ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashga hissa qo'shadi. Bu talabalarning shaxsiy va kasbiy hayotiga nozik, ammo chuqur ta'sir ko'rsatadi, tez o'zgaruvchan dunyoda chidamlilik va axloqiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya milliy o'zlikni tiklash va vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bu o'quvchilarni daxldorlik tuyg'usi va axloqiy ravshanlik bilan qurollantiradi, ularni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shishga tayyorlaydi. O'zbekistonning tuzilgan o'quv dasturini to'ldirish uchun mulohaza yuritish va zukkolik amaliyotlarini amalga oshiring.[7] Axloqiy va ma'naviy o'sishni rag'batlantiradigan tajribaviy ta'lim faoliyatini ta'kidlang. Oliy ta'lim o'quv dasturlarida madaniy va ma'naviy merosga aniqroq e'tiborni joriy etish. Talabalarning madaniy o'ziga xosligini mustahkamlashda jamiyat yetakchilarining roli va milliy an'analardan foydalanish.

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar. Yaponiya ta'lim tizimining o'ta sekulyarizatsiyalanganligi ma'naviyatga aniq murojaat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. An'anaviy qadriyatlarni zamonaviy talablar bilan muvozanatlash hali ham nozik vazifa bo'lib qolmoqda. Ogohlik va ruhiy salomatlikka bo'lgan qiziqish ortib borayotgani ma'naviy ta'limni farovonlik dasturlari ostida birlashtirish imkoniyatlarini taklif qiladi. O'zbekistonda dogmatizm xavfi va ma'naviy ta'limning

potentsial siyosiylashuvi muhim tashvishlardir. Ma'naviy ta'limning inklyuziv bo'lib qolishi va turli xil talabalar populyatsiyasiga moslashishini ta'minlash yana bir muammodir. O‘zbekistonda madaniy merosga katta e’tibor qaratilayotgani ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish uchun mustahkam zamin yaratadi. Hukumatning axloqiy tarbiyaga e'tibor qaratilishi xarakter tarbiyasiga urg'u beradigan global tendentsiyalarga mos keladi [8].

Xulosa. Yaponiya va O‘zbekiston ma’naviy tarbiyaga turlicha yondashuvlar haqida qimmatli fikrlarni taklif etadi. Yaponiyaning ong va jamiyat totuvligiga, O‘zbekistonning madaniy va ma’naviy qadriyatlarga e’tibor qaratayotgani an’anaviy va zamonaviy amaliyotlarni birlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Dunyo bo‘ylab oliy ta’lim muassasalari bir-birining tajribasidan o‘rganib, tobora globallashib borayotgan dunyoda talabalarning axloqiy rivojlanishi va madaniy ongini rag‘batlantiradigan innovatsion va samarali ma’naviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin. Yaponiya va O‘zbekistondagi ma’naviy-ma’rifiy ta’limning qiyosiy tahlili an’analar va innovatsiyalarning boy o‘zaro ta’sirini ochib beradi. Yaponiya ma'naviyatni tajribaviy va mulohaza yuritish amaliyotlari orqali nozik tarzda integratsiyalashda ustun bo'lsa-da, O'zbekistonning tizimli va qadriyatlarga yo'naltirilgan yondashuvi aniqlik va e'tiborni taqdim etadi. Ikkala davlat ham axloqiy, madaniy va ijtimoiy mas'uliyatli bitiruvchilarni tarbiyalashda ma'naviy ta'lim muhimligini ta'kidlaydi. Bir-birining kuchli tomonlarini o‘rganish va o‘z muammolarini hal qilish orqali Yaponiya va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimlarida ma’naviy ta’limning rolini yanada oshirishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Qobilovna, Malikova Dildoraxon. "Rivojlangan Yangi O’zbekistonni Barpo Etishda Taraqqiyot Strategiyasi Va Uzluksiz Ma’naviy Tarbiya Konsepsiyasining Ahamiyati." Miasto Przyszłości 28 (2022): 291-294.

2. Yaxshiyev D. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida maxsus maktab-internat oquvchilarini ma’naviy tarbiyalash //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 4 Part 2. – С. 14-19.

3. Qosimov S. Ma’naviy tarbiya mutafakkirlar talqinida //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2022. – Т. 1. – №. 28. – С. 138-141.

4. Nakamura, Hajime. "Ways of Thinking of Eastern Peoples." Tokyo: University of Tokyo Press, 1964.

5. Alimov, N. "Spiritual and Moral Education in Post-Soviet Uzbekistan." Tashkent: Science and Education Publishing, 2019.

6. Boboqulovich, Mirzayev Ikrom. “Yoshlarini ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalari (sharq mutafakkirlarning nigohida)”. World scientific research journal 12.1 (2023): 142-147.

7. Sattorovich, Sulaymonov Islom. “Yoshlarning ma’naviy kamoloti va tarbiya uyg‘unligi” World Scientific Research Journal 32.1 (2024): 74-78.

8. Muxammadjonovich, Erkaboyev Oybek, and Mirzayeva Gavharoy Qosimjonovna. “Talaba-yoshlarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda zamonaviy uslublar mazmuni” Образование наука и инновационные идеи в мире 21.7 (2023): 149-151.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATIGA XUSUSIY SEKTORNI JALB ETISH: HORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDOSHUV

Isaboyev Sh., A`zamov Q.S., Musomiddinov A.M.– talaba (NamMQI)

Annotatsiya; Ushbu maqolada aholini oliy ta`limga qamrovini oshirish, ta'limni sifatli tashkil etish va o`zaro raqobat muhitini yaratish bo`yicha olib borayotgan islohotlar, jumladan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarga asoslangan nazariy asoslangan yondashuvlarning horijiy va umumiy tahlili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kognitiv-ijodiy salohiyat, xususiy sektor, model, innovatsion o'quv-metodik mahsulot, notijorat muassasa.

Jamiyatimiz taraqqiyoti uchun eng muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan me`yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bizni faxr tuyg'ulari bilan to'lqinlantiradi. Jumladan, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiya Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida qabul qilinganligi barchamizga ayon bo'lib ulgurdi[1].

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishi asosiy g'oyasi ilgari surilganligi hujjatning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'lgan ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mamlakatimiz yoshlarini har jihatdan ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Taraqqiyotimiz dasturi bo'lmish «O'zbekiston – 2030» strategiyasida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi maqsad va rejalar belgilab olindi. Mazkur hujjatda, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish kabi maqsadlar ilgari surilgan.

Oliy ta'lim qamrovini oshirish uchun xususiy universitetlarga nafaqat kunduzgi, balki sirtqi ta'limni tashkil qilishga ruxsat berilishi bu bozorni biznes uchun juda jozibali qilib yubordi. Muqobil taklifi bo'lmagan yoshlarga bilim berib, jamiyatda ijobiy o'zgarish qilish kabi xayrli ish asosiga biznes qurish va bu orqali daromad topish har bir tadbirkorning orzusi bo'lsa ajabmas. Shu sababli ham, taklifga mutanosib ravishda xususiy universitetlar soni so'nggi 6 yil ichida 85 tadan oshib ketdi.

Xususiy sarmoyaning kirib kelishi – oliy ta'limimizdagi eng katta yutuqlarimizdan biri. 2016 yilda boshlangan bozor munosabatlari borasidagi islohotlar uchun oliy ta'lim qulay soha bo'ldi. Sababi oddiy: yildan yilga o'sib borgan talabga qaramasdan, davlat universitetlarida o'rnatilgan qabul kvotasi jamiyatda millionlab o'qimaganlar "bozori"ni paydo qildi. Raqamlar: 2023 yilda davlat universitetlariga hujjat topshirgan abituriyentlar soni 986 mingdan oshgan bo'lsa-da, ularga ajratilgan qabul kvotasi 381 mingtani tashkil qilgan.

Xususiy oliy ta'lim bozori haqida qisqacha, yaqin yillargacha O'zbekistonning oliy ta'limi ikkita asosiy o'yinchining hukmronligi ostida bo'lgan: davlat universitetlari va kam sonli

xalqaro universitetlar filiallari. Eski qolipdan endigina qutulishni boshlagan davlat universitetlari yillar davomida zamon talabiga mos kelmaydigan darsliklar, malakali mutaxassislar taqchilligi va erkin tadqiqot qilishga qo'yilgan to'siqlar girdobida qolib ketgani ko'p bahs qilingan.

Boshqa tarafdan, 2000-yillar boshlaridan bozorga yangi kadrlar tayyorlash zarurati bilan xalqaro standartlar asosida ta'lim beruvchi chet el universitetlarining filiallari kirib kela boshladi. Poytaxtning shinam hududlarida joylashgan xalqaro universitetlar zamonaviy sharoit, malakali professorlar va ingliz tilidagi ta'lim bilan xalq orasida yaxshigina obro'ga erishib, hammani o'ziga mahliyo qilgan bo'lsa-da, grantlar kamligi va narxning qimmatligi bu muassasalarda o'qishni oddiy qatlam uchun imkonsiz qildi.

2018 yildagi islohotlardan keyin bozorda yangi o'yinchi-xususiy universitetlar paydo bo'la boshladi va ular qisqa muddatda bozor dinamikasini o'zgartirib yubordi. Fikrimizcha, davlat yoki xorijiy sarmoya aralashgan universitetlarni hisobga olmaganda, bugungi kunda oliy ta'lim bozorida paydo bo'lgan xususiy universitetlarni uch turga bo'lib tahlil qilish mumkin.

Hajm jihatidan yirik hisoblangan birinchi turdagi universitetlar ortida odatda sobiq yoki ayni paytdagi amaldorlar turadi deb taxmin qilish mumkin. Nisbatan kichik va o'rta hajmga ega ikkinchi turdagi universitetlar ortida yetarli sarmoya orqali mavjud imkoniyatdan unumli foydalangan tadbirkorlar qatlami turadi. Bu qatlam yillar davomida ta'lim sohasida faoliyat yuritib tajriba va sarmoya to'plagan yoki boshqa bizneslardan kelgan sarmoyasini jozibasi oshib borayotgan ta'lim sohasiga tikayotgan tadbirkorlarni o'z ichiga oladi. Va nihoyat, xalqaro universitet maqomiga erishishga da'vogar bo'lgan uchinchi turdagi universitetlar ortida katta moliyaviy qudratga ega yirik biznes egalari turadi.

Asosiy muammo – boshqaruv sohasiga borib taqalmoqda, albatta, son ko'p narsani hal qilmaydi. Qo'shni davlatlar tajribasi ko'rsatdi – turli qiyinchiliklar bilan faoliyat boshlagan xususiy universitetlar jiddiy sinovlar qarshisida turadi. Ushbu sohada faoliyat yuritgan mutaxassis sifatida shuni ayta olamanki, bugungi kunda xususiy universitetlar oldida turgan eng og'riqli masala – jamiyatning ishonchsizligi yoki sohani tartibga solishdagi noaniqlik emas, balki universitet boshqaruvi. Boshqacha aytganda, *moliyaviy manfaat va sifatli ta'lim o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan boshqaruv*ni joriy qilish endilikda xususiy universitetlar uchun asosiy masalaga aylanadi.

Xususiy universitetlar turfa xil bo'lsa-da, ularni daromad topishdan tashqari yana bir vazifa doimo birlashtirib turadi: ta'lim olish istagidagilarni ma'lum mezon bo'yicha saralab olish va sifatli ta'lim orqali mehnat bozoriga malakali kadr va jamiyatga manfaat keltiradigan inson qilib tarbiyalash. Universitetlar oldida turgan ushbu oliy vazifaga eltuvchi yagona vosita – samarali va tizimlashgan boshqaruvni joriy qilish ekani shubhasiz. Lekin samarali boshqaruv tajribasi kam bo'lgan mamlakatda bu oson emas.

Xususiy sarmoyaga asoslangan universitetlardagi samarali boshqaruv uchun fundamental masala – investorlarning daromad topish xohishi bilan professor-o'qituvchilarning sifatli ta'lim berish borasidagi ziddiyatni yechish hisoblanadi. Buni qisqa qilib tushuntirishga harakat qilaman.

Daromad topish maqsadidagi investorlar odatda universitet faoliyatiga biznes sifatida qarashadi. Shuning uchun ular ko'proq talaba qabul qilib, tezroq moliyaviy barqarorlikka erishish payida bo'lishadi. Buning aksi o'laroq, professor-o'qituvchilardan iborat universitetning akademik jamoasi universitetlarga erkin ilmiy muhit va mustaqillikni ta'minlaydigan maskan sifatida qarashadi. Asosiy maqsadi talabalarga sifatli ta'lim berish bo'lgani uchun, akademik jamoa sifatni sondan afzal ko'radi.

Bu ikki xil qarash o'rtasidagi ziddiyat universitet boshqaruvining turli jabhalarida namoyon bo'ladi. Ziddiyat odatda fakultetlarga budjet taqsimlash, talaba qabul qilish mezoni, erkin tarzda professor-o'qituvchilarni yollash va o'quv dasturlar ishlab chiqish kabi masalalarda kelib chiqadi. Investorlar tijoriy manfaatlarni oldinga surish maqsadida butun jarayonga ta'sir

o'tkazadigan boshqaruvni ma'qul ko'rishsa, professor-o'qituvchilar jamoasi ilmiy qadriyatlar va tamoyillarni himoya qiladigan shaffof va demokratik boshqaruvni afzal ko'rishadi.

Xo'sh, bizdagi mavjud xususiy universitetlarda ahvol qanday? Bu savolga bugungi kunda xususiy universitetlarda paydo bo'lgan boshqaruv modelini tahlil qilish orqali javob berish mumkin. Umumlashtiradigan bo'lsak, yangi tashkil etilgan xususiy universitetlarning ko'pchiligida tijoriy maqsadlarni olg'a suruvchi boshqaruv shaklini kuzatamiz. Bunday boshqaruvga asoslangan universitetlarda quyidagilar kuzatiladi:

- *Universitetni ko'proq taniqli professor-o'qituvchilar emas, balki asoschilarga yaqin shaxslar shakllantirgan.*
- *Universitetning muhim qarorlari jamoaviy tarzda emas, balki sarmoya kiritgan yakka shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan qabul qilinadi.*
- *Sarmoyador yoki ularning vakillari universitetning deyarli barcha ichki ishlariga noo'rin va tez-tez aralashadi.*
- *Kirish imtihonlari, universitetga qabul shartlari va ta'lim sifati borasidagi qarorlar universitetning ta'lim borasidagi prinsip va qardiyatlariga emas, balki sotuvni oshiradigan bozor iqtisodiyotiga asosan tuziladi.*
- *Boshqaruv mexanizmlari aslida professor-o'qituvchilar jamoasiga xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ma'muriy bo'limlarda to'plangan bo'lib, professor-o'qituvchilar faqat dars berish bilan mashg'ul. Ya'ni professor-o'qituvchilar jamoasining universitet faoliyatiga ta'sir qiladigan qarorlarda ishtiroki juda sust yoki yo'q.*

Qisqa qilib aytganda, hozirda ko'pchilik xususiy universitetlar oddiy korxonalarga xos bo'lgan qo'l boshqaruvini joriy qilib, minglab talabalar orqali daromad topishga asoslangan biznes holiga kelib qolgan.

Tijoriy maqsadlar bilan sifatli ta'lim muvozanatini ta'minlaydigan professor-o'qituvchilar jamoasi esa boshqaruv qarorlaridan deyarli chetlashtirilgan.

Bu esa universitetlarning tom ma'noda ilm va tadqiqot markaziga aylanishlariga to'sqinlik qilyapti.

Yuzaga kelgan muammolardan kelib chiqib, universitetlar endilikda haqiqiy ilm markaziga aylanishlari uchun yakka shaxslarga asoslangan boshqaruvdan tizimlashgan, jamoaviy boshqaruvga o'tishi kerak. Xo'sh, buni qanday amalga oshirish mumkin?

Buning uchun universitetlar oddiy korxonalardan farq qilishini tushunish lozim.

Birinchidan, korxonalardan farqli ravishda, universitetlar o'z mohiyatiga ko'ra olimlar jamoasidan iborat tashkilot hisoblanadi. Ilm maskanlari o'laroq universitetlar, akademik jamoalar keng jamoatchilikka xizmat qilishi kerak. Shu sababli universitet qarorlari asosiy manfaatdor tomonlarning manfaatlari yo'lida qabul qilinishi kerak.

Ikkinchidan, universitetlar jamiyat oldida javobgar bo'lgani uchun uning faoliyati samarasi faqatgina daromad bilan emas, balki talabalar muvaffaqiyati, tadqiqotlar va jamiyatga ijobiy ta'siri bilan o'lchanishi kerak. Shu o'rinda aytish lozim, daromad manbayi faqat talabalarning o'qish to'lovidan iborat bo'lgan universitet moliyaviy jihatdan o'zini oqlamaydi.

Misol uchun, AQShdagi kuchli universitetlarning deyarli barchasi notijorat tashkilot bo'lib, talabalar o'qish to'lovidan keladigan mablag' universitet umumiy daromadining atigi 8-10 foizini tashkil qiladi. Bu – ta'lim dargohlarining tarixiy tajribasi, ilmiy an'anasi turli akademik rahbariyat davrida shakllanganini ko'rsatadi.

Bu tajribadan o'rnak olib, xususiy universitetlarimiz ta'lim sifatini keyingi bosqichga olib chiqish va yangi ilmiy an'ana yaratishlari uchun boshqaruvda quyidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich kiritishlari lozim.

Birinchi navbatda, boshqaruv asoschi-sarmoyador, ma'muriyat va akademik jamoa o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asoslanishi lozim. Universitet ma'muriyati va professor-o'qituvchilar jamoasi asoschilarning universitet tashkil qilish uchun qilgan sa'y-harakatlarini olqishlashi lozim. Shu bilan birga, asoschi va/yoki ularning vakillari ham professor-o'qituvchilar

jamoasining ta'lim sifatini nazorat qilish borasidagi istaklarini to‘g‘ri qabul qilishi kerak. Asoschilar o‘z qadriyatiga ega mustahkam universitet paydo bo‘lishi uchun fikr hurligi, erkin ilmiy muhit va qarorlarda jamoaviylik muhimligini anglab yetishlari lozim.

Mashhur tadbirkorning so‘zi bilan aytganda, universitet asoschilari o‘z shaxsiyat va qarashlarini professional tashkilot sifatida shakllanayotgan universitetning shaxsiyatidan ajratishlari lozim. Shuning uchun ham Harvard yoki MIT kabi universitetlar o‘z asoschilari bilan emas, balki ularni mashhur qilgan professorlari bilan maqtanadi. Shundan kelib chiqib, asoschilar avvalo qaror qabul qilishda yakka shaxslarga asoslangan boshqaruvdan voz kechib, strategik qarorlarni malakali mutaxassislardan tashkil topgan vasiylik kengashi orqali jamoaviy tarzda qabul qilishga o‘tishlari lozim. Vasiylik kengashi esa tijoriy manfaatlar va ta'lim sifati borasidagi muvozanatni ushlaydigan rektorni tayinlashi lozim.

Tayinlangan rektor ichki boshqaruvda jamoaviy qaror qabul qilish mexanizmini ishlab chiqqan holda, ma'muriy ishlarni professional jamoaga erkin qo‘yib berishi lozim. Universitetga qabul, darsliklar va o‘qitish borasidagi barcha ilmiy masalalar to‘laqonli tarzda ilmiy kengash va mustaqil faoliyat yuritadigan fakultet boshqaruviga berilishi zarur.

Shuni ta'kidlash kerakki, fakultetlar va professor-o‘qituvchilar jamoasiga ta'lim siyosatini shakllantirish borasida mustaqillik berilmas ekan, universitetlar tom ma'noda ilm dargohi sifatida shakllanmaydi.

Kuchli jamoa nafaqat universitetlar, balki kompaniyalar muvaffaqiyati uchun ham muhim omil ekanini tadqiqotlar ham ko‘rsatadi. Jim Kollinz o‘zining "Oddiylikdan buyuklikkacha" nomli mashhur kitobida buyuk kompaniyalarning muvaffaqiyatini tahlil qilar ekan, tashkilotlarni avtobusga, ularning strategiyasini esa avtobus manziliga o‘xshatadi.

Boshqacha aytganda, muvaffaqiyatli universitetlar avvalo o‘z "avtobusi"da malakali professorlar yig‘ilganiga ishonch hosil qilishadi, keyin manzilni belgilashadi. Shu sababli ham, kuchli professorlar dunyoga mashhur universitetlar faoliyatining markazida turib, ularning borligi talabalarni jalb qilish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa

O‘zbekistonning xususiy oliy ta'lim bozoriga yangi o‘yinchilar kirib keldi. Ushbu bozorga kirib kelgan xususiy universitetlar moliyaviy barqarorlikka erishish bosqichidan o‘tib, endilikda tizimli boshqaruv orqali ta'lim sifatini ta'minlash bilan bog‘liq muhim bosqich oldida turishibdi.

Tijoriy maqsad va sifatli ta'lim o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan boshqaruvni o‘rnata olgan universitetlargina qadriyat va an'analarni shakllantirishlari va haqiqiy ilm maskaniga aylanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrgagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlash to‘g‘risida" gi Farmoni

2. Gafurovich, D. U., & Sotivoldievich, Z. M. (2021). The use of non-conventional power sources is a requirement of the period. *Academicia Globe*, *2*(07), 121-126.

3. Деҳқонов, У. Ғ., & Исабоев, Ш. М. (2022). Шамол агрегати фойдали қаршилик моментининг зарурий қиймати. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 216-222.

4. Деҳқонов, У. Ғ., Исабоев, Ш. М., & Уришев, Ў. Ғ. (2022). Ротор моментининг характеристикаси. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 205-215.

5. Dehkanov, U. G., Makhmudov, Z. S., & Azamov, Q. S. (2022). Practical Equation of Torque for a Concave Wing Rotor Drive. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, *1*(6), 230-234.

6. U Dekhkonov, I Najmiddinov, I Sharofiddin, K Azamov (2022). Новая конструкция ротора ветрового агрегата с вертикальной осью вращения. Journal of Northeastern university 25 (04)

7.Daminov, J. A., Tillaboev, Y. K., Agzamov, K. S., Isaboyev, S. H. M., & Abdujabborov, A. A. (2021). The mechanism of experimental determination of the angular velocity of the working shaft of the wind unit. *Design Engineering*, *9*, 11814-11821.

8.Махмудов, З. С., & Даминов, Ж. А. (2023). Применение педагогических технологий на лекционных занятиях по теоретической механике. *Экономика и социум*, (4-2 (107)), 650-654.

9.A.A. To`xtaboyev, Sh.M.Isaboyev. Kredit – modul tizimini jahon ta`lim tizimiga kirib kelish tarixi va amaliyotga joriy etish bosqichlari. International scientific and scientific-technical conference on theme "Innovation in construction, seismic safety of buildings and structures". -ЎзР ВМнинг 2022 йил 30 майдаги 08/8-8-сонли топшириғи

10. A.M.Raximov; X.L.Alimov, Sh.M. Isaboyev. Kredit – modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari (texnik ta`lim yo`nalishlarida Materiallar qarshiligi fanini o`qitish misolida). International scientific and scientific-technical conference on theme "Innovation in construction, seismic safety of buildings and structures". -ЎзР ВМнинг 2022 йил 30 майдаги 08/8-8-сонли топшириғи

11. Sh.M. Isaboyev. Mexanika fanini fanlararo hamkorlikda o‘qitish asosida talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, [2024-6-son] ISSN:2181-1458 ISSN:2181-0427 13.00.00-PEDAGOGIKA journal.namdu.uz PEDAGOGICAL

12. Sh.M. Isaboyev, M.A.Musamiddinov. Tajriba mashg`ulotlarining quruvchi-muhandis kadrlarni tayyorlashdagi ahamiyati. “Texnik oliy o‘quv yurtlarida tillarni o‘qitishda innovatsion va kommunikativ yondashuvlar: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 19-20 arpel 2024 y 404-410 betlar

MEXANIKA (NAZARIY MEXANIKA VA NATERIALLAR QARSHILIGI) FANLARINI O'QITISHNING O`ZIGA XOS TAMOYILLARI HUSUSIDA

Isaboyev Sh., Najmiddinov I.B., Eshmahmatov O.– talaba (NamMQI),
Musomiddinov M.A. (BelTU Toshkent filiali)

Annotatsiya; Ushbu maqolada muhandislik fanlarini o`qitishning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o`qitish, bu jarayonda o`qitishning qulay uslub hamda vositalari jumladan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarga asoslangan nazariy asoslangan yondashuvlarning horijiy va umumiy tahlili bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: O`qitishning o`ziga xox xususiyatlati, tamoillari, model, innovatsion o‘quv-metodik mahsulot, o`qitish vositalari.

Muhandislik fanlarini o'qitish jarayonida ta'limning ilmiylik, nazariya bilan amaliyotning birligi, tushunarlilik, tizimlilik, izchillik, talabalar faolligi va mustagilligi, ko'rsatmalilik, talabalaming yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish va boshqa tamoyillardan foydalanib kelinmoqda.

Pedagogik faoliyatga o‘qitish tamoyillari (sinonim: ta'lim asoslari, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish tamoyillari)-ta'lim metodlarini tanlash va qo'llashni aniqlovchi o'qitish kategoriyalari bo'lib hisoblanadi, Ular me'yoriy xarakterga ega va ta'limni rejalashtirish,

korreksiyalash, baholash va bajarish uchun qo'llaniladi. Ularni ikki turga ajratish mumkin; didaktik tamoyillar va metodik tamoyillar.

Ta'lim tamoyillari-o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga o'quv rejasi va o'quv dasturlari talablari asosida u yoki bu fandan bilim berish, malaka hosil qildirish hamda iqtidorli qilishga qo'yiladigan asosiy qoidalar majmuiga aytiladi.

Ta'lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillan quyidagilar kiradi:

Ilmiylik tamoyili, Bu tamoyilga asosan talabalarga ilmiy jihatdan asoslangan va amalda sinalgan bilimlar bayon ctiladi, Bunda, tahsil olayotgan mutaxassislik bo`yicha ishni tashkil qilishning zamonaviy usullari, fan-texnika yutuglari, zamonaviy texnologiyalar va ularning rivojlanish istiqbollariga oid bilimlar berish lozim.

Ilmiylik tamoyili o'quy materiali mazmunidagina emas, balki o'qitish jarayonining barcha bug`inlarida o'z ifodasin topishi kerak O'qituvchi o'z faoliyatida ta`limning pedagogik, psixologik jihatdan erishgan yutuglari, ta`limni tashkil qilishning zamonaviy samarali usullandan va ilg`or pedagogik texnologyalar hamda o`gitshning samarali metodlaridan foydalanishi zarur.

Ilmiylik tamoyili o'quv materiali mazmunidagina emas, balki o'qitish jarayonining barcha bo`g‘inlarida o'z ifodasini topishi kerak, O'qituvchi o'z faoliyatida ta'limning pedagogik, psixologik jihatdan erishgan yutuqlari, ta'limni tashkil etishning zamonaviy samarali usullaridan va ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda o`qitishning samarali metodlaridan foydalanishi zarur. Chunki, bular talabalar faolligini oshiradi va bilimlarni o'zlashtirish darajasining kengayishiga olib keladi, o`quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo lishi kerak. Shuningdek, Mexanika fanlarining yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o zida aks ettirishi lozim.O'qituvchining taxminiga yoki sub'ektiv fikriga asoslangan material qo`llanilmasligi kerak.

Amaliyot bilan nazariya ma`lumotlarning birligi tamoyili, Bu tamoyilga asosan maxsus fanlarni o qitishda talabalarga oliy ta limni tugatgandan keyin amaliy faoliyatida va ishlab chiqarish amaliyotiga bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashishlari uchun zarur bo lgan bilimlar beriladi. Bu tamoyilga ko'ra o'qituvchi nazariy ta limni tajriba-amaliy va ishlab chiqarish ta limi bilan bog langan holda olib borishi, hamda talabalarning olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo`llay olish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur, Bu tamoyil ta limning ilmiy qoidasi bilan mustahkam bog`langandir. Ishlab chiqarish ta'limi talabalar amaliy faoliyatining muhim bosqichi hisoblanadi.

Ular egallab olgan nazariy bilimlar asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko`nikmalari hosil qiladilar. Shu bilan birga nazariy bilimlarga aniqlik kiritib boriladi. Talabalarning korxonalarda o'tkazadigan ishlab chiqarish amaliyot mashg‘ulotlari o`qishni unumli mehnat bilan bog‘lab olib borishning yakunlovchi bosqichidir. Nazariy bilim doim amaliyot bilan bog‘lanishi lozim. Amaliy ta'lim ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyilga asosan o'rganilayotgan materiallar mazmuni hamda o`qitish metodlari talabalar tayyorgarlik darajasiga va bilish imkoniyatlariga mos kelishi kerak. O'quv materiali juda qiyin bo'lsa, ya'ni talabalar uni tushunmasalar, ularda o`ziga bo`lgan ishonch va o'rganilayotgan fanga bo`lgan qiziqish yo`qoladi. O`quv materiali o`ta oddiy va oson bo`lishiga ham yo`l qo`yib bo`lmaydi, bunda talabalar fikrlash faolligi kamayadi va natijada dars zerikarli o`tadi. Maxsus fanlarni o`qitishda tushunarlilik tamoyiliga asoslangan holda o'quv materiallarini darslarga to'g‘ri taqsimlash, ta'lim metodlaridan mohirona foydalanish, har bir talabaga individual yondashish, hamda ta'limning oddiydan murakkabga, ma`lumdan noma`lumga, umumiydan xususiyga o`tish tamoyillariga asoslanish ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili. Bu tamoyil asosida maxsus fanlar bo`yicha o`quv materiallarini shunday mantiqiy taqsimlash kerakki, bunda maxsus fanlarga oid tarqoq bir-biriga bog`lanmagan bilimlar emas, balki bilimlarning yangi tizimi shakllanadigan bo`lsin, Bu

tamoyilga nazariya tajriba-amaliy va ishlab chiqarish ta'limlari orasida izchillik bo'lgandagina erishish mumkin, Fanni mavzuiy rejalashtirishda bu tamoyilga asoslanish kerak.

Talabalar faolligi va mustaqilligi tamoyili. O'quv materiallarini o'zlashtirish darajasida talabalar faolligini va mustaqilligini oshirish uchun o`qituvchi maxsus fanlarni o'rgatishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning ko'rgazmali qurollari va texnik vositalaridan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi, darsda muammoli vaziyatlar vujudga keltirishi, talabalarda ijodiy fikrlash va xotirani rivojlantirish lozim.

Ko'rgazmalilik tamoyili, Maxsus fanlarni o'qitish sezib idrok etish hamda abstrakt tafakkurning bog`lanishi asosida tuzilishi lozim. Ko'rgazmalilik tamoyili qo'llanilganda talabalar faolligi va qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi va tafakkuri rivojlanadi va bilish jarayoni tajriba, amaliyot bilan bog`lanadi. O`qitish maqsadlariga mos bo`lib, mavzuning mazmuni bilan belgilanadi, Bu materialni o'rganish esa talabalarni chinakam ilmiy va hayotiy bilimlar bilan qurollantirishi kerak, Ko'rsatmalilik bu bilimlarni yaxshiroq o`zlashtirib olishga hamda uiarning hayot bilan, mehnat amaliyoti bilan bog‘lanishiga yordam beradi, Mashg`ulotlarda turli xil ko'rsatmali qurollarni qo'llash talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, ularning diqqatini aynan o'tilayotgan mavzuga jalb etadi, Shuning uchun ko'rsatmalilik vositalari o`qitishning hama bosqichlarida talabalarning yangi mavzuni tushunishlarida, bilimlarini mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatida va ishda qo llashlarida, mehnat ko nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi. Ko'rgazmali qurollar darsning maqsadi, mavzuning xarakteri va mazmunini hamda ta lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib qo llaniladi.

O'qitishning tushunarli bo'lishlilik tamoyili o'rganilayotgan material mazmunini, hajmi va o'qitish usullariga ko'ra talabalarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jismoniy kuchi va bilish imkoniyatlariga mos bo lishini talab etadi.

Talabalar yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili, Bu tamoyilga asosan guruhni o'quv jamoasi sifatida tarbiyalash, barcha talabalarning birgalikda faol ishlashi uchun sharoit yaratish kerak, Bunda har bir talabaga individual yondashish, ularning fiziologik, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, bilimlari va tarbiya darajasini hisobga olish zarur.

Faollik tamoyili. Inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangi yangi sir asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Talaba o`z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun talabalar darsga faol qatnashishi kerak.

Namunalardan foydalanish, o`quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim namunalarni tanlashga harakat qilish zarur. Bilimlarni qo llash, Talabalar olgan bilimlarini amalda qo llay olishi zarur. Shuning uchun bu bilimlar qo'llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo'lishi kerak. Bunday amaliy vaziyatlar o`qituvchi tomonidan yaratilishi lozim.

Natijalarni mustahkamlash tamoyili, o`qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu talaba va o`qituvchi o`rtasida doimiy aloqa bo`lishini talab qiladi.

Ta'limda onglilik va faollik tamoyili - talaba o'zi harakat qilgan paytda yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi, O'quv jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, talaba ilm olishga ongli munosabatda bo`lsin. Talabalar har bir darsga faol qatnashishi kerak, Talaba qandaydir ish bajarishda u ishni ongli ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rashib qoladi, Natijada talabalar darslarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtirgani uchun mukammal bilimga ega bo lish bilan birga, ularning bu sohada qiziqishi ortadi, Mustaqil va individual ravishda o'rganish kabilarga faqat shu tarzda erishish mumkin, Buning uchun, o qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo lishi kerak.

Ta'limni ongli o'zlashtirish tamoyili, bir tomondan ta'lim oluvchilarning mustaqil, faol fikr yuritishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida ta'lim oluvchilarning mustaqillik va faolliklarining hamda, mantiqiy, erkin fikrlash faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni o`z ichiga oladi. O qitishda onglilik va faollik dastavval,

aqliy fikrlash faoliyatidagi aniqlikka bog`liqdir. Tafakkur qilishdagi faollik esa, bayon qilingan o`quv materiallari yoki tevarak-atrofni o'rab olgan ob`yektiv borliqdagi narsa va hodisalar, voqealar ustida fikf yuritishdir, Faol fikrlashda, ya'ni taqqoslash, solishtirish, tahlil-sintez qilish, abstraksiya va umumlashtirishda namoyon bo ladi, Shunga ko'ra, ongli va faol o`zlashtirishga erishish uchun ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo lishi lozim.

Maxsus fanlarni o`qitish mazmunini belgilovchi mezonlari va hozirgi zamon rivojlanish bosqichida ta lim mazmunini belgilovchi muhim tamoillar.



Xulosa qilib aytganda Muhandislik fanlari xususan Mexanika(nazariy mexanika va materiallar qarshiligi) fanini o`qitishda fan-texnikaning so`nggi yangiliklari va o`zgarishlarini aniqlash, shular asosida ta`lim yo`nalishlarini o`quv rejasidagi mavzularni, tushuntirish uslub hamda tamoyillarini to`g`ri belgilab olish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrgagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni
2. Gafurovich, D. U., & Sotivoldievich, Z. M. (2021). The use of non-conventional power sources is a requirement of the period. *Academicia Globe*, *2*(07), 121-126.
3. Деҳқонов, У. Ғ., & Исабоев, Ш. М. (2022). Шамол агрегати фойдали қаршилик моментининг зарурий қиймати. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 216-222.
4. Деҳқонов, У. Ғ., Исабоев, Ш. М., & Уришев, Ў. Ғ. (2022). Ротор моментининг характеристикаси. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 205-215.
5. Dehkanov, U. G., Makhmudov, Z. S., & Azamov, Q. S. (2022). Practical Equation of Torque for a Concave Wing Rotor Drive. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, *1*(6), 230-234.
6. U Dekhkonov, I Najmiddinov, I Sharofiddin, K Azamov (2022). Новая конструкция ротора ветрового агрегата с вертикальной осью вращения. Journal of Northeastern university 25 (04)

7. Daminov, J. A., Tillaboev, Y. K., Agzamov, K. S., Isaboyev, S. H. M., & Abdujabborov, A. A. (2021). The mechanism of experimental determination of the angular velocity of the working shaft of the wind unit. *Design Engineering*, *9*, 11814-11821.

8. Махмудов, З. С., & Даминов, Ж. А. (2023). Применение педагогических технологий на лекционных занятиях по теоретической механике. *Экономика и социум*, (4-2 (107)), 650-654.

9. A.A. To`xtaboyev, Sh.M.Isaboyev. Kredit – modul tizimini jahon ta`lim tizimiga kirib kelish tarixi va amaliyotga joriy etish bosqichlari. International scientific and scientific-technical conference on theme "Innovation in construction, seismic safety of buildings and structures". -ЎзР ВМнинг 2022 йил 30 майдаги 08/8-8-сонли топшириғи

10. A.M.Raximov; X.L.Alimov, Sh.M. Isaboyev. Kredit – modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari (texnik ta`lim yo`nalishlarida Materiallar qarshiligi fanini o`qitish misolida). International scientific and scientific-technical conference on theme "Innovation in construction, seismic safety of buildings and structures". -ЎзР ВМнинг 2022 йил 30 майдаги 08/8-8-сонли топшириғи

11. Sh.M. Isaboyev. Mexanika fanini fanlararo hamkorlikda o'qitish asosida talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, [2024-6-son] ISSN:2181-1458 ISSN:2181-0427 13.00.00-PEDAGOGIKA journal.namdu.uz PEDAGOGICAL

12. Sh.M. Isaboyev, M.A.Musamiddinov. Tajriba mashg`ulotlarining quruvchi-muhandis kadrlarni tayyorlashdagi ahamiyati. "Texnik oliy o'quv yurtlarida tillarni o'qitishda innovatsion va kommunikativ yondashuvlar: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 19-20 arpel 2024 y 404-410 betlar

13. Abdullayev_K. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi O'quv qo'llanma. "SUNRISE PRO" Namangan 2024 y 254 b

TADQIQOT VA TARAQQIYOT ILMIY-AMALIY JURNALI

Ilmiy jurnalida maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

1. Namangan muhandislik-qurilish institutining «ILM, TADQIQOT VA TARAQQIYOT» ilmiy jurnali (Научный журнал «НАУКИ, ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ», Scientific Journal «SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT») da respublikamizning oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnal bir yilda oltita son chop etilib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar e’lon qilinadi:

- *Avtomobil yo‘llaridagi innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar;*
- *Transport Muhandisligi;*
- *Texnika va texnologiya;*
- *Energetika va muqobil energiya manbalari:*
- *Ta’limda zamonaviy texnologiyalar.*

2. Taqdim etilgan maqolalarga qo‘yiladigan talablar:

Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-12 qator) va kalit so‘zlar (5-8 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

-maqola matni “MS Word” dasturida “Times New Roman” shriftida 12 pt o‘lchamda, hajmi 1 intervalda 4-7 (pedagogika fanlar bo‘yicha 5-12) bet bo‘lishi kerak. Varoq o‘lchami 210x297 mm (A4 format), matn chegara o‘lchamlari yuqoridan va pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi lozim.

-ilmiy jurnalning yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda ilmiy va to‘liq fikrlarga asoslangan, taklif va tavsiyalar bilan maqolalar taqdim etilishi;

-UO‘T(UDK), keyingi qatorda maqolaning nomi o‘zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o‘rtada, qalin yozuvda (жирный)), undan keyingi qatorda mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o‘zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

- maqola xalqaro **IMRAD** formatida yozilishi kerak;

- maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya’ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o‘tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o‘qib chiqib, olim maqolani to‘liq o‘qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yetarlicha tushinishi kerak. Annotatsiyadan so‘ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so‘zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

- maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullar (methods), natijalar (results), muhokamalar (discussion), va xulosalar (conclusion) bo‘limlari aniq ma’lumotlar asosida yoritib berilishi kerak. Bir qatordan so‘ng maqola matni yoziladi.

-maqoladagi formulalar Word matn muharririning Microsoft Equation 3.0 yoki MathType ilovasida yoziladi.

- rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo‘lmagan o‘lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so‘ng qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (**1-rasm. Nomi**). Jadvallarning nomlari javalning yuqori qismida qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (**1-jadval. Nomi**).

- adabiyotlarga havolalar o‘zbekk var us tilidagi maqolalar uchun ГОСТ 7.32-2001 yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiya va avtoreferatlarni rasmiylashtirishga qo‘yilgan talalablarga asosan tayyorlash maqsadga muvofiq.

- adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko‘rinishda bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: jurnalda chop etilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki

qismi, – betlari; monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni; avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni; dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari; patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami / e'lon qilingan yil.

Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi // Patent raqami, nashr yili. – Byulleten raqami; internet ma'lumotlari uchun - URL, ma'lumotga murojaat etilgan sana.

3. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi.

4. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

5. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba'zi maqolalar borasida tahririyat qo'shimcha ma'lumot so'rash huquqini saqlaydi.

Tahririyat manzili: 160103. Namangan shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Telefon/faks: (0-369) 234-15-23,
e-mail: *mirzoxidt_2011@mail.ru*
Bizning sayt: https://tadqiqottaraqqiyot.uz/

Aloqa uchun +998977600462, +998993627801

NamMQI kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahar I. Karimov ko'cha, 12-uy